

378  
267

DAVRON ZIYADULLAYEV

**MAXSUS FANLARNI  
O'QITISH USLUBIYOTI**

**O'QUV QO'LLANMA**


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSİYALARINI  
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI  
UNIVERSITETI**

**DAVRON ZIYADULLAYEV**

**MAXSUS FANLARNI O'QITISH  
USLUBIYOTI**

**O'QUV QO'LLANMA**



**TOSHKENT  
“INNOVATSIYA -ZIYO”  
2019**

**UDK: 370.1**

**BBK: 74.00**

**Z-76**

**Ziyadullayev, Davron.**

**Maxsus fanlarni o'qitish uslubiyoti (o'quv qo'llanma)-Toshkent:  
"INNOVATSIYA -ZIYO", 2019, 118 b.**

**UDK: 370.1**

**BBK: 74.00**

**Z-76**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universitetining Ilmiy-uslubiy kengashi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

Mazkur o'quv qo'llanmada O'zbekistonning ta'lif tizimi, 2017-2021-yillarda olib boriladigan islohotlar, shuningdek, bo'lajak pedagog kadrlarga ta'lif to'g'risidagi me'yoriy hujjatlarni o'rgatish, ta'lif jarayonining o'quv metodik ta'minoti bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishdagi muhim manbalar va ma'lumotlar berilgan.

O'quv qo'llanma barcha magistratura mutaxassisliklari uchun mo'ljallangan.

**Taqribchilar:**

**F.M. Zakirova**

- pedagogika fanlari doktori, professor

**S.Q. Tursunov**

- pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

## SO'Z BOSHI

Respublikamizda ma'naviyatni yuksaltirish, milliy ta'lif-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablar bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari darajasiga chiqarish maqsadida katta ahamiyatga ega bo'lgan nazariy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda, har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoiy va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada ta'lif turlari to'g'risida mutlaqo yangi qoidalar hayotga joriy etildi. Kadrlar tayyorlash va uzlusiz ta'lif tizimini isloh qilishning huquqiy-me'yoriy assosi yaratildi.

"Ta'lif to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi uzlusiz ta'lif tizimida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ularda ilmiy dunyoqarashni, mehnatga ijodiy munosabatni tarkib toptirish, yuksak mehnat intizomini shakllantirish vazifasini qo'yadi.

Bu vazifalarni bajarish ta'lif tizimida yangi texnika va texnologiyalardan foydalana oladigan, yuksak malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash demakdir.

Bu vazifalar ijrosining mantiqiy davomi sifatida qabul qilingan "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror bugungi kun ta'lif jarayonining assosi hisoblanadi.

Qarorda oliy ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda kadrlar taylorlashda xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlash masalasi ko'zda tutilgan.

Ishlab chiqarish texnologiyalarining yangilanayotganligi, fan kashfiyotlari va texnikaning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanib borishi oliy ta'lif muassasalaridagi maxsus fanlar o'qituvchilarining o'z bilimlarini mustaqil va muntazam ravishda chuqurlashtirib, yangilab, to'ldirib va kengaytirib borishini talab etadi.

Bugungi kunda oliy ta'lif tizimida o'quv rejalarini va fan dasturlarini dunyo ta'lif standartlariga muvofiqlashtirish zarur. Maxsus fanlardan o'quv dasturlarini zamon talablariga mos ravishda oddiydan murakkabga qarab tuzish, har bir mavzu uchun qo'shimcha o'quv va didaktik materiallarni yaratish ta'lif oluvchilarning nazariy bilimi, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirib borishda samara beradi.

Maxsus fanlardan ta'lif oluvchilarda yetarlicha bilim va ko'nikmalarini hosil qilish uchun zamonaviy ta'lif talablariga javob beruvchi o'quv-uslubiy majmualar hamda o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish va o'quv jarayoniga tafbiq etish hozirgi davr talabidir.

Maxsus fanlardan ta'lif oluvchilarda yetarlicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda zamonaviy o'qitish texnologiyalari va faol usullarini ta'lif jarayonida qo'llash yaxshi natija beradi. O'qitishda faol usullarni qo'llash ta'lif oluvchilarning bilim imkoniyatlari, ijodiy qobiliyatlar va amaliy ko'nikmalarini o'rganish darajalarini rivojlantirishda ijobjiy samara beradi. Maxsus bilimga ega kadrlar tayyorlashda ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayoni to'g'ri va samarali tashkil etilsa, yangi o'qitish usullaridan foydalanilsa jamiyatga yetuk kadr tayyorlashning asosi bo'ladi.

Ushbu o'quv qo'llanmada rivojlanish strategiyasining ta'lif tizimiga oid yo'nalishi, unda ko'rsatilgan islohotlar va shu bilan bir qatorda, maxsus fanlarning o'quv-uslubiy ta'minotini ishlab chiqish qoidalari, o'qitish metodlari va ta'lif tamoyillari haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, maxsus fanlarni o'qitish jarayonini tashkil etish, o'tkazish va baholash, o'qitishda faol usullarni qo'llash, mustaqil ishlarni o'tkazish va nazorat qilish haqida bat afsil ma'lumotlar va tavsiyalar yoritilgan.

## I BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING “HARAKATLAR STRATEGIYASI”

### 1.1. “Harakatlar strategiyasi”: taraqqiyotning yangi bosqichi, yangi vazifalar

Izchillik va qat’iyat bilan amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida “Odamlar o’zlarining hayotidan rozi bo’lishi kerak<sup>1</sup>”, -degan hayotbaxsh g’oya yotadi. O’zbekiston taraqqiyotining navbatdagi bosqichida ham odamlarning yashash sharoitini yanada yaxshilash, farovonligini oshirib borish lozim bo’lgan asosiy vazifa va bosh maqsad sifatida belgilandi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 24 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasida ilgari surilgan “2017-2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi” davlat va jamiyatning bosh maqsadi bo’lgan odamlarning turmush darajasi va sifatini yanada oshirishni ta’minlashga qaratilganligi bilan nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

2017-yil keng jamoatchilik tomonidan O’zbekiston taraqqiyotida juda katta amaliy ahamiyat kasb etadigan, bevosita davlat rahbari tashabbusi bilan hukumat, parlament va fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokida ishlab chiqilgan “2017-2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi” loyihasi jamoatchilik muhokamasidan o’tdi.

Muhokamalar jarayonidagi qizg’inlik, ishtirokchilarning savol-javob va taklif-mulohazalar bildirishdagi faolligi fuqarolarimizning ijtimoiy-siyosiy faolligi ortib borayotganligini, islohotlarga nisbatan dahldorlik tuyg’usi shakllanganligini ko’rsatib turibdi.

2017-yil 7-fevral kuni O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni qabul qilinganligini ham shu o’rinda alohida ta’kidlab o’tish lozim. Zamirida ulkan ezzuliklar mujassam bo’lgan hujjat muhokamasi keng jamoatchilikning katta qiziqishiga sabab bo’ldi.

Keng jamoatchilikning katta qiziqishi va alohida e’tiboriga sazovor bo’lgan “Harakatlar strategiyasi” O’zbekiston taraqqiyotining navbatdagi bosqichida konseptual ahamiyatga egaligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>1</sup> O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 24 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasidan.

Mazkur hujjatning davlat va nodavlat tashkilotlari, ayniqsa, fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biri bo'lgan siyosiy partiyalarning faollari, qolaversa, jamoatchilik vakillari tomonidan muhokama etilishi mamlakatimizdagi demokratik islohotlarning amaldagi hayotiy ko'rinishi deb e'tirof etish uchun o'rinnlidir.

Ushbu tarixiy hujjatning tom ma'nodagi ahamiyati nimada?

Birinchidan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "Harakatlar strategiyasi" davlatimiz va jamiyatimizni rivojlantirishning mutlaqo yangi bosqichini boshlab beradi.

Ikkinchidan, "Harakatlar strategiyasi" Konstitutsiyamizning asosiy demokratik normalarini bosqichma-bosqich amalga oshirish doirasida demokratik yangilanish va modernizatsiya jarayonlarining mantiqiy va qomuniy davomidir.

Uchinchidan, o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, "Harakatlar strategiyasi" dunyoda tub o'zgarishlar yuz berayotgan hozirgi zamonda siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarning eng muhim besh ustuvor yo'naliшини amalga oshirishning besh yilga mo'ljallangan milliy strategiyasidir.

To'rtinchidan, "Harakatlar strategiyasi"ning jonli va qizg'in jamoatchilik muhokamasi bugungi zamon talabiga mos ravishda eng yangi informatsion texnologiyalarni keng qo'llagan holda olib borildi. Bu uning to'laqonli muhokamasi uchun asos bo'lib xizmat qildi.

"Harakatlar strategiyasi"ni izchil va tizimli amalga oshirishda uchta muhim prinsipga e'tiborni qaratish lozim.

Birinchi prinsip: "Harakatlar strategiyasi" biz tanlab olgan va Birinchi Prezidentimiz asos solgan hamda butun dunyo tan olgan taraqqiyot "o'zbek modeli"ning mantiqiy davomidir.

Shu ma'noda "Harakatlar strategiyasi" o'zining bosqichma-bosqichligi, izchilligi va tadrijiyligini saqlab qoladi.

Ikkinci prinsip: "Harakatlar strategiyasi"da beshta ustuvor yo'naliish, ya'ni davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'naliishlari, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'naliishlari, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberalallashtirishning ustuvor yo'naliishlari, ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari, xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'naliishlar uzviy bog'liq ekanligi va bir-birini taqozo etishini aniq va ravshan anglash lozim.

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashтирish

2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud - huquq tizimini yanada isloh qilishi.

3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish

4. Fikrini sohani rivojlantirish

5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik, o'zaro manfaatli tashqi siyosat yuritish

Uchinchi prinsip: "Harakatlar strategiyasi" ma'no-mazmuni sodda va tushunarli, har bir fuqaro uchun amaliy ish dasturiga aylanmog'i kerak.

Yuqorida sanab o'tilgan beshta muhim ustuvor yo`nalishda qabul qilinishi zarur bo`lgan qonun ijodkorligiga har tomonlama katta mas'uliyat bilan yondashishimiz talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, "Harakatlar strategiyasi" o'z mohiyatiga ko`ra davlat va jamiyat rivojining prinsipial jihatdan yangi bosqichda mamlakatimizni rivojlantirish bo'yicha boshlangan keng ko'lamli va tizimli islohotlarni yanada izchil davom etirish, yurtimizda yuz berayotgan o'zgarishlarga yangicha nigoh bilan qarash, erishilgan yutuqlarga xolisona baho berish va mavjud muammolarni chuqur tahlil etish va ularning yechimini topish imkonini beradi<sup>2</sup>.

Bugungi kunda mamlakatimizda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

<sup>2</sup> <http://m.insonvaqonun.uz/?q=ruknlar/2884>

Ustuvor yo'nalishlarda ranglar mujassamligi quyidagicha ta'riflangan:

I. Davlat va jamiyat qurilish tizimini takomillashtirish

(Moviy havorang – osmon va toza suv ramzi, buyuk Amir Temur davlati bayrog'inning rangi).

II. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloq qilish

(Siyohrang – qonuniylik elementlari hisoblangan ustuvorlik va ornomusilik ramzi).

III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va erkinlashtirish

(Tillarang – iqtisodiyotni rivojlantirish elementlari hisoblangan kuchqudrat va boylik ramzi).

IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirish

(Qizil rang – hayot va aholining munosib turmush tarzini ta'minlash ramzi).

V. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik, o'zaro manfaatli va amalii tashqi siyosat

(Oq rang – tinchliksevarlik siyosati elementlari hisoblangan tinchlik va soflik ramzi).

## **1.2. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi**

### **I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari**

#### **1.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish:**

- davlat hokimiyyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlarini yanada kengaytirish;

- qabul qilinayotgan qonunlarning amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta'sirini kuchaytirishga yo'naltirgan holda qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirish;

- siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o'rtaida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish.

### **1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish:**

- davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish hamda iqtisodiyotni tartibga solishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini isloh qilish;

- mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda o'zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

- davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish;

- «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning samarasi, sifatini yuksaltirish va bu xizmatdan aholi hamda tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish.

### **1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish:**

- xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini joriy etish;

- jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish;

- fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish;

- mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliyatini samaradorligini oshirish;

- ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish.

## II. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo`nalishlari

### 2.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish:

-sud'yalar va sud apparati xodimlarining mavqeini, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish, sudlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

-sud'yalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish;

-sudning mustaqilligi va beg'arazligi, sud prosessida tomonlarning tortishuvi va teng huquqlilik tamoyillarini har tomonlama tatbiq etish;

- «Xabeas korpus» institutini qo'llash sohasini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish;

- sudlarni yanada ixtisoslashtirish, sud apparatini mustahkamlash;

-sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

### 2.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash:

- fuqarolarning murojaatlарини о'з ваqtida hal etish, murojaatlarni ko'rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo'lish holatlariga yo'l qo'yanlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, shuningdek, buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralarini ko'rish;

- sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash;

- fuqarolarning xususiy mulkka bo'lgan huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlash;

- fuqarolarning odil sudlovga to'sqiniksiz erishishini ta'minlash;

- sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi samaradorligini oshirish.

### 2.3. Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish:

- jinoyat va jinoyat-prosessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish;

- odil sudlovnvi amalga oshirish samaradorligi va sifatini oshirish, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik sud ish yurituvining prosessual asoslarini takomillashtirish;

- jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish, bir-birini takrorlaydigan vakolat va instansiyalarni qisqartirish;

- elektron tartibda sud va ijro ishini yuritishning zamonaviy shakl va usullarini joriy etish.

#### ***2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish:***

-jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish;

-diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarни kuchaytirish;

-korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish;

-aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o`zaro samarali hamkorligini tashkil etish.

#### ***2.5. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash:***

- huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari ishini samarali rejalahtirish va uning natijalarini tahlil qilish, tizimli huquqbazarliklarni aniqlash hamda ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va sharoitlarni bartaraf etish;

- sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari xodimlarini o'qitish, tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, rotatsiya qilish tizimini takomillashtirish;

- huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari xodimlari orasida huquqbazarliklarning oldini olish, profilaktika qilish va bartaraf etish bo'yicha idoraviy nazoratning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

- huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlari samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqni muhofaza qilish tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash.

#### ***2.6. Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish:***

-davlat organlarining yuridik xizmati faoliyati samaradorligini oshirish;

-advokatura institutini rivojlantirish, jinoyat, fuqarolik, ma'muriy va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqishda advokatlarning rolini oshirish;

-notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlari tizimini isloh qilish.

### **III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari**

#### **3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish:**

- makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;

- harajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda davlat budjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy budjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

- soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddallashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatiligidini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarни kengaytirish;

- ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash;

- bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish;

- sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish;

- xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, y yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni

davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish.

***3.2. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:***

- milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish;

- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihamonlari amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;

- yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;

- iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;

- prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;

- ishlab chiqarishni mahalliy lashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rmini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;

- iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdarligini oshirish;

- faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalari samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish;

- xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamонави yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

- turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikasiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish;
- eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikasiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;
- yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

### *3.3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:*

-tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;

-paxta va boshoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo'shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish;

-fermer xo'jaliklari, eng avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

-qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha investisiya loyihalarini amalga oshirish;

-qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish;

-sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya ob'ektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, SUV va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarini joriy etish, unumdonligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish;

-kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda yuqori mahsuldotlikka ega hayvonot zotlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish;

- global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish.

*3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:*

-xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklowlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi" degan tamoyilni amalga oshirish;

-kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish;

-davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartibini soddallashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan ob'ektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

-investisiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;

-korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarни strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;

-tadbirkorlik sub'ektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartibi va mexanizmlarni takomillashtirish va soddallashtirish;

-mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

*3.5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:*

-ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xo`jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;

-hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko`lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo`lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo`li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish;

-yangi sanoat korxonalari va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo`jalik birlashmalarining mablag`larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investisiyalarni jalg qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish;

-sanoat va xizmatlar ko`rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

-sanoat korxonalari va boshqa ishlab chiqarish ob'ektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

#### **IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlari**

##### ***4.1. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish:***

-aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kamta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish;

-byudjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyatsiya sur'atlaridan yuqori miqdorda izchil oshirish;

-yangi ish o'rinalarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish;

-mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to`liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish.

*4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish:*

-aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarining ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

-aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga, aholi o'rtaida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirgan holda sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish;


-oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishini kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada kengroq amalga oshirish;

-xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnini kuchaytirish, xotin-qizlar, kasb-hunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash;

-pensionerlar, nogiron, yo'lg'iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot kechirishlarini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish;

-farmasevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlanishini yaxshilash, dori-darmonlar narxlarining asossiz o'sishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

-aholi o'rtaida kasallanish ko'rsatkichlarining pasayishini va umr uzayishini ta'minlash.



*4.3. Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalgamoshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish:*

-aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash;

-aholining kommunal-maishiy xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini oshirish, eng avvalo, yangi ichimlik suvi tarmoqlarini qurish, tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali qishloq joylarda aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlashni tubdan yaxshilash;

-odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarini qurish va modernizatsiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, aholini chiqindini yo'q qilish bo'yicha zamonaviy ob'ektlar bilan ta'minlash;

-aholiga transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash, yo'lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof-muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish;

-yo'l infratuzilmasi qurilishi va rekonstruksiya qilinishini davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, aholi punkti ko'chalarini kapital va joriy ta'mirlash;

-yangi elector-energiya ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, past kuchlanishli elektor tarmoqlari va transformator punktlarini yangilash asosida aholini elektor energiyasi hamda boshqa yoqilg'i-energiya resurslari bilan ta'minlashni yaxshilash, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalishni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalgamoshirish;

-teatr va tomosha maskanlarini, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar va muzeylar faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

#### *4.4. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish:*

-uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni

tayyorlash; ta'lif muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalarini, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish; bolalar mактабгача та'lif muassasalarini tarmog'ini kengaytirish, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun mактабгача та'lif muassasalaridagi shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning mактабгача та'lif bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va uning qulayligini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish;

-umumiy o'rtalikta sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika, matematika, fizika, ximiya, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan predmetlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish;

-bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga jalb qilish, ularni musiqa va san'at olami bilan bog'lash maqsadida yangi bolalar sporti ob'ektlarini, bolalar musiqa va san'at mакtablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

-kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxasislik bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

-ta'lif va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lif muassasalarini faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lif muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

-ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

#### *4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish:*

- jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazariga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

-o'rtalik maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lif muassasalarini bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb qilish; yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda

amalga oshirish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish; yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlar yaratish;

-yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish.

#### **V. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo`nalishlar**

##### *5.1. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo`nalishlar:*

-O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;

- axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va mutanosib ravishda qarshi harakatlarni tashkil etish;

- fuqarolik, millatlar va konfessiyalararo tinchlik va totuvlikni mustahkamlash;

- davlatning mudofaa salohiyatini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va qobiliyatini oshirish;

- atrof-tabiiy muhit, aholi sog'lig'i va genofondiga putur yetkazuvchi ekologik muammolarning oldini olish;

- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish.

##### *5.2. Chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo`nalishlar:*

- davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarni to`la huquqli sub'ekti sifatida o'rni va rolini kuchaytirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekiston tevaragida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik mintaqasini vujudga keltirish;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, jahon hamjamiyatiga mamlakatda olib borilayotgan islohotlar haqida xolis axborotni yetkazish;

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatini normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

- davlat chegarasining demilitatsiya va demarkatsiya masalalarini hal etish<sup>3</sup>.

Har bitta sohaning izchil rivojlanish yo'li belgilanib berilgan ekan, bu ta'lif sohasi vakillaridan ham, bo'lajak kadrlardan ham sidqidildan mehnat qilishni, chuqur izlanishni, shu bilan birga, mas'uliyatni talab etishi tabiiy.

### **1.3. O'zbekiston Respublikasi ta'lif tizimida olib borilayotgan tub islohotlar**

Uzluksiz ta'lif kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Mustaqillikka erishgan ilk kunlarimizdayoq birinchi Prezidentimiz tomonidan ta'lif sohasiga katta e'tibor qaratilib, "Ta'lif to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi kabi davlat ahamiyatiga molik hujjatlar qabul qilindi. Bu davr ichida ta'lif tizimi tubdan isloh qilinib, ta'lif olish uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Jumladan 1992-yil qabul qilingan "Ta'lif to'g'risida"gi Qonun shart-sharoitlardan kelib chiqib, 1997-yil yangi Qonun bilan takomillashtirildi. 1-jadvalda qonunning qiyosiy tahlili keltirilgan.

#### *I-jadval* **1992- VA 1997- YILLARDA QABUL QILINGAN "TA'LIM TO'G'RISIDA"GI QONUNNING QIYOSIY TAHЛИLI**

<b>"TA'LIM TO'G'RISIDA"GI QONUN 1992-yil 2-iyul (hujjat kuchlari yo'qotgan 30.09.1997)</b>		<b>"TA'LIM TO'G'RISIDA"GI QONUN 1997-yil 29-avgust</b>	
7ta bo'llim.		8ta bo'llim.	
I bo'llim. Umumiyl qoidalar	1-modda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonunlari 2-modda. "Ta'lif to'g'risida"gi qonunlarning vazifalari 3-modda. Ta'lif sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari 4-modda. Ilm olish huquqi 5-modda. Talim tillari 6-modda. Ta'lifning davlat standartlari	I.Umumiyl qoidalar	1-modda. Ushbu Qonuning maqsadi 2-modda. "Ta'lif to'g'risida"gi qonun hujjatlari 3-modda. Ta'lif sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari 4-modda. Bilim olish huquqi 5-modda. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi 6-modda. Ta'lif muassasasining huquqiy magomi

<sup>3</sup> "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldag'i nutqi.

			7-modda. Davlat ta'lif standartlari 8-modda. Ta'lif berish tili
II bo'lim. Ta'lif tizimi	7-modda. O'zbekiston Respublikasida ta'lif tizimi 8-modda. Maktabgacha ta'lif 9-modda. Umumiy ta'lif 10-modda. Maktabdan tashqari ta'lif 11-modda. Hunar-tehnika ta'lifi 12-modda. O'rta maxsus ta'lif 13-modda. Oliy ta'lif 14-modda. Ilmiy va ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlash 15-modda. Kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash 16-modda. Oiladagi ta'lif 17-modda. Mustaqil ravishda bilim olish 18-modda. Ta'lif to'g'risidagi hujjatlar	II. Ta'lif tizimi va turlari	9-modda. Ta'lif tizimi 10-modda. Ta'lif turlari 11-modda. Maktabgacha ta'lif 12-modda. Umumiy o'rta ta'lif 13-modda. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi 14-modda. Oliy ta'lif 15-modda. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lif 16-modda. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash 17-modda. Maktabdan tashqari ta'lif 18-modda. Oiladagi ta'lif va mustaqil ravishda ta'lif olish 19-modda. Ta'lif to'g'risidagi hujjatlar
III bo'lim. Ta'lif tizimini boshqarish	19-modda. Ta'lif tizimini boshqarining davlat-ijtimoiy hususiyati 20-modda. O'zbekiston Respublikasining ta'lif sohasidagi vakolatlari 21-modda. Mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralarining ta'lif sohasidagi huquq-vakolatlari 22-modda. O'zbekiston Respublikasida ta'lifni boshqarish davlat idoralar 23-modda. Ta'lif muassasalarini boshqarish 24-modda. Ta'lif muassasalarini boshqarishda jamoatchilikning ishtiropi 25-modda. Ta'lifni boshqarish davlat idoralar bilan davlat tasarrufida bo'lmagan ta'lif muassasalarining o'zaro munosabatlari 26-modda. Ta'lifni boshqarish davlat idoralar bilan o'zga bo'yunuvdag'i ta'lif muassasalarining o'zaro munosabatlari	III. Ta'lif jarayoni qatnashchilari arini ijtimoiy himoya qilish	20-modda. Ta'lif oluvchilarini ijtimoiy himoya qilish 21-modda. Ta'lif muassasalarini xodimlarini ijtimoiy himoya qilish 22-modda. Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish 23-modda. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish 24-modda. Ijtimoiy yordamga va tiklanishga muhtoj bo'lgan shaxslar uchun o'quv-tarbiya muassasalarini
IV bo'lim. Ta'lif jarayoni qatnashchilarining huquqlari, vazifalar va mas'uliyatlari:	27-modda. Ta'lif oluvchilarning huquq va majburiyatlari 28-modda. Talim oluvchilarini ijtimoiy jihatdan himoya qilish 29-modda. Ta'lif oluvchilarning salomatligini muhofaza qilish 30-modda. Ota-onalar yoki ularning o'mini bosuvchi shaxslarning huquqlari, majburuyat va mas'uliyatlari 31-modda. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish 32-modda. Pedagog xodimlarning huquqlari 33-modda. Pedagog xodimlarning majburiyatlari 34-modda. Davlat tasarrufidagi ta'lif muassasalarini xodimlarini ijtimoiy jihatdan himoya qilish	IV. Ta'lif tizimini boshqarish	25-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lif sohasidagi vakolatlari 26-modda. Ta'lifni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasini 27-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta'lif sohasidagi vakolatlari 28-modda. Ta'lif muassasasini boshqarish 29-modda. Ta'lif sohasidagi davlat boshqaruvi organlari bilan nodavlat ta'lif muassasalarini o'rtasidagi o'zaro munosabatlari
V bo'lim. Tarijuya va ta'lifning alchida shart-sharoitlariga	35-modda. Yetim bolalar va ota-onasi yoki ularning o'mini bosuvchilar rahnamoligidan mahrum bo'lgan bolalarga ta'lif berish hamda ularni boqish	V. Yakun-lovchi xulosalar	30-modda. Ota-onalar yoki qonuniy vakillarning vazifalari 31-modda. Ta'lifni molijiyatlash 32-modda. Ta'lifni rivojlantirish fondlari 33-modda. Xalqaro hamkorlik

muhtoj bolalar hamda o'smirlarni ijtimoiy jihatdan himoya qilish	36-modda. Jismoniy va ruhiy jihatdan nuqsonlari bo'lgan, shuningdek uzoq vaqtida davolanishga muhtoj bolalar hamda o'smirlarning tarbiyasi va ta'lim olishi 37-modda. Ijtimoiy yordamga va salomatligini tiklashta muhtoj shaxslar uchun o'quv-tarbiya muassasalarini		34-modda. Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik
VI bo'lum. Ta'lum muassasasi ning huquqiy maqomi. Ta'luming moddiy bazasi va uni pul bilan taminlash	38-modda. Ta'lum muassasalarining muassislari 39-modda. Ta'lum muassasalarining huquqiy maqomi 40-modda. Ta'lum tizimida mulk huquqi 41-modda. Ta'lum muassasalarining moddiy-tekniki bazasi 42-modda. Ta'lumi pul bilan ta'minlash 43-modda. Ta'luming davlat tomonidan rag'batlanitirishi		
VII Bo'lum. Ta'lum tizimida xalqaro hamkorlik	44-modda. Xalqaro hamkorlik		Jami 34 ta modda.

Jami 44 ta modda.

Jami 34 ta modda.

Taraqqiyotimizning 25 yili mobaynida rioya etib kelingan ushbu qonun uzluksiz ta'lum tizimining doimiy asosi hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lum tizimini yanada takomillashtirishga, sifatli ta'lum xizmatlaridan foydalanishni oshirishga, mehnat bozorining zamonaviy talablariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlashga davlat tomonidan alohida e'tibor berilmoqda.

O'tgan yillarda ta'lum tizimini isloq qilish jarayonida respublikada mustahkam huquqiy, tashkiliy, moddiy-teknik baza yaratildi, bu intellektual salohiyati yuqori va barkamol yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashning mazmunini yangilashga ko'maklashdi. Shu bilan birga, islohotlar amalga oshirilgan yillarda umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lumini rivojlantirish, 12 yillik majburiy ta'limga o'tish natijalarini har tomonlama tahlil qilish hozirgi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi bugungi kun talablariga javob bermasligini va tubdan isloq qilishga muhtoj ekanligini ko'rsatdi.

Jumladan:

- kasb-hunar kollejlarni hududlarda joylashtirishga tizimli yondashish mavjud emasligi, mintaqalarda yo'l-transport infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi o'quvchilarning vaqti-vaqt bilan mashg'ulotlarga ommaviy qatnashmasligiga sabab bo'ldi;

- kasb-hunar kollejlari va ularning o'quv ustaxonalari o'quv-laboratoriya uskunalari bilan ta'minlanganligi ilm-fan, ishlab chiqarish

texnologiyalari va texnikaning rivojlanishi sur'atlaridan orqada qoldi, kasb-hunar kollejlarining moddiy-texnik jihozlanishi da rajasi o'rtacha 56 foizni tashkil etdi;

-darsliklar va o'quv qo'llanmalarini tayyorlash va nashr etish bo'yicha ishlar samarasiz va o'z vaqtida moliyalashtirilmasligi kasb-hunar ta'limi tizimini yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlashda jiddiy ravishda orqada qolishga olib keldi;

-kasb-hunar kollejlaridagi mintaqalarda iqtisodiyot tarmoqlarining real ehtiyojlarini ta'minlamaydigan kadrlar tayyorlashning mavjud tizimi, mehnat bozori kon'yunkturasi va ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish uchun imkoniyatlar mavjudligi hisobga olinmasdan belgilanadigan kasb-hunar kollejlariga qabul qilish kvotalari bitiruvchilarni ishga joylashtirish ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi;

-kasb-hunar kollejlaridagi amalga oshiriladigan o'quv jarayoni, qo'llaniladigan o'quv-normativ hujjatlarning kamchiliklari, kasblarning murakkabligi darajasi hisobga olinmasdan ta'limning yagona muddatlari belgilanishi, ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etishdagi kamchiliklar olinadigan bilimlar darajasi pasayishiga va bir qancha yo'nalishlar bo'yicha bitiruvchilarga talab pastligiga, o'qish tugallangandan keyin ish joylarida ularni qo'shimcha ravishda o'qitish zarurligiga olib keldi;

-aholi turli toifalarini "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi bo'yicha kasbga tayyorlash tizimining zaif rivojlanganligi katta yoshdagagi aholining salmoqli qismi, shu jumladan, ishga joylashishga muhtoj bo'lgan yoshlar va nogiron shaxslar mehnat bozorida talab etilmasligiga olib keldi;

-kasb-hunar kollejlarida o'quv jarayonini tashkil etishga va o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga rasmiyatçilik bilan munosabatda bo'lish, ularning bo'sh vaqtini tashkil etishning samarasiz mexanizmi mashg'ulotlarga qatnashish pasayishiga va buning oqibatida ular tomonidan sodir etiladigan huquqbazarliklar soni ko'payishiga olib keldi.

Ushbu sohadagi mavjud muammolarni tizimli hal etish, ilg'or xorijiy mamlakatlarning tajribasi asosida kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish, mavjud kasb-hunar kollejlarining moddiy bazasidan oqilona va maqsadli foydalanishni ta'minlash, shuningdek, tegishli vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari va yirik korxonalarga idoraviy bo'ysunuvchi kasb-hunar kollejlarida malakali va mehnat bozori talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, aholi barcha

qatlamlarining ehtiyojlarini hisobga olish va bandligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.<sup>4</sup>

Ushbu Farmonda majburiy umumiy o'rta ta'lim uzuksiz va bepul 11 yillik ta'lim negizida amalga oshirilishi; kasb-hunar kollejlariiga o'qishga qabul qilish umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinf bitiruvchilarini hisobidan, ixtiyorilik asosida, tegishli mutaxassislikka (kasbga) ega bo'lish uchun 6 oydan 2 yilgacha bo'lgan ta'lim muddatlarida amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Farmonda kasb-hunar ta'limi sohasida kadrlar tayyorlash tizimining talab etilgan kasblar bo'yicha iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini, zamонавиyy texnika va texnologik tendensiyalarni hisobga olgan hamda zamонавиyy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilgan holda ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan o'rta bo'g'inning malakali mutaxassislarini tayyorlash; iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari uchun zarur mutaxassislar tayyorlash, kadrlarga bo'lgan real ehtiyojni, ish beruvchi korxonalarining takliflarini hisobga olgan holda iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida talab qilingan mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan oshirish bo'yicha kasb-hunar kollejlari faoliyatini muvofiqlashtirish; yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs qilib, vatanparvarlik va milliy mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashga, shuningdek, o'quvchilarda boy ilmiy, madaniy va ma'naviy merosimizga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy va axloqiy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni yangi pedagogik shakl va usullar asosida tashkil etish; yetakchi mahalliy va xorijiy ta'lim muassasalari bilan har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, innovatsion o'quv loyihalarini birqalikda amalga oshirish uchun yuqori malakali xorijiy mutaxassislarini jalb etish; kasb-hunar ta'limi milliy standartlari talablarini xalqaro ta'lim standartlari tasniflagichiga, xalqaro malaka talablariga muvofiqlashtirish, milliy malaka talablarining rivojlangan mamlakatlar malaka talablariga muvofiqligini bosqichma-bosqich ta'minlash va e'tirof etilishiga qaratilgan ishlarni tashkil etish; nodavlat ta'lim sektorini uzuksiz davlat ta'lim tizimi bilan samarali integratsiyalash, tabaqlashtirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni. 2018- yil 25- yanvar

orttirilgan amaliy tajribani tizimlashtirish va kelgusida amaliyatga joriy etish; mamlakat iqtisodiyotini yanada isloh qilish, uni barqaror o'stirish hamda modernizatsiyalash jarayonlarida faol va samarali ishtirok etishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash maqsadida o'quv jarayoniga innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarini faol qo'llab kasb-hunar ta'limi va ishlab chiqarishning o'zaro yaqin hamkorligini ta'minlash; kasb-hunar kollejlarining zamonaviy moddiy-texnika bazasini shakllantirish va yanada mustahkamlash, undan oqilona foydalanish bo'yicha yuqori samarali o'quv-laboratoriya uskunalarini, kompyuter texnikasi va boshqa axborot-kommunikatsiya uskunalarini bilan jihozlashni o'z ichiga oladigan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi eng muhim vazifalari belgilangan.

Farmon bilan kasb-hunar ta'limi tizimini yanada takomillashtirishni muvofiqlashtiruvchi respublika komissiyasi hamda tegishli hududiy ishchi guruhi tashkil etildi va ta'lim olinadigan mutaxassisliklar bo'yicha kadrlarga mehnat bozoridagi ehtiyojni, ularning mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturiga muvofiqligini, keyinchalik bitiruvchilarini biriktirish uchun potensial tarmoq ish beruvchilarini aniqlash yuzasidan kasb-hunar kollejlari faoliyatini o'rganish; mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining maqsadli parametrlariga va mehnat bozori proqnoziga muvofiq kadrlarga bo'lgan mavjud real ehtiyojlarni hisobga olgan holda, kasb-hunar kollejlari tegishli vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari va yirik korxonalarining tarmoq bo'yishiga berish, shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, shu jumladan, kichik va xususiy biznes korxonalarini uchun mehnat bozorida talab etiladigan ishchi kasblariga o'qitish uchun ko'p tarmoqli kollejlar tarmoqlarini tashkil etish, ayrim mutaxassisliklar (kasblar) bo'yicha talab yo'qligi munosabati bilan kasb-hunar kollejlarni optimallashtirish, yoxud ularda umumta'lim maktablari va o'quv-ishlab chiqarish majmualarini hamda bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarini joylashtirish bo'yicha hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish ularning vazifalari etib belgilandi.

Ushbu Farmonning qabul qilinishi mavjud kasb-hunar kollejlarining moddiy-texnika bazasidan oqilona va maqsadli foydalanishni ta'minlash, malakali va mehnat bozori talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, aholi bandligini ta'minlash va umuman kasb-hunar ta'limi tizimini yanada rivojlantirish imkonini beradi.

#### 1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori - ta'lifni rivojlantirish omili

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori oliy ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma'nazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan.

Mustaqillik yillarda iqtisodiyotning, ijtimoiy hayotning real talablaridan kelib chiqqan holda, yurtimizda oliy ta'lif tizimini modernizatsiya qilish, unga o'qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalarini joriy etish, mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ixtisoslik yo'nalishlarini takomillashtirish borasida katta ishlar qilindi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 8-oktabrda Farmoyishi asosida tuzilgan Ishchi guruh tomonidan oliy ta'lif tizimidagi mayjud holatni o'rganish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, qator oliy ta'lif muassasalarida ilmiy-pedagogik salohiyat hanuz past darajada qolmoqda, ta'lif jarayonining o'quv-metodik va axborot ta'minoti zamonaviy talablarga mos emas, moddiy-texnika bazasi tizimli ravishda yangilanishga muhtoj. Oliy ta'lif tizimida o'quv jarayoniga ilg'or xalqaro tajribani keng joriy etish, yetakchi xorijiy turdosh ilmiy-ta'lif muassasalarini bilan yaqin hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish orqali pedagog va ilmiy kadrlar malakasini oshirish borasidagi ishlar talab darajasida olib borilmayapti.

Qabul qilingan qarorga ko'ra, quyidagilar oliy ta'lif tizimini kelgusida kompleks rivojlantirishning eng muhim vazifalari etib belgilandi:

- har bir oliy ta'lif muassasasi tomonidan xorijdagi yetakchi turdosh ilmiy-ta'lif muassasalarini bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini yaqindan yo'lga qo'yish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lif standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lif dasturlari va o'quv-metodik materiallarni keng joriy etish, ilmiy-pedagogik faoliyatga yuqori malakali chet el o'qituvchilari va olimlarini jaib etish;

- oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashning maqsadli mezonlarini shakllantirish, oliy ta'lif muassasalaridagi ixtisoslik yo'nalishlari va mutaxassisliklarni hududlar va sohalar bo'yicha joriy etilayotgan

dasturlarning talab va ehtiyojlari, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni kompleks taraqqiy ettirish istiqbollarini inobatga olgan holda optimallashtirish;

-yangi avlod o'quv qo'llanmalarini yaratish va oliy ta'lif tizimiga keng tafbiq etish, oliy ta'lif muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash, jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlarni sotib olish va tarjima qilish negizida axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish;

-pedagog kadrlarning kasb malakasi va mahoratini sifat jihatidan muntazam oshirib borish, pedagog va ilmiy xodimlarning stajirovkadan o'tishini yo'lga qo'yish, oliy ta'lif muassasalarini bitiruvchilarini PhD dasturi va xorijiy magistratura dasturlari asosida o'qitish;

-oliy ta'lif muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'lif tizimida ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, ularning akademik ilm-fan bilan integratsiyasini kuchaytirish, professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy faoliyati samaradorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga jalg etish;

-oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini kuchaytirish, talaba-yoshlarning qalbi va ongiga milliy istiqlol g'oyasini, xalqimizning yuksak ma'naviyati va insonparvarlik an'analariiga sadoqat tuyg'usini chuqur singdirish, biz uchun mutlaqo yot va begona bo'lgan g'oyalarga nisbatan ularda mustahkam immunitet va tanqidiy munosabatni shakllantirish;

-oliy ta'lif muassasalari moddiy-texnika bazasini ularning o'quv va ilmiy-laboratoriya binolarini, sport inshootlari va ijtimoiy-muhandislik infratuzilmalarini qurish, kapital ta'mirlash va rekonstruksiya qilish orqali yanada mustahkamlash, zamonaviy ilm-fan sohalarining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha o'quv-ilmiy laboratoriyalar bazasini zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlash;

-oliy ta'lif muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan ta'minlash, talabalar, o'qituvchi va yosh tadqiqotchilarning jahondagi ilg'or ta'lif resurslari, ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar bazasi bo'yicha elektron kataloglarga kirish imkoniyatini kengaytirish.

Qarorda belgilangan vazifalarning samarali yechimini to'liq ta'minlash maqsadida oliy ta'lif darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta'lif muassasalarini moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy o'quv-ilmiy laboratoriyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash

maqsadida Oliy ta'lif tizimini 2017-2021-yillarga mo'ljallangan kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Dasturga muvofiq, 2017-2021-yillarda 48ta oliy ta'lif muassasasida jami 180ta o'quv, ilmiy-laboratoriya binosi, sport inshootlari va ijtimoiy-muhandislik infratuzilmalari ob'ektlarida qurilish, rekonstruksiya va kapital ta'mirlash ishlari olib boriladi. Shuningdek, 53ta oliy ta'lif muassasasida 400ta o'quv laboratoriysi bosqichma-bosqich eng zamонавиy o'quv-laboratoriya uskunalar bilan jihozlanadi, 7ta oliy ta'lif muassasasida barcha oliy ta'lif muassasalari o'zaro hamkorlikda foydalanadigan ilmiy laboratoriylar tashkil etiladi.

Qarorning muhim ahamiyatini ko'rsatadigan yana bir jihat shundan iboratki, mamlakatimiz Prezidenti tomonidan har bir oliy ta'lif muassasasi bo'yicha quyidagi konkret parametr va ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan manzilli rivojlantirish dasturlari tasdiqlandi:

-oliy ta'lif tizimida yangi ta'lif ixtisoslik yo'nalishlari va mutaxassisliklarning, shuningdek, iqtisodiyot sohalari va hududlarni kompleks rivojlantirishning joriy va istiqboldagi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan va bakalavriat va magistraturaga talabalar qabul qilishning umumiy ko'rsatkichlarini 2021-yilgacha bosqichma-bosqich ravishda 18 foizgacha oshirishni nazarda tutadigan 2017-2021-yillarga mo'ljallangan parametr va ko'rsatkichlari;

-o'quv binolari, talabalar turarjoylari, axborot-resurs markazlari va boshqa ob'ektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash hisobidan yangi o'quv o'rinalarini tashkil etish, yangi o'quv-laboratoriya komplekslarini sotib olish, auditoriyalarni kompyuter texnikasi bilan jihozlash;

-professor-o'qituvchilarning kasb mahoratini, pedagog xodimlarning malakasini oshirish, shuningdek, ularning xorijiy hamkor oliy o'quv yurtlarida malaka oshirishi, magistratura, doktoranturada ta'lif olishi hamda respublikamizning tayanch oliy o'quv yurtlari qoshida qayta tayyorgarlikdan o'tishi va malaka oshirishi.

Mazkur dasturda, asosan, mamlakatimizning har bir oliy ta'lif muassasasi bilan AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Rossiya, Yaponiya, Janubiy Korea, Xitoy va shu kabi boshqa davlatlarning yetakchi ilmiy-ta'lif muassasalari bilan hamkorlik aloqalarining o'rnatilgani o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda har yili 350 nafardan ortiq xorijlik yuqori malakali pedagog va olimlarning

mamlakatimiz oliy o'quv yurtlariga o'quv jarayoniga jalg etilishi ko'zda tutilmoqda.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, oliy ta'lif muassasalari pedagog xodimlarining mehnatiga haq to'lash bo'yicha amaldagi tizimni jiddiy takomillashtirish va bu borada moddiy rag'batlantirishning yangi mexanizmlarini joriy etishga ehtiyoj sezilmoqda. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Mehnat vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Xalq ta'limi vazirligiga uch oy muddatda ilg'or xalqaro tajribadan kelib chiqib, oliy o'quv yurtlari pedagog xodimlariga ularning kasb mahorati, faoliyatidagi yuqori natijadorlik va tarbiyaviy sohadagi samarali ishtirokini inobatga olib, ustama haq to'lashni belgilash tizimi bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish vazifasi topshirildi.

Qarorga muvofiq, Vazirlar Mahkamasiga ikki oy muddatda iqtidorli yosh pedagog va ilmiy xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iste'dod» jamg'armasi faoliyatini tubdan qayta ko'rib chiqish, xorijiy ta'lif muassasalari va ilmiy markazlarida ilmiy-pedagog xodimlarning malaka oshirishi va qayta tayyorgarlikdan o'tishini, oliy ta'lif muassasalari bitiruvchilarining PhD dasturi va ularning magistraturada o'qishini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar ko'zda tutilgan takliflar kiritish topshirilmoqda.

Ta'kidlash joizki, oliy ta'lif muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash maqsadida korxonalarning buyurmasiga asosan, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik faoliyatini amalgalash oshiradigan ta'lif va ilmiy-tadqiqot muassasalari yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'idan, yagona soliq to'lovidan, maqsadli davlat jamg'armalariga majburiy to'lov va qo'shimcha qiymat solig'idan ozod qilindi.

Ta'lif-tarbiya jarayonlarining sifati ustidan samarali davlat nazoratini o'rnatish maqsadida Vazirlar Mahkamasasi huzurida Ta'lif sifatini nazorat qilish bo'yicha Davlat inspeksiyasi tashkil etildi. Uning asosiy vazifasi - ta'lif-tarbiya jarayoni, professor-o'qituvchilar tarkibi, ta'lif tizimida kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifati hamda mulkchilik shakli va idoraviy bo'ysunishidan qat'i nazar, ta'lif muassasalarini attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish, ta'lif-tarbiya sifatini nazorat qilish bo'yicha davlat siyosatini amalgalash oshirishdan iborat.

Oliy ta'lif tizimini 2017-2021-yillarga mo'ljallangan kompleks rivojlantirish dasturini amalgalash oshirish uchun yo'naltiriladigan moliviaviy

mablag‘lar 1,7 trillion so‘mdan ziyod bo‘lib, ulardan 1,2 trillion so‘mi o‘quv-laboratoriya binolari, sport zallari va talabalar turarjoylarini rekonstruksiya qilish va kapital ta‘mirlashga, 500 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ esa o‘quv-laboratoriya uskunalari, mebel va inventar bilan ta‘minlash, umumiy tartibda foydalanishga mo‘ljallangan, barcha ta‘lim muassasalariga xizmat ko‘rsatadigan laboratoriya komplekslarini tashkil etish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga sarflanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori uzlusiz ta‘lim tizimini rivojlantirish, mamlakatimizning izchil rivojlanib borayotgan iqtisodiyotini yuqori malakali kadrlar bilan ta‘minlash, barcha hududlar va tarmoqlarni strategik jihatdan kompleks rivojlantirish masalalarini hal qilish borasida oliy ta‘lim tizimi ishtirokini kengaytirish yo‘lidagi yana bir muhim amaliy qadamdir.<sup>5</sup>

### Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Harakatlar strategiyasi qachon qabul qilingan?
- 2.Ta‘lim va fan sohasini rivojlantirish yo‘nalishi qaysi va uni izohlang.
- 3.Uzlusiz ta‘lim tizimi deganda nimalarni tushunasiz va tizimni tushuntiring.
- 4.Oliy ta‘lim haqidagi Nizomning yangi tahriri qachon amalga joriy etilgan va uni oldingi tahrir bilan taqqoslang.
- 5.1992-yil va 1997-yillarda qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunning qiyosiy tahlilini aytib bering.

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. 2017-yil 20-aprel.

## **II BOB. "OLIY TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA KOMPLEKS CHORA-TADBIRLARI" DASTURI**

### **2.1. Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini ta'minlash**

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi.

Mazkur Qaror bilan oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, zamonaviy o'quv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash bo'yicha Oliy ta'lim tizimini 2017-2021-yillarda kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Dasturda xorijiy ekspertlar guruhi tomonidan taklif etilgan tavsiyalarni inobatga olgan holda oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish orqali respublika oliy ta'lim tizimida yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojları, ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda tubdan takomillashtirish maqsadida oliy ta'lim tizimini 2017-2021-yillarda kompleks rivojlantirish dasturiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish «Iste'dod» jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni<sup>6</sup> va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

Mazkur hujjalarda kadrlar buyurtmachilarini va oliy ta'lim muassasalarini bilan hamkorlikda mutaxassislar tayyorlash mazmuni, bitiruvchilarining bilim va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablarni mujassamlashtiruvchi oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining malakaviy talablari, o'quv

rejalari va dasturlarini soha ehtiyojidan kelib chiqib, yangidan ishlab chiqish hamda tasdiqlash; ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlarining mutaxassislar tayyorlash sifatiga bo'lgan talabalarini bevosita ta'lif mazmunini shakllantirish bilan shug'ullanadigan oliv ta'lif muassasalari profil kafedralarining professor-o'qituvchilari tomonidan tizimli o'rganib borilishini tashkil etish maqsadida stajirovkalar joriy qilish; rivojlangan xorijiy davlatlarning eng ilg'or tajribasini chuqur o'rgangan holda, o'quv rejalarini va fan dasturlari, o'quv adabiyotlari, shu jumladan, o'quv-metodik komplekslarning xalqaro standartlar asosida zamonaviy, mutlaqo yangi talablar asosida ishlab chiqilishi va bosqichma-bosqich joriy etilishini tashkil qilish; komplekslar tarkibidagi vazirliliklar va idoralar bilan birgalikda tegishli tarmoq (soha) hamda hududlarning joriy va istiqbolli rivojlanish dasturlarini hisobga olib, oliv malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni yillar kesimida aniq manzilli, kasb va ta'lif yo'nalishlari hamda mutaxassisliklarini ko'rsatgan holda, aniq balans beradigan hisob-kitoblar asosida ishlab chiqish; oliv ta'lif muassasalarining tegishli ta'lif yo'nalishlari bo'yicha har bir talabasining 2-kursdan boshlab tegishli tarmoq (soha)ning muayyan tashkilotlari va korxonalarida malakaviy amaliyotlari tizimli ravishda o'tkazilishini, shuningdek ularning amaliy mashg'ulotlarini bevosita ishlab chiqarishda tashkillashtirish hamda bitiruvchilarni ishga joylashtirish bo'yicha aniq choralar ko'rish; ishlab chiqarish, ilm-fan va ta'lif o'rtasida integratsiyani chuqurlashtirish uchun komplekslar tarkibidagi vazirliliklar va idoralarga qarashli tarmoqlar (sohalar)ni ilmiy-tehnik rivojlantirish yo'nalishlari muammolariga bag'ishlangan mavzular bazasini shakllantirish hamda bu muammolarni oliv ta'lif muassasalari bilan xo'jalik shartnomalari tuzgan holda hal etishga ularning ilmiy salohiyatini, ayniqsa, yosh olimlar va tadqiqotchilarni tizimli tarzda jalb etish; iqtidorli yosh pedagoglar va doktorantlarni yetakchi xorijiy ta'lif muassasalariga tajriba orttirishga yuborish, ular uchun maxsus stipendiyalar ta'sis etish, oliv ta'lif muassasalarining professor-o'qituvchilari, doktorantlari va talabalarining xalqaro tajriba almashinuvlarini tashkil etish orqali ilmiy va pedagogik salohiyatini oshirish; o'qitishning zamonaviy shakllari va metodlarini, kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lif jarayoniga joriy etish, oliv ta'lif muassasalarini zamonaviy o'quv-laboratoriya anjomlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, oliv ta'lif muassasalarining zamonaviy ilmiy laboratoriylarini tashkil etish va

rivojlantirish choralarini ko'rish; har oyda kompleks rahbari, tegishli vazirlik va idora rahbari biriktirilgan har bir oliy ta'lim muassasasining professor-o'qituvchilari va talabalari bilan tarmoqqa (sohaga) oid yangiliklar, rivojlantirish istiqbollari, ta'lim mazmunini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va kelgusidagi vazifalarni belgilab olish yuzasidan uchrashuvlar o'tkazib borish vazifalari belgilab berildi.

Ushbu davlat hujjatlaridan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlash borasida o'quv yili davomida amalga oshiriladigan harakatlarning namunaviy rejasi (Yo'l xaritasi); O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi komplekslari tarkibidagi vazirliklar va idoralarning oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash yuzasidan buyurtmalarni shakllantirish, tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlash darajasi va sifatini tubdan yaxshilash hamda tizimdagи korxonalar va tashkilotlarda talabalar amaliyotlarini o'tkazish, ilmiy ishlarni hamkorlikda bajarish, oliy ta'lim muassasalarini bitiruvchilarining ishga joylashishini ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Shuningdek, 2017/2018-o'quv yilidan boshlab har bir oliy ta'lim muassasasida barcha kurslarda kamida 2ta guruhda mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o'qitishni bosqichma-bosqich tashkil etish, ingliz tilida dars o'tadigan professor-o'qituvchilarni maqsadli tayyorlash, ularning xorijda tegishli tayyoragarlikdan o'tishini tashkil etish, shuningdek, o'quv mashg'ulotlarini olib borishga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, mashg'ulotlarni rivojlangan davlatlar oliy ta'lim muassasalarida bugungi kunda foydalanilayotgan zamonaviy o'quv adabiyotlari asosida o'qitilishini yo'nga qo'yish; istiqbolli ilmiy-pedagogik kadrlarni, birinchi navbatda, muhandislik-teknika va arxitektura ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining rivojlangan davlatlar, xususan, Janubiy Korea, Yaponiya va Germaniyada 2-3 oylik kurslarda o'zaro hamkorlik bo'yicha tuzilgan shartnomalar, homiylik va xalqaro tashkilotlar grantlari mablag'lari hisobidan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining chet elda stipendiatlarning malakasini oshirish, stajirovka o'tash va ta'lim olishini tashkillashtirish «Iste'dod» jamg'armasi orqali mutaxassisligi bo'yicha yangi bilimlarni egallashga yo'naltirilgan malaka oshirishlarini tashkil etish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga yetakchi xorijiy mutaxassislarni muntazam ravishda jalb etish; 2017/2018-o'quv yilidan boshlab magistraturada kadrlar tayyorlash tizimini tanqidiy tahlil qilish,

magistratura ta'lifi jarayonining barcha bosqichlarini takomillashtirish, ularni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish choralarini ko'rish; doktorantlar, magistratura talabalarini korxona (muassasa)larning muammoli masalalariga bag'ishlangan dissertatsiya mavzulari ustida ishlashini, shuningdek, tajriba-sinovlarni korxona(muassasa)larda o'tkazish, amaliyatga tatbiq etilgan ishlar mualliflari bo'lgan hamda ixtirochilik patentini qo'lga kiritgan doktorant va magistrarni o'qituvchi lavozimi bo'yicha oylik ish haqi miqdorining 10 barobarigacha korxona va tashkilotlar hisobidan moddiy rag'batlantirish choralarini ko'rish; respublika oliv ta'lim muassasalarining har yilgi reytingini aniqlash bo'yicha milliy tizimni takomillashtirish, bunda asosiy ustuvor ko'rsatkich sifatida oliv ta'lim muassasalari bitiruvchilarining mehnat bozorida talabgorligi va professor-o'qituvchilarining ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini amaliyatga joriy etish bo'yicha tuzilgan shartnomalar asosida ishlab topilgan moliyaviy mablag'larning salmog'iga alohida e'tibor qaratish, shuningdek, milliy reyting tizimida yuqori ko'rsatkichlarni qayd etgan oliv ta'lim muassasalariga o'quv jarayonining alohida me'yoriy-huquqiy hujjatlarini mustaqil ishlab chiqish va tasdiqlash vakolatini berish orqali akademik erkinlikni bosqichma-bosqich joriy etilishini ta'minlash yuzasidan takliflarni tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish; 2017/2018-o'quv yilidan boshlab oliv ta'lim muassasalari kafedralarining maqomini ko'tarish, bunda ularning ta'lim sifatini oshirish bo'yicha mas'uliyatini kuchaytirish, kafedra va professor-o'qituvchilar tomonidan yuritiladigan turli statistik va boshqa hisobotlar sonini optimallashtirish orqali ularni tayyorlash jarayonlarini elektron formatga o'tkazish choralarini ko'rish vazifalari belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi doktorantlarning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishiga moddiy shart-sharoitlar yaratish maqsadida ularning stipendiyasining 50 foizigacha moddiy rag'batlantirishi ishlab chiqarish korxonalarini va tashkilotlari hisobidan amalga oshirilishini, doktorantura bitiruvchilari oliv ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlariga yo'llanma asosida yuborilishini, ularning mehnat faoliyatini rag'batlantirish uchun bazaviy doktoranturaning 2-kursidan imtiyozli ipoteka kreditini 25 yil muddatga ajratish mexanizmi joriy etilishini nazarda tutuvchi qarorlar qabul qilindi.

Shuningdek, o'quv metodik va moddiy-teknika bazasi zamonaviy talablarga javob bermaydigan, oliv ta'lim muassasalaridan uzoqda joylashgan, ta'lim sifati va bitiruvchilarining oliv ta'lim muassasalariga

kirish ko'rsatkichlari past bo'lgan akademik litseylarni tugatish, akademik litseylarni faqat yuqori ilmiy va pedagogik salohiyatga ega oliv ta'limga muassasalari tarkibida bittadan qoldirish; o'z faoliyatini davom ettiradigan akademik litseylarga umumta'lim maktablarini bitirgan eng bilimli, qobiliyatli yoshlarni qabul qilish mexanizmini ishlab chiqish va 2018/2019-o'quv yilidan joriy qilish; akademik litseylarda o'qitish sifatini tubdan o'zgartirish, bitiruvchilarning oliv ta'limga muassasalariga kirish ko'rsatkichlarini keskin oshirish vazifalari belgilandi.

Oliv ta'limga muassasasi uchun psixolog va har bir talabalar turar joyi uchun tarbiyachi-pedagog shtatini joriy etish; mehnatga haq to'lash razryadi bo'yicha oliv ta'limga muassasalari ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'ining lavozim razryadini 16-razryadga, bo'lim xodimlarining lavozim razryadini 14-razryadga ko'tarish; oliv ta'limga muassasalari guruh murabbiylarining faoliyati samaradorligi va mas'uliyatini yanada oshirish, ularning doimiy rag'batlantirib borilishini ta'minlash maqsadida har bir guruh murabbiylarga (jumladan murabbiylar kengashi rahbarlariga) oylik maoshining 25 foizigacha miqdorda ustama haq to'lanishini ta'minlash; har o'quv yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni moliyalashtirish maqsadida ta'limga muassasasi harajatlari smetasining kamida 5 foizini yuqorida nazarda tutilgan harajatlardan ajratish choralarini ko'rish belgilab qo'yildi.<sup>7</sup>

## **2.2. 2017-2021-yillarda oliv ta'limga tizimini kompleks rivojlantirish dasturi va uning tarkibi**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturi" qabul qilindi. Uning to'rtinchisi yo'naliishi ijtimoiy sohaga mo'ljallangan bo'lib, xuddi shu yo'naliishda yoshlarga doir siyosat olib borish, ta'limga sohasidagi amalga oshiriladigan vazifalar belgilandi.

Shu masala bo'yicha hozirgi kunda Oliy va o'rta-maxsus ta'limga vazirligi tomonidan 2017-2021-yillarga mo'ljallangan "Oliv ta'limga tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi" ishlab chiqildi. Bu dasturda mamlakatimizda kelgusi besh yilda ta'limga sohasida amalga

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliv ta'limga muassasalarida ta'limga tizimini kompleks rivojlantirish bo'yicha qamrovli islohoftarda faol ishtiropkini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. 2018-yil 5-iyun.

oshiriladigan ustuvor yo'nalishlar, o'quv jarayoni, ilmiy soha yoki yoshlarning ma'naviyatini oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan vazifalar o'z aksini topdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori ijrosini ta'minlash bo'yicha "2017-2021-yillarda oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi" yaratildi.

2017-2021-yillarda oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish Dasturini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Kadrlar tayyorlashning maqsadli ko'rsatkichlari, hududiy dasturlarni inobatga olib, ta'lim yo'nalishlari tarkibini optimallashtirish.

1.Bakalavriat va magistraturaning o'quv jarayoni, o'quv reja va dasturlarini takomillashtirish.

2.Zamonaviy o'quv, o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar (jumladan, xorijiy adabiyot asosida) bilan ta'minlash.

3.Pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, stajirovkasini chet el muassasalarida o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish .

4.Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, samaradorligi va natijadorligini oshirish.

5.Oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini takomillashtirish va tarbiyaviy tadbirlar natijadorligini oshirish.

6.Oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.

7.Zamonaviy o'quv-ilmiy laboratoriya bazalarini yaratish va modernizatsiyalash.

8. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan ta'minlash.

Bu borada ta'lim tizimiga teshigshli bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjalarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi.

### 2.3. Ta'limning malaka talablari va vazifalari

#### Oliy ta'lim haqida<sup>8</sup>

"Oliy ta'lim" atamasi zaminida iqtisod, fan, texnika va madaniyat sohasida faoliyat olib boruvchi, ish mobaynida ilm-fan, madaniyat, texnika yangiliklarini qo'llagan va o'z ustida ishlagan holda nazariy va amaliy muammolarni bartaraf etuvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tushuniladi.

Oliy ta'limning asosiy maqsadi zamон talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, oliy ta'lim mutaxassisi talablariga o'zi tanlagan yo'nalishi yuzasidan talabga javob bera oladigan respublikaning ilm-fan, madaniyat, iqtisod, ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadigan, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviyatga bo'lgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir.

#### Oliy ta'lim muassasalari

Oliy ta'lim muassasalari yuridik maqomga ega. Respublikamizda oliy ta'lim muassasalarining quyidagi ko'rinishlari bor:

- universitet - oliy ta'lim dasturini bajarishda talabalarga gallayotgan sohasi bo'yicha yoki keyinchalik o'qishlarini davom ettirishlari uchun keng qamrovli bilim berishga e'tibor qaraetiladi;
- akademiya - oliy ta'lim dasturini bajarishda oliy ta'lim berish bilan bir qatorda keyinchalik o'qishlarini davom ettirishlari uchun aniq bir yo'nalishga tayyorlaydi;
- institut - barcha oliy ta'lim muassasalari kabi oliy ta'lim dasturini bajaradi, bilim berishda bir yo'nalishga qaratilgan bilim beriladi.

Oliy ta'lim olish uchun nodavlat muassasalarini tuzishga qonunchilik ruxsat beradi. Ushbu muassasaga davlat akkreditaditsiyani attestatsiya dan tegishli tartibda o'tgachgina bersa u o'qitish huquqiga ega.

Oliy ta'lim muassasalarining Attestatsiya u davlatga tegishli yoki xususiyligidan qat'iy nazar, kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish Boshqarmasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tasdiqlagan, Davlat test markazi tomonidan qabul qilingan pedagogik kadrlar va ta'lim muassasalarining attestatsiyadan o'tkazish Nizomi asosida oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qietuvchilar jamoasi attestatsiyasidan o'tkaziladi. Attestatsiya natijalariga ko'ra istalgan oliy o'quv muassasasi davlat akkreditasisidan mahrum etilishi mumkin.

<sup>8</sup> <http://info.ziyonet.uz/uz/post/view/education/highschool>

Eksternat - oliy ta'lim dasturiga muvofiq oliy ta'lim muassasasining o'qitiluvchi tartibini keyingi(joriy va kuniy) attestatsiyagacha tanlangan yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha mustaqil o'rganish.

Masofaviy ta'lim - asosiy faoliyatdan uzilmagan holda ta'lim muassasasidan uzoqda o'quv dasturidagi mavjud bilimlarni o'zlashtirish. U zamonaviy axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyaning texnik vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Kunduzgi o'qitish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashning yo'nalishlari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

#### Oliy ta'limning maqsad va vazifalari

Oliy ta'limning asosiy maqsadi zamon talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, oliy ta'lim mutaxassisi talablariga o'zi tanlagan yo'nalishi yuzasidan talabga javob bera oladigan respublikaning ilm-fan, madaniyat, iqtisod, ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadigan mustaqil fikrlay oladigan, yuksak ma'naviyatga bo'lgan yuqori salohiyatlari mutaxassislarni tayyorlashdir.

Oliy ta'limning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- davlat ta'lim standartiga muvofiq zamonaviy dasturlar asosida o'qitishning sifatini ta'minlash;
- oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash;
- ilm-fan, madaniyat, iqtisodning zamonaviy tuqlari, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy istiqbolini tuqlarini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;
- oliy ta'limning insonparvarligini ta'minlash maqsadida yoshlar tarbi siga milliy istiqlol g'oyasi asosida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, Vatanga, oilaga, atrof-muhitga muhabbatni singdirish;
- o'qitishning interfaol usullarini, pedagogik innovation hamda axborot kompyuter texnologiyalarini, mustaqil ta'lim olish, masofaviy ta'lim tizimini amaliyatga joriy qilish;
- oliy ta'limda fan va ishlab chiqarish mexanizmlarining uyg'unligi mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash;
- ilmiy-pedagogik kadrlar va talim oluvchilarning ilmiy-ijodiy faoliyati, ilmiy tadqiqotlari yordamida fan, texnika, texnologiyalarni rivojlantirish, ta'lim jarayoni orqali mamlakat iqtisodining rivojlanishiga hissa qo'shish;
- davlat va nodavlat oliy o'quv muassasalarini rivojlantirish asosida ta'lim xizmatlari bozorida raqobatni zaga keltirish;

• oliy o'quv muassasalarini boshqarish va kengaytirishni takomillashtirish uchun jamoat boshqaruving vasiylik va kuzaetuvchi kengashlarni kiritish;

• ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatini tekshirish uchun marketing tadqiqotlarini olib borish, yo'nalishi bo'yicha belgilangan mehnat bilan ta'minlash monitoringini tuzish;

• oliy ta'lim sohasida ikki tomonlama foydali xalqaro aloqalarni rivojlanтирish.

#### Oliy ta'lim tuzilishi:

##### Oliy ta'lim tizimi quyidagicha tuzilgan:

• davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim dasturining bajarilishi davlat ta'lim standartiga muvofiq yo'nalishlar va mutaxassisliklar asosida olib boriladi;

• ilmiy-tadqiqot muassasalari ilmiy tadqiqot ishlarini oliy ta'limni huquqiy-normativ va ilmiy-metodik jihatdan ta'minlash uchun eritishadi;

• oliy ta'limni boshqarish davlat organlarining vakillari, shuningdek, ularga tegishli korxona, muassasa, tashkilotlar orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalarining quyidagi turlari mavjud: universitet, akademiya, institut (ular bilan teng mavqegayaga bo'lган о'quv muassasalari).

#### Universitet:

• oliy va undan keyingi ta'lim uchun ta'limni bir necha yo'nalishda beradi;

• turli sohalardagi mutaxassislarning malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi;

• fanning turli yo'nalishlarida fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib boradi;

• ilm sohasi bilan chambarchas bog'liq ilmiy va metodik markaz hisoblanadi.

#### Akademiya:

• ta'lim sohasida ma'lum belgilangan oliy va oliy ta'limdan so'nggi ta'lim berishga mo'ljallangan o'quv dasturini bajaradi;

• mutaxassislarning bilimlarini belgilangan tartibda malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi;

• fan, madaniyat, san'at sohasida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi;

• o'z faoliyati doirasida etakchi ilmiy, metodik markazi hisoblanadi.

#### Institut:

- oliy va oliy ta'limdan keyingi o'quv dasturlarini bajarishni ta'lim va fanning ma'lum bir me'yorida amalga oshiradi;

- mutaxassislarini ma'lum bir sohada qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanadi;

- fundamental va amaliy tadqiqot ishlarini olib boradi.

Oliy ta'lim muassasasining davlat ta'lim standartini mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha bajarilishini, kadrlar tayyorlash sifati davlat tomonidan tayinlangan organ oliy ta'lim boshqarmasi tomonidan nazorat qilinadi. Pedagogik kadrlar va o'quv muassasalarini attestatsiya dan o'tkazish, kadrlar tayyorgarligi sifatini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat test markazi bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichdan iborat: bakalavriat va magistratura.

#### Bakalavriat

"Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni qabul qilish tartibi "Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom" bilan, oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi "Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risida Nizom" bilan belgilanadi.

Bakalavriat – fundamental bilimlar beriladigan asosiy oliy ta'lim bo'lib, to'rt yil davom etuvchi oliy ta'limning yo'nalishlaridan biri. Bakalavriyatda ishlab chiqarishdan ajratmagan holda ta'lim jarayonining davom etish muddati bir yildan kam bo'lmagan vaqtga uza edi.

Bitiruvchilarga davlat attestatsiya natijalariga ko'ra, bakalavriyat ta'lim daturining oxirida taylorlov yo'nalishiga ko'ra "bakalavr" akademiyak unvoni, munosib ko'krak nishoni va davlat namunasidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

Ta'lim dasturining tarkibiy qismiga, bakalavr taylorlashning kerakli darajasiga, o'quv vazifalarning maksimal hajmiga, kadrlar tayyorlash sifat nazoratining prosedura va mexanizmlariga umumiyl talablar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 16 avgust 2001 yilda tasdiqlangan № 343-chi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari. Asosiy nizomlar" qarori bilan belgilanadi. (№ 15-16, O'zbekiston Respublikasi qonunlar majmuasi, 104 bet).

Bakalavrning professional faoliyat sohasi va turi xarakteristikasi, kvalifikatsion talablar va o'quv fanlari bo'yicha talablar, ta'lim dasturining struktura va tarkibi, uni amalga oshirish mexanizmi va sifatini nazorat qilish aniq taylorlov. yo'naliishi bo'yicha davlat ta'lim standartlari orqali belgilanadi.

Bakalavriyatning mos yo'naliishlari uchun, davlat ta'lim standartlari asosida, oliv ta'limni boshqarish bo'yicha davlatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan o'quv reja va dasturlar, o'quv fanlari ishlab chiqiladi.

Bakalavriyatda bir xil profilli (umumiy kasb xunar tayyorgarligi o'xshash) o'rta maxsus, kasb xunar ta'limiga ega bo'lgan shaxslarga, oliv ta'limning shu yo'naliishidagi o'quv rejalariga bog'liq (ketma-ketlikni ta'minlovchi) ta'lim dasturini to'liq gallashning tezkor imkoniyatlari beriladi.

O'quv rejasiga bog'liq yo'naliish ro'yxati va kadrlar tayyorlash sharoitlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi.

#### Bakalavr:

- yo'naliish bo'yicha lavozimga tayyorlangan oliv ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar bilan almashtirilishi kerak bo'lgan ishga;
- bakalavriyatning mos keluvchi yo'naliishlar doirasida tanlagan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliv ta'limini davom ettirishga;
- qo'shimcha professional ta'limni kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida olishga tayor.

Bakalavrлarni ngi yo'naliishlari bo'yicha tayyorlash huquqi oliv ta'lim muassalarining oliv ta'limni boshqarish bo'yicha davlat vakolatli organi rasmiy iltimosiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasiga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

#### Magistratura

"Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi oliv ta'lim muassasalarining magistrurasiga talabalarni qabul qilish tartibi "Oliv ta'lim muassasalarining magistrurasiga qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom" bilan belgilanadi.

Magistratura – bakalavriyat asosidagi ikki yildan kam bo'lмаган aniq mutaxassislik bo'yicha oliv ta'limning davomi hisoblanadi. Magistraturada o'qishning davomiyligi ishlab chiqarishdan ajralmagan xolda olti oydan kam bo'lмаган vaqtga uza edi.

Bitiruvchilarga davlat attestatsiya natijalariga ko'ra, magistratura ta'lim daturining oxirida aniq mutaxassislik bo'yicha "magistr" akademiyak unvoni, munosib ko'krak nishoni va davlat namunasidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

Ta'lim daturining tarkibiy qismiga, magistr tayyorlashning kerakli darajasiga, o'quv vazifalarning maksimal hajmiga, kadrlar tayyorlash sifat nazoratining protsedura va mexanizmlariga umumiy talablar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 16 avgust 2001 yilda tasdiqlangan № 343-chi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari. Asosiy nizomlar" qarori bilan belgilanadi. (№ 15-16, O'zbekiston Respublikasi qonunlar majmuasi, 2001 yil, 104 bet).

Magistrning professional faoliyat sohasi va turi xarakteristikasi, kvalifikatsion talablar va o'quv fanlari bo'yicha talablar, ta'lim daturining struktura va tarkibi, uni amalga oshirish mexanizmi va sifatini nazorat qilish magistraturaning aniq mutaxassisligi bo'yicha davlat ta'lim standartlari orqali belgilanadi.

Magistraturaning mos mutaxassisligi uchun, davlat ta'lim standartlari asosida, oliy ta'limni boshqarish bo'yicha davlatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan o'quv reja va dasturlar, o'quv fanlari ishlab chiqiladi.

**Magistr:**

- aniq mutaxassisik bo'yicha mustaqil ilmiy tadqiqot, ilmiy pedagogik va boshqaruv, professional foaliyatini olib borishga;
- magistraturaning mos keluvchi mutaxassisligi doirasida oliy ta'limidan keyingi aspiranturada davom ettirishga;
- qo'shimcha professional ta'limni kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida olishga tayor.

Oliy ta'lim muassasasida magistratura yo'nalishini ochishning asosiy sharti – bu o'quv tarbiyaviy jarayon bilan bog'liq va yuqori malakalari mutaxassislarni taylorlanishini ta'minlovchi mos kafedralarning ilmiy pedagogik potentsiali mavjudligi va ilmiy tadqiqot ishlarini yuqori darajada olib borish imkoniyatining bo'lishi.

Magistrlarni yangi mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlash huquqi oliy ta'lim muassalarining oliy ta'limni boshqarish bo'yicha davlat vakolatli organi rasmiy iltimosiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasiga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Oliy ta'lim muassasasi strukturasida magistraturaning maxsus bo'limi (fakul'tet, markaz) ochiladi va unga quyidagi vazifalar beriladi:

• talabalarning o'quv-tarbiyaviy jarayonini tashkillashtirish va nazorat qilish, o'quv-uslubiy xujjalalar va o'quv-uslubiy ta'minotni ishlab chiqish;

• magistrlar yetishtirib beruvchi kafedralar faoliyatini koordinatsiya qilash;

• magistrlar tayyorlash prosessining monitoringi.

Oliy ta'lim tizimini boshqarish

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimining boshqaruvi Vazirlar Maxkamasi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida oliy ta'limni boshqarish davlat vakolatli organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim boshqaruvi organi - O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi hisoblanadi.

Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligiga, tarkibida oliy ta'lim muassasalari mayjud bo'lgan vazirliklar va boshqarmalar bilan birgalikda quyidagi vazifalar beriladi:

• bakalavr yo'nalichlari va magistratura mutaxassisliklari uchun davlat ta'lim standartlarini, o'quv reja va o'quv fanlari dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va bosqichma-boqich kiritib borish, hamda respublika oliy ta'lim muasalarini ular bilan ta'minlash;

• oliy ta'lim yo'naliш va mutaxassislik Klasifikatoriga zarur bo'lganda O'zbekiston Respublikasi vazirlar Maxkamasi bilan kelishilgan holda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish;

• oliy ta'lim muassasi faoliyatining normativ-huquqiy ta'minotini ishlab chiqish va o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish;

• O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari o'quv-uslubiy boshqaruvini amalga oshirish;

• oliy va o'rta maxsus kasb xunar ta'limi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalarini muvoqlashtirish;

• Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning normativ-uslubiy integratsiyasini ta'minlash.

Oliy ta'lim sifatini boshqarishning ijtimoiy shaklarini rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim muassasalarining rektorlar kengashi tashkil qilingan bo'lib, uning faoliyati belgilangan nizom bilan tartibga solinadi.

Oliy ta'lim muassasalarining boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur nizom asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasining bevosita boshqaruvi rektor tomonidan amalga oshiriladi. Davlat oliy ta'lim muassasasi rektori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan, nodavlat oliy ta'lim muassasalari rektorlari ta'sischilar tomonidan tayinlanadi.

Oliy ta'lim muassasasining ish natijalari uchun to'liq javobgarlik rektor zimmasida turadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va oliy ta'lim muassasa Nizomiga ko'ra, rektor oliy ta'lim muassasasi nomidan barcha organ va tashkilotlarda faoliyat yuritadi, mol-mulkga belgilangan tartibda egalik qiladi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalarni taqdim etadi, bankda oliy ta'lim muassasasining hisob raqamini ochadi va kreditlar boshqaruvchisi hisoblanadi.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini amalga oshirilishining alovida javobgarligi rektor zimmasiga klatilgan.

Oliy ta'lim muassasasi vakolatlari doirasida rektor:

- oliy ta'lim muassasasi ishchilar va talabalari uchun majburiy bo'lgan buyruq va topshiriqlarni chiqaradi;

- prorektordarning aniq majburiyatlarini va mas'uliyatlarini belgilab beradi;

- ishchi va xizmatchilarni, hamda ilmiy pedagogik xizmatchilarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilagan tartibda ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi;

- oliy ta'lim muassasa tarkibiga kiruvchi boshqa tashkilotlar va bo'limlarining ilmiy tadqiqot, tajribiy- eksperimental kompetentsiyasini aniqlab beradi, va ularning nizomlarini tasdiqlaydi;

- oliy ta'lim muassasalari ishchilari lavozimli maoshlarini orttiradi yoki qo'shimcha to'lovlarini belgilab beradi;

- kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki boshqa davlat organi bilan kelishilgan holda ishchilarning ichki tartib qonun qoidalarini tasdiqlaydi;

- Qonunchilikda ko'rsatilgan boshqa vakolatlarni bajaradi.

Rektor byudjetdan ajratilgan va oylik maosh fondi mablag'lari chegarasida, oliy ta'lim muassasasi xizmatchilarining lavozim maoshlari tarif setkasi va oyliklarga o'rnatilgan limitlardan kelib chiqqan holda:

- oliy ta'limni boshqarish bo'yicha davlatning vakolatli organi bilan kelishilgan holda ilmiy kengashning maslaxatiga ko'ra fakultetlarni ochish va yopish huquqiga ega;

- O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga ajratilgan shtatlarga dekan va dekan o'rnbosarlarini tayinlash huquqiga ega.

Oliy ta'lim muassasasi faoliyatining asosiy masalalarini ko'rib chiqish uchun ilmiy kegash tashkil qilinadi.

Ilmiy kengashning tarkibi, vakolatlari, tartibi va faoliyati oliy ta'limni boshqarish bo'yicha davlatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan Tipovoy qarori bilan tartibga solinadi.

Oliy ta'lim muassasasida ijtimoiy boshqaruv organi bo'lган vasiylar kengashi tashkil qilinadi. Uning tarkibiga ta'sischilar, mahalliy hokimiyat organlari, vazirlik va idora sohalari, muassasa va tashkilotlar, boshqa ta'lim muassasalari, ijtimoiy tashkilotlar, fondlar va xomiylarning vakillari kiradi.

Oliy ta'lim muassasasi shu oliy ta'lim muassasasi qoshida tashkil topgan akademik litseylarning boshqaruvini va bir xil profilli kasb-xunar kollejlarning homiyligini amalgga oshiradi.

Oliy ta'lim muassasasi haqidagi amaldagi qonunchiligiga va Nizomiga ko'ra unda ijtimoiy tashkilotlar, ilmiy va ko'ngilli jamiyatlar, dissertatsiyani himoya qilish kengashlari, ilmiy-uslubiy va ilmiy-texnik kengashlar, hamda yosh olimlar kengashini va shunga o'hshashlarni tashkil qilinishi taqiqlanadi.

Oliy ta'lim muassasasi tasdiqlangan ishchilar miqdori va byudjet chegarasida (davlat byudjeti va byudjetdan tashqari mablag'lar), talabalarning miqdoridan kelib chiqqan holda belgilangan tartibda o'z strukturasini shakllantiradi.

#### **2.4. Oliy ta'lim tiziminining o'quv rejasi, uning maqsadi va vazifalari**

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari o'quv rejalarini va fanlar dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar<sup>9</sup>

##### **Bakalavriat**

Oliy ta'limning birinchi bosqichida o'quv rejalarini va fanlar dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzlusizlik va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabaning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o'zlashtirishini nazarda tutishi zarur:

- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy;
- matematik va tabiiy-ilmiy;
- umumkasbiy;
- ixtisosli;
- qo'shimcha.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlariga muvofiq ayrim oliy ta'lim muassasalari yoki ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha boshqa fanlar bloklari belgilanishi mumkin.

<sup>9</sup> <http://www.lex.uz/acts/361387>

Kasb faoliyati ko'nikmalarini egallash uchun malaka amaliyotlari o'tilishi nazarda tutilishi shart.

O'quv rejalar majburiy o'quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o'z ichiga olishi shart.

Bakalavriat ta'lif yo'nalishi o'quv rejalarini va fanlar dasturini o'zlashtirishda talabalarning o'quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo'yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Bakalavriat ta'lif yo'nalishlari uning o'quv rejalariga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart.

O'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar  
Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bloki:

- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negizida olingan bilimlarni to'ldirishi va rivojlantirishi; milliy istiqlol g'oyasi va demokratiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida ilmiy va gumanitar dunyoqarashni, yuksak ma'naviyat va demokratik madaniyatni, iqtisodiy, huquqiy va ijodiy tafakkurni, e'tiqod va ijtimoiy-siyosiy faollikni shakllantirishi;

- ta'limning tarix, falsafa, xalq an'analari, urf-odatlari bilan uzviy birligini, O'zbekiston xalqlari madaniyatini asrash va boyitishni, boshqa xalqlar tarixi va madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo'lishni ta'minlashi;

- insonparvarlik, vatanparvarlik va baynalminalchilik ruhini rivojlantirishi;

- ta'lim va tarbiya jarayonining mustaqil fikrlaydigan, qarorlar qabul qilishga qodir, har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilganligini ta'minlashi lozim.

matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bloki:

- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzviylik hamda uzlusizlikni inobatga olgan holda bilishning matematik usullari, informatika hamda axborot to'plash, ularni qayta ishlash va uzatish usullarining jamiyatdagi o'mi va ahamiyati haqida oliy darajadagi tasavvurlarni shakllantirishi;

- koinotning tabiiy ob'ekt ekanligi va uning evolyusiyasi; tabiiy fanlarning o'zaro fundamental birligi; zamonaviy tabiiy hodisalarini tadqiq etish konsepsiysi; tabiatdan oqilonaga foydalanish va inson faoliyatining ekologik tamoyillari; tabiatga putur yetkazmaydigan texnologiyalar yaratish istiqbollari haqidagi ilmiy tasavvurlarni shakllantirishi;

- muayyan bilim sohasi uchun zarur bo'lgan fundamental fanlarni chuqur o'rganishning ilmiy va nazariy asoslarini ta'minlashi lozim.

Umumkasbiy fanlar bloki:

- matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bilan maxsus fanlar o'rtasida ilmiy va nazariy bog'iqlikni ta'minlashi;

- maxsus fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni shakllantirishi;

- modelli tasavvurlarni tajriba usullari va olingan natijalarni qayta ishlash yo'riqlariga oid bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini ta'minlashi lozim.

Maxsus fanlar bloki:

- bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

- tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha maxsus bilimlarni, kasb faoliyati ko'nikmalari va uquvlarini shakllantirishi;

- talabaning muayyan magistratura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga ongli munosabatda bo'lishiga ko'maklashishi lozim.

Qo'shimcha fanlar bloki

- talabalarning bakalavriat ta'lim fanlari bo'yicha qo'shimcha ravishda chuqur bilim olishga bo'lgan ehtiyojini qondirishi;

- ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablar va mehnat bozori kon'yunkturasi tez o'zgarayotgan sharoitda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalar va fanlar dasturlarining safarbarligi va moslashuvchan bo'lishini ta'minlashi lozim.

## 5.2. Magistratura

Magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejalarini va fanlar dasturi mazmuni oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning birlamchi va boshlang'ich bosqichi sifatida mutaxassislik bo'yicha chuqur fundamental va amaliy bilimlar berishni ko'zda tutgan holda shakllantiriladi.

Magistratura mutaxassisliklari o'quv rejalarini va fanlar dasturlari bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejalarini va fanlar dasturlari bilan uzuksizlik va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabalar tomonidan quyidagi majburiy bloklar o'zlashtirilishini nazarda tutishi zarur:

- umummetodologik fanlar;
- mutaxassislik fanlari;
- ilmiy faoliyat.

O'quv rejalar va fanlar dasturlari majburiy o'quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o'z ichiga olishi lozim.

Talabalarning o'quv rejalar va fanlar dasturlarini o'zlashtirishida o'quv fanlarining bir qancha masalalari va muammolari bo'yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi zarur.

Magistratura mutaxassisliklari uning o'quv rejalariga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart.

5.2.1. O'quv rejaning o'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiyl talablar

Umummetodologik fanlar bloki:

- milliy istiqlol g'oyasi va gumanitar, texnik va tabiiy fanlarning falsafiy masalalari bo'yicha bilimlar berilishi;
- insoniyatning global muammolari, ma'naviy hayat, shaxs va jamiyat ehtiyojlari, ta'limning insonparvarlik ruhi, zamonaviy sivilizatsiya va uning taraqqiyot yo'nalishlari, axborot tizimlari va bilimlarni taqdim qilish usullari to'g'risidagi tasavvurlar shakllantirishi;

• ilmiy va ilmiy-texnik axborot bilan ishlash ko'nikmalarini va uquvlarini shakllantirishi, tadqiq etiladigan mavzular bo'yicha muntazam ravishda mustaqil tahlil va xulosani tayyorlashi;

• ilmiy ijod metodologiyasi, ilmiy tadqiqotlar asoslari, bilishning umumiyl usullari, empirik va nazariy tadqiqot usullari, qonunlar va qoidalar mantig'i, asoslash va inkor qilish usullariga, shuningdek nutq madaniyati asoslari bilimlariga, pedagogik texnologiyalar, mutaxassisliklar bo'yicha menejment va iqtisodiyotga doir bilimlarni ta'minlashi;

• amaliy xorijiy tilni, mutaxassislikka yo'naltirilgan axborot texnologiyalari va tizimlarini o'zlashtirishni ta'minlashi;

Mutaxassislik fanlari bloki:

• muayyan mutaxassislik bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni, uquv va ko'nikmalarini shakllantirishi;

• mutaxassislik bo'yicha bilimlar bazasini yaratish, jamlash va ulardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishi;

• magistratura mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, kasb faoliyatining ko'zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni modellashtirish va tizimli yondashish borasidagi ilmiy bilimlar, amaliy uquv va ko'nikmalarini ta'minlashi kerak.

Ilmiy faoliyat bloki ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o'zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida muayyan ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlari bajarilishini nazarda tutishi lozim.

**Ilmiy-tadqiqot ishlari:**

- mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi;

- axborot texnologiyalarining zamонавиј vositalaridan foydalanib ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, ilmiy maqolalar tayyorlashga doir bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirishi;

- talabalarga fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo'llay bilish, ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanish ko'nikmasini singdirishi lozim.

**Ilmiy-pedagogik ishlari:**

- zamонавиј pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlaringin interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirishi;

- o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etish uquvi va ko'nikmalarini hosil qilishi lozim.

Stajirovka ilmiy tadqiqot ishlari taqozo etganda individual ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.

**Stajirovka:**

- ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishi;

- iqtisod, fan, madaniyat va sog'liqni saqlash va boshqa tarmoqlardagi zamонавиј texnika va texnologiyalar bilan tanishtirishi;

- amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirishi;

- kasbga samarali moslashuvni ta'minlashi lozim.

Bunda stajirovkaga yo'llangan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarishi ko'zda tutiladi.

## 2.5. Oliy ta'lif muassasasiga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish

O'zbekiston Respublikasi «Ta'lif to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasi va oliy ta'lif muassasasiga ishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq tegishli kasbiy tayyorlarlikka va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar OTMlariiga tanlov asosida ishga qabul qilinadi.

Oliy ta'lif muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom tasdiqlangan.

Mazkur Nizom «Ta'lif to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 5-moddasiga muvofiq oliy ta'lif muassasalariga pedagog xodimlarni (professor-o'qituvchilar tarkibini) tanlov asosida ishga qabul qilish tartibini belgilaydi.

Chuqrus kasbiy bilimlarga va ilmiy yutuqlarga, ijodiy, ilmiy salohiyatga, yuksak intellektual qobiliyatlar va axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari darajasida mutaxassislar tayyorlash bilan shug'ullanishga munosib bo'lgan eng malakali pedagog kadrlarni tanlash uchun raqobat muhitini yaratish va ta'minlash tanlovnning maqsadi hisoblanadi.

*Lavozimlari tanlov bo'yicha pedagog xodimlar va tanlov qatnashchilariga qo'yildigan malaka talablari:*

1. Pedagog xodimlar toifasiga kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi (assistent) o'qituvchi-stajor lavozimini egallab turgan shaxslar kiradi.

2. Oliy ta'lif muassasasining kafedra mudiri, professori, dotsenti, katta o'qituvchisi, o'qituvchisi (assistanti) o'qituvchisi-stajori lavozimi besh yil muddatga tanlov bo'yicha egallanadi.

Besh yillik muddat tamom bo'lgandan keyin ko'rsatib o'tilgan lavozimlar mazkur Nizomga muvofiq tanlov asosida egallanadi.

Pedagog xodimlar lavozimlarini egallahshning besh yillik muddati davrida rektorning buyrug'i bilan tasdiqlanadigan oliy ta'lif muassasasining komissiyasi tomonidan har bir o'quv yili yakunlari bo'yicha ushbu Nizomga imuvofiq mezonzarga binoan pedagog xodimlar faoliyatini har tomonlama o'rjanib chiqiladi.

Pedagog xodimlar faoliyatini o'rjanish tartibi oliy ta'lif muassasasining ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Pedagog xodimlar

faoliyatini o'rganish natijalari oliy ta'lif muassasasining ilmiy kengashida ko'rib chiqiladi.

3. Kafedra mudiri lavozimini egallah uchun tanlovda professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, fan nomzodi, falsafa doktori (PhD), fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga, shuningdek xorijiy mamlakatlarning tegishli maxsus bo'yicha ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lgan shaxs ishtirot etishi mumkin.

Dotsent (fan nomzodi, tegishli maxsus bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalar) kafedra mudiri lavozimini egallahga bir besh yillik muddatga qo'yiladi.

Bir muddat tamom bo`lgandan keyin kafedra mudiri lavozimini egallab turgan va fan doktori ilmiy darajasini olmagan dotsent (fan nomzodi, tegishli maxsus fan bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalar) faqat istisno hollarda oliy ta'lif muassasasi rektorining taqdimnomasiga binoan va bo'ysunishi bo'yicha tegishli vazirlik yoki idoraning ruxsati bilan kafedra mudiri lavozimini egallah uchun tanlovda yana ishtirot etishi mumkin.

Fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan aynan bir shaxsning kafedra mudiri lavozimiga tanlovda ketma-ket uchinchi muddatga ishtirot etishiga yo'l qo'yilmaydi.

Tillar, jismoniy tarbiya va sport, grafika va chizmachilik, madaniyat va san'at yo'naliishlari kafedrasi mudiri lavozimini egallah uchun tanlovda ishtirot etishga dotsent ilmiy unvoniga (fan nomzodi, tegishli mutaxassislik fan bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga) ega bo'lman, biroq kamida 5 yil metodik, ilmiy-pedagogik, ijodiy va tashkiliy faoliyat tajribasiga ega bo'lgan shaxs qo'yilishi mumkin.

4. Professor lavozimini egallah uchun tanlovda, qoidaga ko'ra, professor ilmiy unvoniga yoki fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga, shuningdek, tegishli mutaxassislik fan bo'yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lgan shaxs ishtirot etishi mumkin.

Professor lavozimini egallah uchun tanlovda fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga yoki tegishli mutaxassislik fan bo'yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga

yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo`lgan shaxs kamida 5 yil ilmiy-pedagogik ish stajiga ega bo`lish, ushbu kafedraning ta`lim yo`nalishlari bo`yicha darsliklar va o`quv qo`llanmalari muallifi bo`lish sharti bilan bir muddatga ishtirok etishi mumkin.

5. Dotsent lavozimini egallah uchun tanlovda, qoidaga ko`ra, dotsent ilmiy unvoniga, katta ilmiy xodim yoki fan nomzodi, falsafa doktori (PhD), fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga, shuningdek xorijiy mamlakatlarning tegishli mutaxassisligi bo`yicha ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo`lgan shaxs ishtirok etishi mumkin.

Bir muddatga dotsent lavozimini egallah uchun tanlovda, shuningdek tegishli ilmiy unvonga va ilmiy darajaga ega bo`lmagan, biroq ushbu mutaxassislik fan bo`yicha kamida 3 yillik amaliy ish tajribasiga ega bo`lgan, mazkur kafedraning ta`lim yo`nalishlari bo`yicha darsliklar va o`quv qo`llanmalari muallifi bo`lgan yuqori malakali mutaxassis ham qatnashishi mumkin.

6. Katta o`qituvchi lavozimini egallah uchun tanlovda oliv ma'lumotga ega bo`lgan shaxs (magistr, diplomli mutaxassis), shuningdek, ilmiy daraja (shu jumladan, fan nomzodi, tegishli maxsus fan bo`yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalarga) va ilmiy unvonga ega bo`lgan hamda bunday daraja va unvonga ega bo`lmagan, biroq o`qituvchilik, ilmiytadqiqot va ishlab chiqarish ishlari tajribasiga ega bo`lgan shaxslar ham qatnashishi mumkin.

7. O`qituvchi (assistant) o`qituvchi-stajor lavozimini egallah uchun tanlovda tegishli mutaxassislik bo`yicha oliv ma'lumotga ega bo`lgan shaxs (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

8. Homilador ayollar, shuningdek uch yoshgacha bolalari bo`lgan ayollar egallab turgan lavozimlarga tanlov e`lon qilinmaydi.

9. Oliy ta`lim muassasalariga o`qituvchi lavozimiga soatbay haq to`lash shartlarida ishga kirayotgan shaxslar tanlovsiz, rektor buyrug`i bilan, belgilangan tartibda qabul qilinadi.

10. O`qishni tugallash yilida oliy ta`lim muassasasi magistraturasining bitiruvchisi bo`sh lavozimlar mavjud bo`lgan taqdirda taqsimot bo`yicha 3 yil muddatga tanlovdan tashqari o`qituvchilik lavozimiga tayinlanadi. Ushbu muddat faqat davlat granti asosida o`qishni tamomlagan magistratura bitiruvchilar uchun qo`llanadi.

*Tanlovlarni o'tkazish tartibi*

1. Oliy ta'lif muassasasi saylash muddati ushbu o'quv yilida tamom bo'ladigan, shuningdek bo'sh lavozimlarga kafedra mudirlari, professorlar, dotsentlar, katta o'qituvchilar, o'qituvchilar (assistantlar) va o'qituvchilar-stajorlar lavozimlarini egallashga tanlov e'lon qiladi.

2. Tanlov bo'yicha saylov oliy ta'lif muassasalarining ilmiy kengashlarida yoki fakultetlarning ilmiy kengashlarida o'tkaziladi. Oliy ta'lif muassasasining ilmiy kengashida yoki fakultetning ilmiy kengashida saylanadigan lavozimlarni belgilash huquqi oliy ta'lif muassasasining rektoriga tegishli bo'ladi.

Kafedra mudirlari va professorlar oliy ta'lif muassasalarining ilmiy kengashlarida tanlov bo'yicha o'tadilar.

3. Tanlovlar vaqtli matbuotda yoki boshqa ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan oliy ta'lif muassasasining ko'p nusxali gazetasida e'lon qilinadi. Tanlovda qatnashish uchun arizalar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oydan kechikmay berilishi kerak.

4. Tanlovda qatnashishni xohlovchilar oliy ta'lif muassasasi rektori nomiga ariza beradilar, arizaga kadrlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaq va oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomlar nusxasi ilova qilinadi.

Qatnashuvchilarda ilmiy daraja (shu jumladan, fan nomzodi, tegishli maxsus fan bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga), ilmiy unvon, shuningdek, ilmiy ishlar va ixtiolar mavjud bo'lgan taqdirda ular tegishli diplomlar, attestatlar nusxalarini va ilmiy ishlar ro'yxatini, malaka oshirish to'g'risidagi guvohnomalarni taqdim etishlari kerak.

5. Tanlovga tushgan barcha hujjatlar oldindan kafedra majlisida ko'rib chiqiladi. Ilgari kafedrada ishlagagan shaxslarning hujjatlarini ko'rib chiqishdan oldin ular tomonidan sinov leksiyalari (mazkur oliy ta'lif muassasasi o'qituvchilar uchun ochiq mashg'ulotlar) o'tkaziladi. Sinov leksiyalari va ochiq mashg'ulotlar mavzulari kafedra predmetlari bo'yicha o'quv dasturi talablariga muvofiq bo'lishi kerak. Tanlov qatnashchilarini test sinovlaridan o'tkazishga yo'l qo'yiladi. Kafedra mudiri lavozimiga nomzodlarni muhokama qilish bo'yicha majlisni fakultet dekani (oliy ta'lif muassasalari umumiyligi kafedralarida prorektor o'tkazadi).

Ilgari o'zi egallab kelgan lavozim uchun tanlovda qatnashuvchi shaxslar kafedra majlisida tanlovdan oldingi davrdagi ilmiy-pedagogik, metodik, tarbiyaviy va boshqa ishlari to'g'risida hisobot beradi.

Kafedra ilgari egallab kelgan lavozimi uchun tanlovda qatnashuvchi har qaysi nomzod bo'yicha materiallarni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, ochiq yoki yashirin ovoz bergen holda, kafedraning shtatdagi o'qituvchilarining (shu jumladan, o'rindoshlik tartibida ishlayotgan o'qituvchilarining) va ilmiy xodimlarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan tavsyanoma qabul qiladi va uni o'qituvchining hisoboti bilan birga oliy ta'lif muassasasi (fakultet) ilmiy kengashiga jo'natadi.

Fakultetning kafedra a'zosi hisoblanmaydigan dekani (prorektor) kafedra mudiri lavozimiga nomzodlar bo'yicha tavsyanomalar qabul qilishda ovoz berishda qatnashmaydi. Egallah uchun tanlov e'lon qilingan lavozimni egallab turgan shaxs materiallarni ko'rib chiqish chog'ida ovoz berishda qatnashmaydi.

6. Har qaysi nomzod bo'yicha ilmiy kengash majlisida yashirin ovoz berishni o'tkazishdan oldin kafedraning tavsyanomasi o'qib eshitiriladi.

7. Mazkur lavozim uchun tanlovda qatnashuvchi barcha shaxslarning familiyasi yashirin ovoz berish uchun bitta byulletenga kiritiladi.

Ovoz berish byulletenida ovoz berilayotgan nomzodning familiyasi ro'parasiga tegishli belgi qo'yish yo'li bilan amalga oshiriladi. Faqat bitta nomzod uchun ovoz berishga yo'l qo'yiladi.

Agar byulletenda ovoz berish uchun birorta ham belgi qo'yilmagan bo'lsa, yoxud belgi ikki yoki undan ko'p familiyalar ro'parasiga qo'yilgan bo'lsa, u holda bunday byulleten buzilgan hisoblanadi va ovozlarni hisoblashda hisobga olinmaydi.

8. Ovozlarni hisoblash uchun ilmiy kengash ovoz berish boshlanishidan oldin tarkibida ilmiy kengashning kamida uch nafar a'zosi bo'lgan sanoq komissiyasini saylaydi. Sanoq komissiyasi har qaysi nomzod bo'yicha ovoz berish natijalarini e'lon qiladi.

Sanoq komissiyasi protokoli ilmiy kengash tomonidan tasdiqlanadi va tanlov materiallariiga qo'shib qo'yiladi.

9. Tanlovni o'tkazishda ilmiy kengash qarori, agar ovoz berishda ilmiy kengashning tasdiqlangan (ro'yxatdagi) tarkibidagi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi. Ilmiy kengashning ovoz berishda qatnashgan a'zolarining ko'pchilik ovozini, biroq kamida 50 foiz ovozini olgan nomzod tanlovdan o'tgan hisoblanadi.

Birortasi ham talab qilingan miqdorda ovoz ololmagan ikki nafardan ko'p nomzodlar qatnashgan taqdirda ilmiy kengashning aynan shu majlisida dastlabki ikki talabgor o'rtasida takroriy ovoz berish o'tkaziladi. Agar ikki nomzod qatnashgan tanlovni o'tkazishda ovozlar soni teng bo'lib qolsa

raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Ilmiy kengash qarori oliy ta'limgan muassasasi rektorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Tanlovda qatnashish uchun arizalar mavjud bo'lmagan taqdirda, tanlov o'tkazilmagan hisoblanadi.

10. Lavozimlarni egallah uchun o'qituvchilarni tanlash bo'yicha kafedra va ilmiy kengash majlislari ochiq tartibda o'tadi. Tanlovda qatnashuvchilarga ularning nomzodlari muhokama qilinadigan kafedra va ilmiy kengash majlislarida qatnashish yoki ularning xohishiga ko'ra kafedra yoki ilmiy kengash qarori bilan tanishish huquqi beriladi.

11. Ilmiy kengash kotibi tanlov natijalari to'g'risida o'n kun muddatda unda qatnashgan shaxslarni yozma ravishda xabardor qiladi.

#### *IV. Mehnat shartnomasi (kontrakt)ni tuzish, o'zgartirish va to'xtatish*

1. Ushbu oliy ta'limgan muassasasida ishlamaydigan pedagog xodimlar bilan lavozimga tanlovdan o'tgan shaxslar bilan belgilangan tartibda mehnat shartnomalari tuziladi, mehnat shartnomalari asosida ularni 5 yil muddatga ishga qabul qilish to'g'risida buyruq chiqariladi.

Mehnat shartnomalarida ish beruvchi tomonidan har 5 yilda xodim egallab kelgan lavozim uchun tanlov o'tkazilishi belgilab qo'yiladi, xodim esa tanlovda qatnashishga haqlidir.

Xodim mehnat shartnomasi tuzilgandan keyin ishga kirishishi shart bo'lgan muddat tomonlarning kelishuvi bo'yicha belgilanadi, biroq ushbu muddat bir oydan ortiq bo'lishi mumkin emas. Pedagog xodimlarning yozgi kanikul (ta'til) davri ushbu muddatga kirmaydi.

2. Mazkur oliy ta'limgan muassasasida ishlaydigan va tanlov bo'yicha saylangan shaxslarning mehnat shartnomalariga quyidagilar yozib qo'yiladi:

a) ular ilgari egallab kelgan lavozim uchun mehnat munosabatlarni yangi muddatga uzaytirish to'g'risidagi ma'lumotlar yoziladi va tegishli buyruq chiqariladi;

b) boshqa lavozimlar uchun tanlovdan o'tganlik to'g'risida ilmiy kengash protokoli qayd etilgan holda tegishli o'zgartirishlar yoziladi va boshqa lavozimga o'tkazish to'g'risida buyruq chiqariladi.

Davlat boshqaruvi organi qaroriga ko'ra pedagog xodimlar attestatsiyadan o'tkazilgan taqdirda attestatsiya yakunlariga ko'ra ish beruvchi va xodimlar o'rtaqidagi mehnat munosabatlari masalalari, shaxsning tanlov bo'yicha egallanadigan lavozimda bo'lish muddatidan qat'i nazar, qonun hujjalarda belgilangan tartibda hal qilinadi.

3. Ilgari egallab kelgan lavozimi uchun tanlovdan o'tmagan, shuningdek tanlovda qatnashish uchun ariza bermagan shaxslar bilan mehnat shartnomasi yangi muddatga tanlovdan o'tmaganligi yoxud tanlovda qatnashishni rad etganligi sababli oliy ta'lif muassasasi rektori tomonidan belgilangan muddatlarda (qoidaga ko'ra, o'quv semestri, yil tamom bo'lgandan keyin) mehnat qonunchiligiga muvofiq to'xtatiladi.

4. Kafedralar birlashtirilganda yoki kafedra bo'linganda pedagog xodimlar bo'yicha muddatidan oldin tanlovlardan o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Kafedralar birlashtirilgan taqdirda yangidan tashkil etilgan kafedra mudiri lavozimini egallah to'g'risidagi masalani oliy ta'lif muassasasining ilmiy kengashi oldindan tanlov e'lon qilmasdan, yashirin ovoz berish yo'li bilan hal qiladi.

Kafedra bo'lingan taqdirda uning mudiri saylangan muddati o'tgungacha, rektor buyrug'i bilan yangidan tashkil etilgan kafedralardan birining mudiri lavozimiga tayinlanadi. Boshqa kafedraning mudiri lavozimiga tanlov bo'yicha mudir tayinlanadi.

5. Oliy ta'lif muassasasi rektoriga tanlov o'tkazilgungacha kafedraning yetakchi o'qituvchilaridan bittasiga yoki dekanga bo'sh kafedra mudiri lavozimi bo'yicha vazifalarni bajarishni yuklashga ruxsat etiladi.

Vakillik organlarida saylab qo'yiladigan lavozimiga saylanishi natijasida mehnat shartnomasi to'xtatilgan o'qituvchi uning saylov bo'yicha vakolatlari tugagandan keyin tanlov natijalariga ko'ra saylangan muddati tugagungacha mazkur oliy ta'lif muassasasining ilgari egallab kelgan yoki unga teng bo'lgan pedagog-xodim lavozimiga tayinlanadi.

6. Oliy ta'lif muassasasi rektoriga oliy ta'lif muassasasi (fakultet) ilmiy kengashida ko'rib chiqish uchun pedagog xodimlarning egallab turgan lavozimlariga muvofiqligi to'g'risidagi masalani kiritish huquqi beriladi.

Oliy ta'lif muassasasi (fakultet) ilmiy kengashida pedagog xodimning egallab turgan lavozimiga muvofiqligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishdan oldin uning faoliyati rektoring buyrug'i bilan tasdiqlanadigan komissiya tomonidan o'rganib chiqilishi kerak. Ilmiy kengash qarori asosida pedagog xodimni egallab turgan lavozimiga nomuvofiqligi bo'yicha vazifasidan ozod qilishga uning malakasi yetarli bo'limaganligi sababli ilmiy-metodik va tarbiyaviy ishlar, shuningdek leksiyalar va seminar mashg'ulotlari o'tkazish darajasi past bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Agar ilmiy kengash qaroriga ko'ra kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi-stajor egallab turgan lavozimiga nomuvofiq deb

e'tirof etilsa, bunday holda u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi belgilangan tartibda to`xtatiladi.

Kafedra mudiri bilan tuzilgan mehnat shartnomasi, shuningdek kafedraga rahbarlik qilish bo'yicha o'z funksional vazifalarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi sababli ilmiy kengash qaroriga binoan to`xtatilishi mumkin.

7. Oliy ta'lim muassasalarining pedagog xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini to`xtatish masalalariga doir mehnat nizolari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

#### Nazorat savollari

1. Oliy ta'limni rivojlantirish dasturining mohiyatini aytib bering.
2. Oliy ta'limning malaka talablari nima?
3. Malaka talablariga ilova qilinadigan hujjatlarni aytинг.
4. Bakalavriat yo'naliши qanday majburiy fan bloklarini nazarda tutadi?
5. Bakalavr nimalarни bajarishga tayyorlanadi?
6. Bakalavriat o'quv fanlari bloklariga qo'yiladigan talablar, bakalavrлar egallashi lozim bo'lgan bilimlar nimalardan iborat?
7. Bakalavriatni bitiruvchiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari nimalarни o'z ichiga oladi?
8. Magistratura nima, u qaysi majburiy bloklarni o'zlashtirishni nazarda tutadi?
9. Magistratura talabasi egallashi zarur bo'lgan bilimlar nimalardan iborat?
10. Magistratura talabalarining ilmiy faoliyati nimalarни o'z ichiga oladi?
11. Magistratura bitiruvchisining kasb tayyorgarligiga qo'yiladigan malaka talablarini aytинг.
12. Magistrantlar nimalarни bajarishga tayyorlanadi?
13. Oliy talim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibini aytинг.
14. Lavozimlari tanlov bo'yicha egallanadigan pedagog xodimlar va tanlov qatnashchilariga qo'yiladigan malaka talablarini sanab bering.
15. Mehnat shartnomasi (kontrakt)ni tuzish, o'zgartirish va to`xtatish.

### III BOB. PROFESSOR O'ITUVCHINING VAQT ME'YORLARI

#### 3.1. Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish

Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish borasida 2018-yil 5-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"<sup>10</sup>gi Qarori qabul qilingan.

Mazkur qaror alohida ta'lif yo'naliishlari bo'yicha o'qish muddati kamida uch yil bo'lgan bakalavriat hamda kamida bir yil bo'lgan magistraturani joriy etish, bunda magistraturada mutaxassislar tayyorlashni ishlab chiqarish (amaliy) (kamida bir yil) va ilmiy-pedagogik (kamida ikki yil) yo'naliishlarga ixtisoslashgan dasturlar asosida tashkil etish; oliy ta'lif muassasalari bakalavriatiga qabul qilish kvotalaridan tashqari xorijiy fuqarolarni suhbat asosida test sinovlarisiz o'qishga qabul qilish to'g'risidagi takliflariga rozilik berish; O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, tasarrufida oliy ta'lif muassasalari mavjud vazirlik va idoralarning viza talabnomalariga asosan o'qishga kirish istagini bildirgan xorijiy fuqarolarning kirish vizalarini o'rnatilgan tartibda konsullik va boshqa to'lovlarini undirmagan holda rasmiylashtirish; 2018/2019- o'quv yilidan boshlab tayanch (yetakchi) oliy ta'lif muassasalari tomonidan tegishli ta'lif yo'naliishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv rejalarini va dasturlarini kadrlar buyurtmachilarining ehtiyojlaridan kelib chiqib, mustaqil ravishda ishlab chiqish hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlash tartibini joriy etish vazifalari belgilangan. Shuningdek, qarorda ikki oy muddatda Oliy ta'lif muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish, bunda baholash tizimi va mezonlarini uzlusiz ta'lif tizimining bosqichlariga muvofiqlashtirishga; ta'lif yo'naliishlarining o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda talabalar bilimini baholashning zamonaviy, shaffof va adolatli (avtomatlashtirilgan, portfolio, test sinovlari, ijodiy ish, antiplagiat va h.k.) usullarini, shu jumladan, muayyan fandan dars bergen pedagogning yakuniy nazorat jarayonlaridagi ishtirokini istisno etadigan tizimni joriy etishga; semestr yakuni bo'yicha akademik qarzdor talabaning qayta topshirishi mumkin

<sup>10</sup> uza.uz/uz/documents/oliy-ta-lif-muassasalarida-ta-lif-sifatini-oshirish-va-ularn-05-06-2018

bo'lgan fanlar sonini belgilashga va ularni topshirish muddatini o'zgartirishga qarash ta'kidlanadi.

Qaror davomida 2018-yil 1-dekabrgacha bo'lgan muddatda oliy ta'lif muassasalari bitiruvchilarini yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish yuzaсидан tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlash; 2019-yil 1-martgacha bo'lgan muddatda 2019/2020 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lif muassasalarida "talabaning o'zlashtirish darajasi – professor-o'qituvchilar faoliyatini baholashning asosiy mezoni" tamoyilini joriy qilishning aniq mexanizmlarini belgilash bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ko'rish, bunda ushbu tamoyil talablariga javob bermaydigan professor-o'qituvchilar bilan mehnat shartnomasini bekor qilishgacha bo'lgan choralar ko'rishni belgilash; 2018/2019 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lif muassasalari professor-o'qituvchilarining vaqtini o'quv jarayoniga xos bo'limgan ishlarga sarflashning oldini olish hamda ularni talabalar bilan ko'proq ishlashga yo'naltirish, shu jumladan, "ustoz – shogird" tizimini joriy etish maqsadida o'quv yuklamalarini hisobga olgan holda professor-o'qituvchilar "vaqt me'yorlari"ning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash; oliy ta'lif muassasalarining professor-o'qituvchilarini ularning vazifalari va faoliyat yo'nalishlari bilan bog'liq bo'limgan yig'ilishlarga va boshqa tadbirlarga jalb etishni taqiqlansh; davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari, barcha darajadagi hokimlar mazkur talabni buzganligi uchun egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan shaxsiy javobgarligi to'g'risida qat'iy ogohlantirilshi kabi masalalarga alohida urg'u berilgan.

Barcha oliy ta'lif muassasalarida samarali jamoatchilik nazoratini joriy etish maqsadida talabalar, ota-onalar, Yoshlar ittifoqining oliy ta'lif muassasalaridagi faollari, kadrlar buyurtmachilari, professor-o'qituvchilar hamda fuqarolik jamiyatni institutlari vakillaridan iborat tarkibda jamoatchilik kengashlarini tashkil etish, va jamoatchilik kengashlarining asosiy vazifalari etib ta'lif sifati, professor-o'qituvchilarining bilimi va pedagogik mahorati, talabalarga yaratilgan shart-sharoitlar ustidan tizimli ravishda monitoring o'rnatish; oliy ta'lif muassasalariga professor-o'qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlar bo'yicha tavsiyalar berish; talabalarning murojaatlarini ko'rib chiqish, ularning pedagog kadrlar haqidagi fikrini to'liq o'rganish maqsadida ijtimoiy so'rovlar o'tkazish; oliy ta'lif muassasasidagi ta'lif jarayonini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash va muassasaning tegishli

kengashi muhokamasiga kiritish ko'rsatilgan. Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash Yoshlar ittifoqining oliv ta'lif muassasasidagi yetakchisi tomonidan amalga oshirilishi; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tasarrufida oliv ta'lif muassasalari mavjud vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda Oliy ta'lif muassasalari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash vazifalari ko'rsatilgan.

Qaror natijasida 2018-yil 1-sentyabrdan boshlab oliv ta'lif muassasalariga professor-o'qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilish tegishli kafedraning kengaytirilgan ochiq majlisida pedagog kadrlar va jamoatchilik kengashining a'zolari ishtirokida sinov darsi o'tkazish natijalari bo'yicha ushbu majlisning tavsiyasiga ko'ra amalga oshiriladi; O'zbekiston va xorijiy oliv ta'lif muassasalarining o'zaro kelishuvi hamda qo'shma ta'lif dasturlari asosida talabalarni o'qitishni tashkil etish va ikki tomonlama tan olinadigan diplom berish amaliyoti joriy etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi bilan birgalikda 2019-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatda oliv ta'lif muassasalariga kirish imtihonlaridagi test savollarini tayyorlash uslublarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqsin hamda ularni takomillashtirish bo'yicha takliflarni belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritshi, ilg'or xalqaro imtihon tizimlari (TOEFL, IELTS, CEFR, SAT General, SAT Subject va hokazo) sertifikatlariga ega bo'lgan abituriyentlarga tegishli fanlardan belgilangan eng yuqori ball berish va ushbu fanlar test sinovidan ozod qilish tartibini ishlab chiqilishi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, tasarrufida oliv ta'lif muassasalari mavjud vazirlik va idoralar zimmasiga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatiladi:

-mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda oliv ta'lif muassasalarining ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish; davlat va jamiyat hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar hamda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyati oliv ta'lif muassasalari tomonidan televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng aholi e'tiboriga yetkazilishini ta'minlash; hududlarni, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarni jadal rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va

dasturlar loyihalarining keng muhokamasida oliy ta'lif muassasalarining faol ishtirokini ta'minlash; innovatsion va texnologik g'oyalarni har tomonlama rivojlantirish hamda qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoitlar yaratish, professor-o'qituvchilar, yosh olimlar va talabalarning innovatsion texnologiyalarni yaratish borasidagi tashabbuskorligini oshirish yuzasidan aniq choralar ko'rish; iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalar tashkilotlari rahbarlari, yetakchi mutaxassislari, faol tadbirkorlar bilan dolzarb masalalarda seminar va davra subbatlarini doimiy ravishda o'tkazib borish, ularning faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarning yechimiga qaratilgan ilmiy-amaliy izlanishlarni olib borish; oliy ta'lif muassasalari rahbariyatining mamlakatni isloh qilish jarayonida faol ishtirok etish borasidagi mas'uliyatini oshirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar belgilash, har bir rektor va prorektor uchun ushbu yo'nalishda alohida "Yo'l xaritalari" ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini ta'minlash, ularning ijrosini nazorat qilish.

Qarorning 10-bandida oliy ta'lif muassasalarining ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha prorektori lavozimi o'rniga yoshtar bilan ishlash bo'yicha prorektori lavozimi joriy etiladi, yoshtar bilan ishlash bo'yicha prorektorlarning faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining Yoshlar siyosati masalalari xizmatiga yuklanishi; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lif vaziri, tasarrufida oliy ta'lif muassasalari mavjud vazirlik va idoralar rahbarlari – tegishli oliy ta'lif muassasalari rektorlari va prorektorlarining, innovatsion rivojlanish vaziri – barcha oliy ta'lif muassasalari ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektorlarning faoliyati natijalarini ularning "Yo'l xaritalari"da belgilangan vazifalarning bajarilishi yuzasidan har oyda kamida bir marta tanqidiy muhokama qilib borilishi; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirining, tasarrufida oliy ta'lif muassasalari mavjud vazirlik va idoralar rahbarlarning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda tegishli oliy ta'lif muassasalarining faol ishtirokini ta'minlash yuzasidan hisobotlari har yili Vazirlar Mahkamasining majlislarida muhokama etilishi; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini muhokama natijalariga ko'ra oliy ta'lif muassasalari rektorlarining egallab turgan lavozimiga loyiqligi yoki noloyiqligi masalasini ko'rib chiqishi; oliy ta'lif muassasalari rektorlarining faoliyati samaradorligiga baho berishda o'quv jarayoniga yuqori malakali xorijiy olimlar, o'qituvchi va mutaxassislarning keng jalb qilinganligi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida yetakchi

xorijiy oliy ta'lif muassasalarining filiallarini ochishda ularning tashabbuskorligi inobatga olinishi belgilab qo'yilgan.

11-banda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan bирgalikda ikki oy muddatda oliy ta'lif muassasalari talabalarini ilmiy faoliyatga yo'naltirishga va ularda innovatsion fikrlashni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi loyihasini ishlаб chiqish va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish, unda quyidagilar nazarda tutilishi ko'rsatilgan:

-yangi g'oya va tashabbuslarni shakllantirish maqsadida har bir oliy ta'lif muassasasida "Yosh ekspertlar guruhi"ni tashkil etish;

-o'quv mashg'ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga yo'naltiradigan o'qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etish, asosiy e'tiborni talabalarning mustaqil ta'lif olishi bilan bog'liq mexanizmlarni amalga oshirishga qaratish;

-har bir oliy ta'lif muassasasida 1-kurs davomida saralab olingan eng iqtidorli talabalar uchun alohida guruhlar tashkil etish (mazkur guruhlardagi talabalar soni oliy ta'lif muassasasi tomonidan belgilanadi), 2-kursdan ularni o'qitishni alohida o'quv reja va dasturlar asosida amalga oshirish, ushbu toifadagi talabalarini magistraturaga maqsadli qabul qilish va bu orqali oliy ta'lif muassasalari kafedralari uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish.

Qaror bilan yosh olim va talabalarga hamda tashabbuskor fuqarolarga mamlakatda innovatsion g'oya va texnologiyalarni rivojlantirishga qo'shgan munosib hissasi uchun topshiriladigan "Innovatsion g'oyalar yetakchisi" ko'krak nishoni ta'sis etildi. Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha "Yo'l xaritasi" muvofiq tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, tasarrufida oliy ta'lif muassasalari mavjud vazirlik va idoralar O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi bilan bирgalikda bir oy muddatda mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mazmuni va mohiyatini televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalarida tushuntirish bo'yicha chiqishlarni tashkil etish yuzasidan har bir oliy ta'lif muassasasining yillik reja-grafigini ishlab chiqish va h belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi hamda Moliya vazirligining Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tuzilmasida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan

moliyalashtiriladigan qo'shimcha 2 ta shtat birligini ajratgan holda Axborot xizmatini tashkil etish; oliy ta'lim muassasalari tuzilmalarida ularning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan qo'shimcha 1 tadan shtat birligini ajratgan holda matbuot kotibi lavozimini joriy etish to'g'risidagi takliflariga rozilik berildi.

Oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv, o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar, davriy jurnallar bilan ta'minlash, axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam ravishda yangilab borish; ilg'or xorijiy o'quv hamda ilmiy adabiyotlar va jurnallarni xarid qilish ishlariiga keng imkoniyatlar yaratish, eng yangi xorijiy adabiyotlarni tarjima qilish va o'quv jarayoniga joriy etishni nazarda tutadigan Hukumat qarorini qabul qilish belgilandi; oliy ta'lim muassasalari talabalarining malaka amaliyotini o'tash tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birqalikda quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tasdiqlash vazifasi belgilandi:

oliy ta'lim muassasalariga xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalaridan foydalanishga sharoitlar yaratish, professor-o'qituvchilarining ilmiy natijalarini xalqaro miqyosda keng nashr etish, respublika yetakchi ilmiy jurnallarining bosqichma-bosqich yuqori impakt-faktorga ega bo'lishini ta'minlash;

oliy ta'lim tizimida boshqaruv jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida optimallashtirish, mavjud axborot tizimlarini integratsiyalash, tahliliy ma'lumotlar tayyorlashning samarali tizimlarini joriy etish;

abituriyentlar hujjatlarini elektron shaklda qabul qilish tizimini bosqichma-bosqich yaratish bo'yicha 2019-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatda chora-tadbirlar ishlab chiqish va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.

### 3.2. Vaqt me'yori, o'qituvchining shaxsiy ish rejasi va uning bajarilishi

Oliy ta'lif muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda ilmiy-uslubiy va "Ustoz-shogird" (Tyutorlik) ishlarini belgilash qoidalariga ko'ra, oliy ta'lif muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibi (bundan buyon matnda professor-o'qituvchilar deb yuritiladi) mehnatini normalashtirish har o'quv yili uchun professor-o'qituvchilar va kafedra mudiri tomonidan tuziladigan hamda prorektorlar bilan kelishilgan holda o'quv ishlari bo'yicha prorektor (fakultet dekani) tomonidan tasdiqlanadigan o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish rejalariga asoslanadi.

Professor-o'qituvchilarning o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish rejasi tarkibiga o'quv yuklamasi hamda ilmiy-uslubiy va "Ustoz-shogird" (Tyutorlik) ishlarining turlari kiritiladi. Ish turlari professor-o'qituvchilarning o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish rejalarida to'liq va aniq aks ettirilishi kerak. Joriy o'quv yili yakunida faqat mazkur o'quv yili davomida amalgalashuvilgan ishlar hisobga olinadi.<sup>11</sup>

Professor-o'qituvchilarning shaxsiy ish rejasi tarkibiga kiritiladigan o'quv yuklamasi hamda ilmiy-uslubiy va "Ustoz-shogird" (Tyutorlik) ishlari:

- to'liq shtatda faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar uchun professor-o'qituvchilarning lavozimlariga qo'yilgan malaka talablari asosida;

- to'liq shtatda bo'limgan va o'rindosh sifatida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar uchun ularning stavkalariga muvofiq tarzda professor-o'qituvchilarning lavozimlariga qo'yilgan malaka talablari asosida;

- shuningdek, mehnatga haq to'lashning soatbay shartlari asosida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamasi ushbu qoidalarga muvofiq shakllantiriladi.

Professor-o'qituvchilarning o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish rejasingin bajarilishi muntazam ravishda kafedra mudiri, har semestr yakunida fakultet dekani, dekan o'rinosarlari, fakultet tuzilmasi bo'limgan oliy ta'lif muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) va tegishli yo'nalishlar bo'yicha prorektorlar tomonidan nazorat qilib boriladi.

<sup>11</sup> "Oliy ta'lif muassasasi profesor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va "Ustoz-shogird" ishlarini belgilash qoidalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirining 2018-yil 10-oktabrdagi №850-soni buyrug'i.

Professor-o'qituvchilarning (madaniyat va san'at yo'nalishlari o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etadigan konsertmeysterlarning) o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish rejasiga kiritilgan, uning asosiy qismi bo'lган o'quv yuklamasining soatlardagi hajmi nazarda tutilgan "Oliy ta'lif muassasasi professor-o'qituvchilarining o'quv yuklamasi hajmini hisoblashning vaqt me'yorlari"da belgilangan ish turlaridan kelib chiqib, professor-o'qituvchilarning lavozimlariga qo'yilgan malaka talablari asosida hisoblanadi.

Professor-o'qituvchilarning egallab turgan lavozimlari bo'yicha o'quv yuklamasi hajmi fakultet dekani (kafedra mudiri)ning taklifiga muvofiq oliy ta'lif muassasasining Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

O'quv yuklamasi bo'yicha hisoblangan soatlar hajmi oliy ta'lif muassasasining shtat birliklari sonini hamda professor-o'qituvchilarning oylik maoshlarini belgilash uchun asos bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagи qarori bilan tasdiqlangan "Ijodiy ta'tillar berish tartibi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjalarda nazarda tutilgan normalarga muvofiq olib borilayotgan ilmiy-metodik va ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish maqsadida professor-o'qituvchilarning o'quv ishlari yuklamasi hajmi" kafedra yig'ilishining qaroriga ko'ra o'zgartirilishi mumkin. Bunda professor-o'qituvchilarning tegishli o'quv yuklamasining muayyan qismi kafedraning boshqa professor-o'qituvchilarining o'quv yuklamasiga qo'shimcha ravishda taqsimlanadi.

Ma'ruza mashg'ulotlari ilmiy unvon va ilmiy darajaga ega bo'lган professor-o'qituvchilar tomonidan o'tkaziladi. Zarur hollarda (ma'ruza mashg'ulotlari hajmi ko'p bo'lganda yoki professor, dotsent va katta o'qituvchilar yetarli bo'lmasganda) oliy ta'lif muassasasi Kengashining qaroriga asosan kamida 3 yillik ilmiy-pedagogik ish stajiga ega bo'lган, biroq ilmiy unvon va ilmiy darajasi bo'lmasganda o'qituvchilarga bir o'quv yilda 250 soatgacha hajmda ma'ruza mashg'ulotlarini o'tishga ruxsat beriladi.

Professor-o'qituvchilarning o'quv (ma'ruza, amaliy (yakka), seminar va laboratoriya) soatlari hajmi 400 soatdan kam bo'lmasligi tavsiya etiladi. Kafedraga sohaning yetakchi mutaxassislari (akademiklar va professorlar) jalg' etilganda, ushbu o'quv soatlari hajmiga oliy ta'lif muassasasi Kengashi qaroriga muvofiq o'zgartirish kiritish mumkin.

### **3.3. Professor o'qituvchining yillik o'quv yuklamasi, o'quv-uslubiy ishlari, ilmiy tadqiqot ishlari va "Ustoz – shogird" ishlarini rejalashtirish**

"Oliy ta'lif muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va "ustoz-shogird" ishlarini belgilash qoidalari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2018-yil 10-oktabrda 850-sonli buyrug'i e'lon qilingan. Ushbu buyruq asosida professor o'qituvchilar shaxsiy ish rejalarini to'ldirib borishadi.<sup>12</sup>

Professor-o'qituvchilarining o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish rejasiga kiritilgan, uning asosiy qismi bo'lgan o'quv yuklamasining soatlardagi hajmi mazkur qoidalarni nazarda tutilgan Oliy talim muassasasi professor-o'qituvchilarining o'quv yuklamasi hajmini hisoblashning vaqt me'yorlarida belgilangan ish turlaridan kelib chiqib, professor-o'qituvchilarining lavozimlariga qo'yilgan malaka talablari asosida hisoblanadi.

#### **Oliy ta'lif muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlarini belgilash**

#### **QOIDALARI<sup>13</sup>**

Ushbu Qoidalar O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga muvofiq oliy ta'lif muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlarini belgilash qoidalarni belgilaydi.

Mazkur Qoidalar Toshkent davlat yuridik universiteti, harbiy oliy ta'lif muassasalari va O'zbekiston Respublikasi hududida o'z faoliyatini

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori. 2018-yil 5-iyun

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirining 2018 yil 10 sentyabrdagi 20-2018-sont buyrug'iga ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 8- oktyabrdagi 3076-sont

yuritayotgan xalqaro va xorijiy oliy ta'limga muassasalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

### 1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1. Oliy ta'limga muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibi (bundan buyon matnda professor-o'qituvchilar deb yuritiladi) mehnatini normalashtirish har o'quv yili uchun professor-o'qituvchilar va kafedra mudiri tomonidan tuziladigan hamda prorektorlar bilan kelishilgan holda o'quv ishlari bo'yicha prorektor (fakultet dekani) tomonidan tasdiqlanadigan o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish rejalariga asoslanadi.

2. Professor-o'qituvchilarning o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish rejasi tarkibiga o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlarining turlari kiritiladi. Ish turlari professor-o'qituvchilarning o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish rejalarida to'liq va aniq aks ettirilishi kerak. Joriy o'quv yili yakunida faqat mazkur o'quv yili davomida amalga oshirilgan ishlar hisobga olinadi.

O'quv yili davomida bajarilgan qo'shimcha ish turlari professor-o'qituvchilarning yillik shaxsiy ish rejalariga kiritib borilishi mumkin.

3. Professor-o'qituvchilarning shaxsiy ish rejasi tarkibiga kiritiladigan o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlari:

*to'liq shtatda faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar uchun professor-o'qituvchilarning lavozimlariga qo'yilgan malaka talablari asosida;*

*to'liq shtatda bo'limgan va o'rindosh sifatida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar uchun ularning stavkalariga muvofiq tarzda professor-o'qituvchilarning lavozimlariga qo'yilgan malaka talablari asosida;*

*shuningdek, mehnatga haq to'lashning soatbay shartlari asosida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamasi ushbu Qoidalarga muvofiq shakllantiriladi.*

4. Professor-o'qituvchilarning o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish rejasining bajarilishi muntazam ravishda kafedra mudiri, har semestr yakunida fakultet dekani, dekan o'rinnbosarlari, fakultet tuzilmasi bo'limgan oliy ta'limga muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) va tegishli yo'nalishlar bo'yicha prorektorlar tomonidan nazorat qilib boriladi.

## 2-BOB. PROFESSOR-O'QITUVCHILARNING O'QUV YUKLAMASINI HISOBBLASH

5. Professor-o'qituvchilarning (madaniyat va san'at yo'nalishlari o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etadigan kontsertmeysterlarning) o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish rejasiga kiritilgan, uning asosiy qismi bo'lgan o'quv yuklamasining soatlardagi hajmi mazkur Qoidalarning 1-ilovasida nazarda tutilgan Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarining o'quv yuklamasi hajmini hisoblashning vaqt me'yorlarida belgilangan ish turlaridan kelib chiqib, professor-o'qituvchilarning lavozimlariga qo'yilgan malaka talablari asosida hisoblanadi.

Professor-o'qituvchilarning egallab turgan lavozimlari bo'yicha o'quv yuklamasi hajmi fakultet dekani (kafedra mudiri)ning taklifiga muvofiq oliy ta'lim muassasasining Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

6. O'quv yuklamasi bo'yicha hisoblangan soatlar hajmi oliy ta'lim muassasasining shtat birliklari sonini hamda professor-o'qituvchilarning oylik maoshlarini belgilash uchun asos bo'lmaydi.

Shtat birliklari professor-o'qituvchilarning talabalar soniga nisbati bo'yicha, oylik maoshi esa xarajatlar smetasi bo'yicha tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida belgilanadi.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagи 133-sон qarori bilan tasdiqlangan ijodiy ta'tillar berish tartibi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan normalarga muvofiq olib borilayotgan ilmiy-metodik va ilmiy-tadqiqot ishlarni rag'batlantirish maqsadida professor-o'qituvchilarning o'quv ishlari yuklamasi hajmi kafedra yig'ilishining taklifiga asosan oliy ta'lim muassasasi kengashining qarori bilan o'zgartirilishi mumkin. Bunda professor-o'qituvchilarning tegishli o'quv yuklamasining muayyan qismi kafedraning boshqa professor-o'qituvchilarining o'quv yuklamasiga qo'shimcha ravishda taqsimlanadi.

8. Ma'ruza mashg'ulotlari ilmiy unvon va ilmiy darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar tomonidan o'tkaziladi. Zarur hollarda (ma'ruza mashg'ulotlari hajmi ko'p bo'lganda yoki professor, dotsent va katta o'qituvchilar yetarli bo'lmaganda) oliy ta'lim muassasasi Kengashining qaroriga asosan kamida 3 yillik ilmiy-pedagogik ish stajiga ega bo'lgan, biroq ilmiy unvon va ilmiy darajasi bo'lmagan o'qituvchilarga bir o'quv yilida 250 soatgacha hajmda ma'ruza mashg'ulotlarini o'tishga ruxsat beriladi.

Professor-o'qituvchilarning o'quv (ma'ruza, amaliy (yakka), seminar va laboratoriya) soatlari hajmi 400 soatdan kam bo'lmasligi tavsiya etiladi. Kafedraga sohaning yetakchi mutaxassislari (akademiklar va professorlar) jalb etilganda, ushbu o'quv soatlari hajmiga oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga muvofiq o'zgartirish kiritish mumkin.

### **3-BOB. PROFESSOR-O'QITUVCHILARNING O'QUV-USLUBIY, ILMIY-TADQIQOT VA «USTOZ-SHOGIRD» ISHLARINI BELGILASH**

9. Professor-o'qituvchilar faoliyatining o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlari bo'yicha soatlar hajmi hisoblanmaydigan ish turlari mazkur Qoidalarning 2-ilovasida nazarda tutilgan Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarining o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlari turlaridan kelib chiqib, professor-o'qituvchilarning lavozimlariga qo'yilgan malaka talablari asosida belgilanadi.

10. Professor-o'qituvchilarning o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlari hajmi mazkur ish turlarini bajarish zaruriyatidan kelib chiqib, professor-o'qituvchilarning lavozimlariga qo'yilgan malaka talablari asosida fakultet dekani (kafedra mudiri)ning taklifiga muvofiq oliy ta'lim muassasasi Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

11. Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik, ijodiy mahoratini uzlusiz oshirib borish, talabalarda chuqur nazariy bilim, amaliy va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, ilm-fanga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, ularga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, har tomonlama yetuk mutaxassis tayyorlashni nazarda tutgan holda kafedra mudiri o'qitishni ilg'or pedagogik va kompyuter texnologiyalari, yangi avlod o'quv adabiyotlari asosida tashkil etish hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlar bo'yicha aniq topshiriqlarni belgilaydi.

### **4-BOB. YAKUNIY QOIDA**

12. Mazkur Qoidalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Qurilish vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi, Davlat soliq qo'mitasi, Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, «O'zbekiston temir yo'llari» AJ va Navoiy kon-metallurgiya kombinasi Davlat korxonasi bilan kelishilgan.

### 3.4. OTMlarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi

*Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi:  
iste'dodga, ilmga, mashqqa.*

Baholash - ta'lif jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Bilimlarni tekshirish va baholashning ta'limi ahamiyati shundan iboratki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilganligi haqida ta'lif beruvchi ham, ta'lif oluvchi ham muayyan ma'lumotga ega bo'ladi.

Baholash natijasida, ta'lif beruvchi uchun ta'lif oluvchilarning nimani bilishi va nimani tushunmasligi, qaysi o'quv materiali yaxshi o'zlashtirilganu, qaysi biri hali etarli darajada o'zlashtirilmaganligi yoki umuman o'zlashtirilmaganligi ma'lum bo'ladi. Bu ta'lif oluvchining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Ta'lif beruvchi o'z ishining afzalliliklariga va kamchiliklariga tanqidiy baho beradi. O'z ishi metodlariga tuzatishlar kiritadi. Shuningdek, baholash natijalari ta'lif beruvchining o'quv dasturidagi materiallarni ta'lif oluvchining bilish imkoniyatlari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilishi va baholanishi uchun ham juda muhimdir.

Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarning qaysi birlari qiyin, qaysi birlari esa oson o'zlashtirilishi aniq va ravshan bo'ladi. Bu ta'lif oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyoragarlik ko'rishi va o'quv mashg'ulotini o'tkazishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, ta'lif oluvchi ham ta'lif jarayonida qaysi o'quv materialini yaxshi, qaysisini qoniqarli va nimani yomon o'zlashtirgani ma'lum bo'ladi. Bilimlarni tekshirmsandan ta'lif oluvchi o'z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to'g'ri baholashga qodir emas.

Ba'zan unga go'yo u o'quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, tekshirish chog'ida esa materialni yaxshi bilmasligi, yaxshi tushunmasligi ma'lum bo'lib qoladi. Baholash natijasida, ta'lif oluvchilarning o'rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish va o'z bilimlarini tanqidiy baho berish darajalari aniqlanadi. Ta'lif oluvchi o'z bilimlarining ijobiylaysi, ta'lif muassasasida va uydagi ishining uslubini takomillashtirish, bilimlari, malaka va ko'nikmalaridagi ijobiylaysi tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda ta'lif oluvchilarning o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug'iladi. Baholash hamisha ta'lif oluvchining shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatini hosil qiladi. Ta'lif beruvchi ta'lif oluvchining o'ziga nisbatan munosabatini, tuyg'ularini, uning xarakteridagi irodalilik, hamkorlik, o'zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishga qaratilishi lozim bo'ladi.

Ba'zan baholash jarayonida ta'lif oluvchi qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalarga ham erishadi. Ta'lif jarayonida o'zlashtirmagan tushunchalarining mohiyatiga tushunib yetadi. Shu bois, baholashni ta'lif olish jarayonining davomi deb ham aytish mumkin.

Bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Baholash natijalarini umumlashtirib, ta'lif muassasasi jamoasining ta'lif-tarbiya sohasidagi faoliyatiga, talabalarning umumiyligi o'zlashtirish darajasiga baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi. Davlat ta'lif standartlarida davlat tomonidan qo'yilgan talablar nechog'lik bajarilayotganligi aniqlanadi.

Natijalarini baholash orqali bir paytning o'zida butun ta'lif tizimi va uning komponentlari tekshirilib ko'riliши kerak. Bu bilan ta'lif tizimida o'qitilayotgan natijaga erishilayotganlik darajasi tekshirilib o'lchanadi. Bilimlarni muntazam baholab borish ta'lif rejasi, uning katta-kichik bo'limlari asosida amalga oshiriladi. Ta'lif tizimi natijalari muayyan standart me'yori orqali ifodalananadi.

Baholash natijasida nafaqat ta'lif oluvchining, balki ta'lif beruvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o'quv jarayonidagi kamchiliklar ham aniqlanadi. Ta'lif vositalari, rejalar, ta'lif jarayonini tashkil etish sifatida ham baho beriladi.

Ta'lif dasturining qism bo'laklari bo'yicha muntazam baholab borish oxir-oqibat aniq va adolatli baholanishning shakllanishiga olib keladi. Kichik bo'limlar bo'yicha baholash, jamlash va umumlashtirish yakuniy baholashning aniq bo'lishiga yordam beradi.

Ta'lif oluvchini muntazam ravishda o'z natijalari to'g'risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishi va istaklarini ro'yobga chiqarishga ijobiyligi ta'sir ko'rsatadi. Ta'lif berish davomidagi nazorat natijalarini o'lchab borish bilim, ko'nikma va malakalarni baholash o'quvchining o'zligini anglashi uchun bir imkoniyatdir.

**Nazorat savollari**

1. Vaqt me'yori deganda nimani tushunasiz?
2. Vaqt me'yori va shaxsiy rejaning muvofiqlik jihatlari nimada?
3. Professor o'qituvchining yillik o'quv yuklamasini tushuntiring.
4. Yangi vaqt me'yori necha qismdan iborat va ularni izohlang.
5. Talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimlarini taqqoslang, farqli hamda ijobiy va salbiy tomonlarini aytинг.
6. O'quv uslubiy ishlar qanday to'ldiriladi?
7. Ilmiy tadqiqot ishlari qanday to'ldiriladi?
8. Professor o'qituvchi "Ustoz-shogird" ishlarini to'ldirishda nimalarga ko'proq e'tibor qaratishi kerak?

## IV BOB. MAXSUS FANLAR MASHG`ULOTLARINI O`TKAZISH USLUBIYOTI

### 4.1. Maxsus fanlarning o`ziga xos xususiyatlari

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda kadrlarni kasb-hunarga tayyorlashni mukammalashtirishning muhim shart-sharoiti zamonaviy fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlariga asoslangan ta`lim tizimini tashkil qilishdan iboratdir.

Hozirgi davrda ta`lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri o`qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va yutuqlardan keng foydalanish, ularni ta`lim tizimida joriy qilib borish hamda rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini mamlakatimiz ta`lim tizimiga tadbiq qilish muhim hisoblanadi.

Ta`lim muassasalarida malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini ko`p jihatdan Maxsus fanlarni samarali o`qitish belgilaydi. Maxsus fanlarni o`rganishda ko`proq amaliylik yuqori bo`lganligi, ishlab chiqarishga yaqinroq hisoblanganligi umumta`lim fanlaridan farqli ekanligini ko`rsatadi. Ishlab chiqarish amaliyotlari maxsus fanlar bilan o`zaro bog`liq holda olib boriladi.

Maxsus fanlardan o`qitish uslublarini tanlash va o`quv maqsadlarini belgilash ham o`ziga xoslikni talab etadi. Maxsus fanlarning yetakchi komponenti bo`lib «Faoliyat usullari» hisoblanadi. Shuning uchun ham maxsus fanlardan o`quv adabiyotlarini yaratish va shu bilan bog`liq bo`lgan ta`lim mazmunini belgilashda, o`quv jarayonini tashkil etishda, o`qitishning samarali usullarini tanlashda chuqr didaktik tahlil o`tkazish lozim.

Maxsus fanlar ishlab chiqarishning aniq sohalari bo`yicha, ularda aniq maxsus xususiyatlarini aks ettiruvchi bevosita chuqr, puxta bilimlar beruvchi, tegishli ko`nikma va malakalar hosil qiluvchi jarayonlarni qamrab oladi.

Bunday fanlar jumlasiga xalq xo`jaligining turli sohalari: qishloq xo`jaligi tarmoqlari, sanoat ishlab chiqarish korxonalari, mashinasozlik, transport, aloqa, xalq hunarmandchilik tarmoqlari, madaniyat va san`atning yo`nalishlari va boshqa sohalar bo`yicha faoliyat turlarining o`ziga xos xususiyatlarini bevosita namoyon etadigan fanlar, ularning qismlari kiradi.

Ilg`or texnologiyalar, yangi texnikalar va fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish, xalq xo`jaligi ba`zi tarmoqlarining rivojlanishigagina emas, balki barcha sohalarning (qurilish, mashinasozlik,

qishloq xo`jaligi, sanoat, aloqa, xizmat ko`rsatish va boshqa) taraqqiyotiga va boshqarish, tashkil etish, iqtisodiyotga ham sezilarli ta`sir ko`rsatadi.

Shuning uchun ham texnika va texnologiyalarning o`zgarib va yangilanib borishi har bir mutaxassisning keng dunyoqarash va chuqr bilimga ega bo`lishini, hamda bir necha xil yumushlarni bajara olishini talab etadi.

Maxsus fanlar mazmuni muayyan yo`nalish yoki ixtisoslikning tavsifiga mos tushishi, ya`ni ta`lim oluvchining egallaydigan kasbi bo`yicha bajariladigan faoliyat usullarini o`zida qamrab olishi kerak. Ta`lim oluvchilarda kasbiy-politexnik va kasbiy-texnikaviy tushunchalarni shakkantirish uchun maxsus fanning mazmunini belgilashda politexnik tamoyilga rioya qilish lozim.

Kasbiy politexnik tushunchalarga quyidagilar kiradi: ma'lum bir ishlab chiqarish sohasi bo`yicha jihozlar va uskunalar tuzilishlari, ishlashi va ularni loyihalash asoslari, ishlab chiqarish texnologiyalari, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish, kasbiy faoliyatni tashkil etishning ilmiy asoslari, soha bo`yicha mehnat faoliyatining iqtisodiy omillari va h.k.

Agar ta`lim oluvchi maxsus fan bo`yicha ko`p turdagи mashina va jihozlar turlari, ularni hisoblash, loyihalash, ta`mirlash asoslari yoki texnologik jarayonlarni o`rganishlari kerak bo`lsa, u holda o`quv materialida soha bo`yicha namunaviy mashinalar va jihozlarning tuzilishlari, ishlash tartibi yoki mavjud texnologik jarayonlar bajarilishining prinsipial sxemalari berilishi kerakki, ta`lim oluvchilar shular asosida zamonaviy mashinalar konstruksiyalarini va texnologik jarayonlarning xususiyatlarini ocha olishlari kerak.

Kasbiy-texnikaviy tushunchalarga esa aniq bir ishlab chiqarish sohasi bo`yicha texnikalar yoki texnologik jarayonlar, muayyan yo`nalish bo`yicha bo`lajak mutaxassisning mehnat faoliyati, hamda kasbiy ko`nikma va malakalar asosini tashkil etuvchi bilimlar kiradi.

Maxsus fanlar mazmun va mohiyatiga ko`ra quyidagi guruhlarga ajratiladi:

*1. O`quv materialida texnikaga bog'liq masalalar yoritilgan maxsus fanlar.* Bularga mahsulot ishlab chiqarish va mehnat jarayonida ishlatiladigan mashinalar va uskunalarning tuzilishi, ishlash prinsipi, ta`mirlanishi hamda ishlatish qoidalari, ularning konstruksiyalarini takomillashtirish, hisoblash, loyihalash, avtomatlashtirish; mehnat vositalari, moslamalar, asboblar va ular qismlarining tuzilishi; mehnat ob`ektlari hisoblangan mashina va uskunalarni o`rnatish, yig`ish, ta`mirlash,

sozlash metodlari va usullari; mexanizm va detallarni qayta tiklash hamda ta'mirlashning zamonaviy usullari, avtomatik tizimlar va eksperimental qurilmalar tuzilishlari va ishlash tartiblari yoritilgan o'quv materiallari kiradi.

2. *O'quv materiallarida mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasiga bog'liq masalalar yoritilgan maxsus fanlar.* Bularga alohida mutaxassislikning butunligini tavsiflaydigan texnologik va mehnat jarayonlari, texnologik jarayonlarni loyihalash va kompleks mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, ishlab chiqarish korxonalarini loyihalash, yangi texnologiyalarni joriy qilish va ishlab chiqish, ularni amalga oshirish, nazorat qilish va boshqarish tavsiflari; ilmiy tadqiqot ishlari va tajribalar olib borish, xavfsizlik qoidalari, ishlab chiqarish sanitariyasi va gigiyenasi hamda mehnat qonunchiligi asoslari kiradi.

3. *O'quv materialida xomashyo materiallariga bog'liq masalalarni yorituvchi maxsus fanlar.* Bularga ishlab chiqarishda qo'llaniladigan turli materiallar va xomashyolarning fizikaviy-kimyoviy xususiyatlari, mexanik-texnologik xossalari eksperimental aniqlash va tayyorlanish texnologiyasini yorituvchi o'quv materiallari kiradi. Shuningdek xomashyo materiallariga ishlov berishdagi jarayonlar, hisoblashlar va eksperimental izlanishlarni yo'naltirgan o'quv materiallarni o'z ichiga oladi.

4. *Ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va iqtisodiyot to'g'risidagi o'quv materiallarini o'zida qamrab olgan maxsus fanlar.* Ushbu guruhga barcha mutaxassislik bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlashda o'r ganiladigan (ishlab chiqarish, mehnatni tashkil etish va iqtisodiyot asoslari) o'quv materiallari, xo'jalik va ishlab chiqarishni tashkil etish, yuritish, boshqarish, axborot texnologiyalari, ilg'or uslublarni qo'llash va boshqalarni kiritish mumkin.

Maxsus fanlarni o'r ganishda chizmalar, jadvallar, hisoblashlar va o'lchashlarni o'tkazish kabi alohida ko'nikmalarni shakllantiruvchi laboratoriya – amaliy mashg'ulotlarni, texnika va texnologiyani bevosita yoki bilvosita tasavvur etishga yordamlashadigan ishlab chiqarish mashg'ulotlarini ham tashkil etishga to'g'ri keladi. Keyingi hol esa, ta'lim oluvchilardan maxsus yo'naltirilgan ixtisoslik bo'yicha ko'nikma va malakalarning ma'lum darajada shakllanganligini talab etadi.

Shuning uchun maxsus fanlar o'quv – uslubiy ta'minotini ishlab chiqish, o'quv jarayonini tashkil etishda, o'qitishning ta'limning samarali usullarini tanlashda, ta'lim mazmunini belgilashda o'ziga xos yondashuvni talab etadi.

## 4.2. Maxsus fanlarni o'qitish uslubiyotida qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot usullari

Ilmiy tadqiqotlar o'tkazishdan maqsad Maxsus fanlarni o'qitish va o'rgatish xususiyatlarini o'rganish, samarali metodlarni ishlab chiqish va amalda qo'llash, pedagogik samaradorligini aniqlash, ta'lim jarayoniga didaktik vositalarini qo'llashga doir masalalarni yechishdan iboratdir.

Ilmiy izlanishlar olib borish uchun o'qituvchidan maxsus fanning mazmunini chuqur bilish talab etiladi. Ko'pchilik bo'lajak pedagoglar talabalik davrlaridanoq pedagogik izlanishlar bilan shug'ullanadilar. Ma'lum bir maxsus fan bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, maketlar, mustaqil ishlar uchun materiallar tayyorlaydilar. Ilmiy anjuman va seminarlarda ma'ruzalari bilan qatnashib, o'zlarining pedagogik mahoratini oshirib boradilar.

Ilmiy pedagogik izlanishlar jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. O'qituvchining maxsus fanga oid adabiyotlarni o'rganishi va amaliy ishlari asosida muammoni aniqlashi.

O'qituvchi adabiyotlarni o'rganishi davomida quyidagilarni aniqlashi kerak:

- o'rganilayotgan muammo to'g'risida adabiyot muallifining fikr mulohazasi;

- o'rganilayotgan muammo to'g'risida an'anaviy metoddan farqliroq kiritgan takliflari;

- muammoni yechishda keyingi olib boriladigan izlanishlar tartibi aniqlab olinadi.

O'qitish jarayonida yuzaga keladigan muammoga quyidagilar kiradi:

- o'qituvchining dars jarayonida qanday qiyinchilikka duch kelishi;
- kamchilik va qiyinchiliklarning yuzaga kelish sabablari.

2. Farazni tuzish va o'qitishni bosqichma-bosqich tashkil etish. Dalillar va ularni taqqoslash orqali izlanuvchi asoslangan taklifni beradi.

3. Izlanish natijalarini rasmiylashtirish va o'quv jarayonida qo'llash.

Maxsus fanlarni o'qitish uslubiyatida ilmiy tadqiqotlarning umumiy va maxsus metodlari qo'llaniladi.

Umumilmiy metodlarga nazariy izlanish, kuzatish, suhbat va eksperimentlar kiradi.

*Nazariy metod* - adabiyotlardan o'rganish va tahlil qilish, hamda pedagogik tajribalar asosida olib boriladigan izlanishlar kiradi. Adabiyotlar

ustida ishlashda kitob va jurnallar, maqolalar va patentlar, ilmiy ishlanmalar, to'plamlar va kataloglar, internet tizimidan olingan ma'lumotlardan foydalaniladi.

*Kuzatish* - odatda tabiiy kuzatish orqali talabalarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning hulq-atvori va muomalalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi.

Qayd qilish usuliga qarab kuzatishlar quyidagi turlarga bo'linadi: bevosita va bilvosita.

Bevosita va bilvosita qayd qilish usuli tadqiqotchiga real pedagogik jarayon kuzatuvchilarning hatti-harakatlari va hokazolarni yozib qo'yish imkonini beradi. Bevosita qayd qilish usuli biron-bir hodisaning oqibatlari haqidagi daliliy materialni boshqa shaxslar orqali yoki qandaydir asbobni qo'llash vositasida olishga imkon beradi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti asrida kuzatishning vizual usullari xilma-xil texnika vositalari (kinofilm, videotasvir, teleko'rsatuv, kompyuterlar)ni qo'llash bilan tobora ko'p qo'llanilmoqda.

*Suhbat metodi*-so'rashning bir turi bo'lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi, chunki u shaxs bilan bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala shaklida qo'llaniladi.

Suhbat metodi-o'qituvchilar va talabalar jamoasi bilan ota-onalar va keng jamoatchilik bilan, yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Bundan tashqari, interv'yu olish metodi ham mavjud bo'lib, savollarni oldindan belgilangan izchillikda interv'yu yo'li bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnit tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so'rash nazariyasi va amaliyotida interv'yu tashkil etishning ko'p usullari mavjud:

- guruhlar bilan;
- intensiv;
- sinov va h.k.

Talabalar ijodini o'rganish – ularning o'ziga xos individual tartibdagи faoliyatlariga doir omillar tahlil qilinadi va xulosalar yasaladi.

*Pedagogik so'rash metodi*-tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror jihatni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayonidir. So'rash savollarning mantiqiy o'ylangan tizimini, ularning aniq ifodalishini, nisbatan kamligini (3-5 ta) nazarda tutadi. Shuningdek, qat'iy shakldagi javobni ("ha", "yo'q") ham taqozo etishi mumkin.

*Test, so'rovnomalar-bu so'rovnoma, ya'ni anketa usuli qo'llanilganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, talabalarning yakka yoki guruqliki fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qiziqishlarini, kelajak orzu-istiklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.*

Test savollaridan ko'zlangan maqsad oz vaqt ichida talabalarning bilimlarini yoppasiga baholashdir.

Mutaxassislarning bilimini va saviyasini aniqlash uslublaridan biri-bu test yordamidagi sinov o'tkazishdir.

Test yordamida sinov talaba yoki mutaxassisning bilimi, ilmi, ma'naviyati hamda yoshlarning qaysi yo'nalish va mutaxassislikka layoqati, iqtidorini zudlik bilan aniqlash yoki baholashga imkon beradi. Test yordamida bilimni baholashning pedagogika nuqtai nazaridan ba'zi bir yutuqlari va kamchiliklari keltirilgan va baholash jarayonini kompyuterlar yordamida avtomatlashtirish mumkinligi ta'kidlangan.

Test savollari va masalalarining jozibadorligiga sabab, uning qisqa va lo'ndaligi, to'g'ri javobning umumiy javoblar ichida borligi va ularning talabalarga ko'rsatma bo'lib xizmat qilishi, uning topishmoqli o'yinga o'xshashligi va javobni topishda xotira, intuitsiya va topqirlik qo'l keladi. Test savollarini qo'llash talabalarning mustaqil ishlashini yanada faollashtiradi.

*Test sinovlar metodi* - bu yozma javoblarni ommaviy ravishda yig'ib olish metodidir. Test sinovlarini (anketalarini) ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Pirovard natijada tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga, berilayotgan savollar shakliga, to'ldirilgan anketalar soniga bog'liq bo'ladi. Odatda test savollarining ma'lumotlari kompyuterda matematik statistika metodlari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi.

*Eksperiment – tajriba-sinov usuli*-ushbu tajriba asosida ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiqi jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

*Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usuli* – ta'lim sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag'larning doimiy o'sib borishi, darslik va o'quv qo'llanmalar, jihozlar, ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallar, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, ta'lim muassalarining qurilishi, xo'jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag'lar statistika usuli orqali aniqlanadi.

*Matematika va kibernetika usullari*-o'qitish nazariyasi, amaliyotida hisoblash matematikasi va kibernetikasi mashinalari yordamida bir tildan

ikkinchil tilga tarjima, dasturli ta'lim va uni mashina orqali boshqarish, o'qitishni mustahkamlash, baholash orqali ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, differensial va individual ta'lim berish kabi jarayonlardir.

*Sotsiologiya tadqiqot metodi*-anketaga savollar kiritiladi. Bundan maqsad talaba-yoshlarning fanga bo'lgan munosabatlarini aniqlash, talabalar orasidagi do'stlik munosabatlarini, ta'lim muassasalaridagi shart-sharoitlarni bilish, yutuq va kamchiliklarni, yoshlar orasidagi munosabatlarni, dinga xususan tasavvufga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash, talabalarning ma'naviy sifatlar darajasini, bilim olishga ishtiyoqi, adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi, o'quv taqsimoti, o'qituvchilarning o'qitish darajasi, o'quv qo'llanmalarning sifati, kompyuter bilan mashg'ulot o'tkazish turlarini o'rGANISH, ilmiy va kasbiy mahoratini oshirishdagi mashg'ulotlar turi, stipendiyalar miqdori, stipendiyalarning talabalar harajatini qanchalik qoplash, haq to'lanadigan ishlarda talabalarning qatnashishi, ota-onalarning moddiy yordami, ularning ma'lumoti, ish joyi, talabalarning ko'p shug'ullanadigan jamoat joyi, yashash joyi, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida ta'sir etuvchi omillar, mutaxassis bo'lib etishishida hal qiluvchi omillar, talabalarning onglilik darajasi jarayoni, komil inson bo'lish uchun kerakli bo'lgan ma'naviy sifatlar, o'zlashtirganlik darajasi haqidagi savollar anketaga kiritiladi. Savol-javoblarining barchasi kompyuterda qayta ishlanadi va xulosalar chiqariladi.

*Ushbu metodlardan tashqari mutaxassilik fanlarini o'qitish metodikasida maxsus empirik metodlardan foydalaniлади.*

Maxsus empirik usullaridan hodisa va jarayonlarni o'rGANISHGA yo'naltirilgan asbob uskunalar va apparatlar orqali ob'ektiv miqdoriy kattaliklarini olish maqsadida qo'llaniladi.

Tadqiqotning maxsus empirik metodlarini shartli ravishda 3 guruhga bo'lish mumkin:

1. Ish harakatlarining natijaviy tafsilotini o'rGANISH (harakatlarni aniq bajarish, sarflanadigan vaqt, ish unumi);
2. Biomexanik usullar;
3. Psixofiziologik usullar.

Ish harakatlarining natijaviy ko'rsatkichlarini aniqlash bilan bog'liq tadqiqotlarda, shu jumladan ularni o'zlashtirish jarayonida xronometraj katta rol o'yndaydi. Ish me'yori, shu jumladan ishlab chiqarish amaliyotlarining turli davrlarida vaqt me'yori, ish tartibotini aniqlash, shuningdek, harakatlarning vaqtinchalik tuzilmasini o'rGANISH,

talabalarning tayyorgarlik darajasini baholash uchun xronometrajdan foydalilaniladi.

Ish kunini tasvirga olish xronometrajning bir turi bo'lib, unda ish kuni davomida yoki ishlab chiqarish amaliyoti davridagi barcha vaqt sarflari o'lchanadi va tahlil qilinadi. Bu bilan ish vaqtining sarfi va uning sabablari, shuningdek ishni tashkil etishning holati ajratib ko'rsatiladi. Xuddi shu maqsadlarda shuningdek o'z-o'zini tasvirga olish qo'llanilib, unda talaba o'z ishini o'zi kuzatadi va olingan natijalarni maxsus kuzatish varaqasiga kiritadi.

Biomexanik metodlar – bu ish harakatining fazoviy vaqt va kuch parametrlarini o'rganishdir: ularning mukammallik darajasi, talabaning asbob, dastgoh va hokazolar bilan o'zaro kuch ta'siri, asbob va qo'l harakatining kinematikasi va boshqalar aniqlanadi.

Psixologik metodlar o'quv va mehnat faoliyati jarayoni natijasida inson organizmining turli organlari funksional holatini o'rganish uchun qo'llaniladi. Bularidan elektromiografiya, elektrokardiografiya, elektrodermografiya usullari keng qo'llaniladi.

Elektromiografiya-harakatlanuvchi muskullarning elektorik potensialini yozishdir. Istalgan muskul harakati bosh miyadan elektorik impuls ko'rinishida uzatiladigan ta'sirlar natijasida ishlaydi. Muskullarning elektorik faolligi uning qisqarish kuchini aniqlaydi. Muskullarning elektorik potensiali maxsus elektorodlar yordamida kuchaytirgichga, o'zidan-o'zi yozgichga uzatiladi va u yerda miogramma – elektrik signallarning qog'ozda yozilishi qayd qilinadi.

Elektrokardiografiya-yurak tomirlarining elektrik potensiallarini qayd qilishdir. Yurak tomirlari ham muskullar kabi bosh miyadan keluvchi elektrik signallar ta'siri ostida qisqaradi. Ularni qayd qilish elektrokardiografiya deb aytildi.

Elektrodermografiya-terining elektorik potensialini qayd qilishdir. Inson tanasidan ter oqib chiqishi ham miyaning elektrik signallari ta'siri ostida amalga oshadi. Elektrodermogramma birinchi navbatda insonning ish jarayonidagi emotsiyonal holati ko'rsatkichi hisoblanadi.

Markaziy asab tizimining funksional holatini aniqlash uslubi o'quv mehnat faoliyatining talaba organizmi holatiga ta'sirini o'rganish uchun qo'llaniladi, masalan, diqqat darajasi, ish jarayonida toliqishning rivojlanishi, mashqlar ta'siri ostida markaziy asab tizimida sodir bo'ladigan siljishlar va hokazo.

Ko`pincha shartli reaksiyalar usuli qo`llaniladi, ya`ni talabalarga nurli, tovushli yoki boshqa xildagi signallar uzatiladi. Unga javob tariqasida talaba uncha murakkab bo`lmagan qandaydir holatni amalga oshirishi kerak, masalan, tugmachani bosish. Bu harakatni bajarish vaqtি bo`yicha va xarakteri bo`yicha ushbu vaziyatda talaba markaziy asab tizimining holati va turli mezonlar ta`siri ostida undagi o`zgarishlarni aniqlashi mumkin.

#### 4.3. Maxsus fanlarni o`qitish tamoyillari

O`qitish tamoyillari -o`qitish nazariyasining boshlang`ich qoidalari bo`lib, o`qituvchi o`quv jarayonini tashkil etishda ularga amal qilishi kerak.

Ta`limda o`qitish tamoyillarining majmuasi mavjud bo`lib, ularga quyidagilar kiradi:

- faoliik tamoyili;
- o`qitishda nazariya bilan amaliyotning bog`liqligi tamoyili;
- o`qitishning tarbiyalovchi xarakteri tamoyili;
- ilmiylik tamoyili;
- o`qitishda tizimli va izchillik tamoyili;
- talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili;
- o`qitishda talabalarning ongliligi va faolligi.

Maxsus fanlarni o`qitishda ushbu tamoyillarga amal qilish tavsiya etiladi:

*Faollilik tamoyili* - talaba mustaqil tarzda o`zi harakat qilgan paytda yaxshi o`rganadi va o`zlashtiradi. Shuning uchun o`quv jarayoni shunday tashkil qilinishi kerakki, talaba ko`proq harakatlar qilishi kerak bo`lsin.

Talabalar har bir darsga faol qatnashishi kerak, chunki talaba qandaydir ish bajarishni ongлиroq ravishda o`zlashtiradi va bu bilim xotirasida chuqurroq o`rnashib qoladi. Buning natijasida talaba bilimlarni yaxshiroq va chuqurroq o`zlashtiradi va eslab qoladi hamda qiziqishi ortadi. Ba`zi bir qobiliyatlarga esa, masalan mustaqillik va individual ravishda o`rganish kabi qobiliyatlarga faqat shu tarzda erishish mumkin xolos. Buning uchun, o`qituvchi juda yaxshi uslubiy qobiliyatlarga va ko`nikmalarga ega bo`lishi kerak.

*O`qitishda nazariya bilan amaliyotning bog`liqligi* - Ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyati ehtiyojlari asosida paydo bo`lib, ana shu faoliyatga xizmat qilganligi va hayot bilan bog`langanligi sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularning mazmunini o`zlashtirib olishgina emas, balki bilimlarni amalda qo`llay bilish ham kerak.

Talabalarni amaliy faoliyatga tayyorlash nazariy bilimlarni egallahash jarayonida boshlanadi. Keyinchalik u tajriba va amaliy mashg'ulotlarda davom ettiriladi. Bu mashg'ulotlarda talabalar o'qituvchi rahbarligida tajriba sharoitida olingen bilimlarning ishonarli ekanligini tekshiradilar, bu bilimlarni mustahkamlaydilar va chuqurlashtiradilar hamda ularni amalda qo'llanish ko'nikmalari va malakalarini hosil qiladilar.

Amaliy mashg'ulotlar va ishlab chiqarish amaliyoti talabalar amaliy faoliyatining muhim bosqichidir. Ular egallab olgan nazariy bilimlari asosida tanlagan ixtisosliklariga doir mehnat ko'nikmalari va malakalarini hosil qiladilar. Shu bilan birga nazariy bilim ham to'ldirilib, konkretlashtirilib boriladi.

*Ilmiylik tamoyili* - talabalarga o'rganish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng yangi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak.

Ilmiy bilimlarni egallahash jarayonida talabalarda ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi. Har bir darsda o'qitiladigan o'quv materialining ilmiy mazmuni keng va chuqur bo'lishi va talabada nafaqat bilim, balki tafakkur hosil qilishni hamda talabaning ijodiy qobiliyatini shakllantirishi kerak. Buning uchun esa o'qituvchi o'z ilmiy saviyasini izchil ravishda oshirib borishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar kashfiyotlar va ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim. Talaba o'rganayotgan bilimlar albatta nazariy tasdiqlangan va amalda sinalgan bo'lishi kerak.

*O'qitishning tarbiyalovchi xarakteri* - o'qitish va tarbiyalash jarayonlari uzviy bir-biriga bog'liq bo'ladi. O'qitish bilim berish vazifalarini hal qilish bilan birga talabalarga juda katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. U talabalarning bilish imkoniyatlarini va ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirishga, ularning o'quv va mehnat faoliyatidagi aktivligi va mustaqilligini, bilimga qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Biroq o'qitish jarayonidagi tarbiya stixiyali ravishda amalga oshirilmaydi. Uning maqsadi, mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va talabalarga ta'sir etish samaradorligi bir qator shartlarga bog'liq bo'lib, ulardan asosiyları: o'rganayotgan fanning mazmuni, o'quv mashg'ulotlarining tashkil etilishi va metodikasi hamda bu mashg'ulotlarni o'tkazayotgan pedagogning shaxsidir.

O'quv mashg'ulotlarining to'g'ri tashkil etilishi va ularni o'tkazish metodikasi talabalarga juda katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Mashg'ulotlarda talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini egallahashga

doir individual ishlari ham, bu ishlarning guruhli ko'rinishlari ham qo'llaniladi.

Ta'lif tarbiya jarayonining mahsulligini oshirish maqsadida tarbiyaviy yo'nalishning ustuvorligini ta'minlash asosiy mezon hisoblanadi.

Tarbiya orqaligina inson o'z shaxsini etib anglaydi. O'z-o'zini anglagan kishigina o'z qobiliyatları va imkoniyatini bilgan holda ehtiyojini shakllantirish zaruratini vujudga keltiradi.

*O'qitishda tizimli va izchillik* - tizimli va izchillik tamoyili o'qitishni shunday tashkil etishni talab etadiki, bunda o'quv fanlarini o'qitish qat'iy mantiqiy tartibda olib boriladi, talabalar bilim ko'nikma hamda malakalarni izchillik bilan egallab boradilar va ayni zamonda amaliy vazifalarni hal qilish uchun ulardan foydalanishni o'rganadilar.

Tizimli va izchillik jarayoni o'quv jarayonining hamma zvenolarida amalga oshiriladi. Uning talablari darsliklar va dasturlarni tuzishda o'z aksini topadi. Ulardagi material bir qator didaktik talablar bilan belgilanadigan tizim bo'yicha joylashtiriladi.

Maxsus fani dasturida nazariy va amaliy mashg'ulotlar bir-biriga uzviy bog'lanishi kerak. Har bir darsda o'quv maqsadini aniq belgilash va belgilangan maqsadga muvofiq keluvchi mazmunini tarkib toptirish kerak. Har bir maxsus fani uchun o'quv dasturi talabiga mos holda dastavval tayanch tushunchalarni aniq belgilab olib, ularning darajasi va me'yorini aniqlash kerak.

Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan metodlarni aniq belgilab, yuqori samara beruvchi usuldan foydalanish, mashg'ulotlar davomida berilayotgan bilim va ko'nikmalarning talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini belgilovchi nazorat va tekshirishning turli usullari hamda testlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning ma'lumot darajasi oshib borishiga va rivojlanishiga qarab predmetni bayon qilishning didaktik sistemasiga fan sistemasiga to bora yaqinlashib boradi.

Mashg'ulotlarni o'tkazishda dasturga aniq rioya qilish va talabalarning darslik bilan ishlashi ularning bilimlarni muayyan sistemada o'zlashtirib olishga yordam beradi.

*O'qitishda talabalarning ongliligi va faolligi* - bu tamoyil o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda talabalar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va aktiv egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq rivojlanadigan bo'lsin.

O`qitishdagi onglilik tamoyili talabalarning o`z o`quv ishlarining konkret maqsadlarini aniq tushunishini, o`rganilayotgan fakt, hodisa, jarayonlarni va ular o`rtasidagi bog`lanishni tushungan holda o`zlashtirib olishini, olingen bilimlarni amaliy faoliyatda qo`llay bo`lishini bildiradi.

Talabalarning faolligi ularning nazariy materialni egallab olishida, laboratoriyada, ustaxona hamda ishlab chiqarish sharoitlarida o`quv mehnat topshiriqlarini bajarishda namoyon bo`ladi. Faoliylik talabalarning o`quv va mehnat faoliyatidagi mustaqilligini rivojlantirish bilan mustahkam bog`langan.

*Talabalarning individual imkoniyatlarni hisobga olish* - har bir talaba o`zining individual (jismoniy, psixik va b.) xususiyatlarga egaki, bu uning o`quv faoliyatiga katta ta`sir ko`rsatadi. Pedagogning bu xususiyatlarni o`rganishi va hisobga olishi o`qitish sifatini oshirish va har bir talabaning ijobjiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Talabaning xususiyatlarni bunday o`rganish uzoq vaqt mobaynida olib boriladi. Pedagog talabalarning darslardagi va ishlab chiqarish ta`limi vaqtida ustaxonalaragi ishini, uy vazifalarini bajarishini kuzatadi, ularning bilimi, yozma ishlari va tayyorlagan buyumlarini tekshiradi, maslahatlarda va darsdan tashqari vaqtarda ular bilan suhbatlashadi. Talabaning kuchli va ojiz tomonini bilib olishga, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, xayoliga xos bo`lgan xususiyatlarni o`rganishga, uning xarakteri va irodaviy sifatlarini yaxshi bilib olishga harakat qiladi, talabalarning hayotiy va mehnat tajribalarini, ularning kollejga kelishdan oldingi faoliyati xususiyatlarni o`rganadi.

#### 4.4. Maxsus fanlarning o`quv-uslubiy ta'minoti

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta`lim jarayoni mazmunini isloh qilish asosan me`yoriy hujjalarni majmui (Davlat ta`lim standarti, o`quv rejalarini va dasturlari) asosida kadrlarga ta`lim va tarbiya berish milliy istiqlol g`oyalariga muvofiq amalgaga oshirilishi alohida ta`kidlab o`tilgan.

Shuning uchun ham mutaxassis modelini ishlab chiqishda shaxs, davlat va jamiyatning quyidagi ehtiyoj belgilarni, ya`ni muayyan shaxs ta`lim oladigan yo`nalish bo`yicha standartlari, yo`nalishlari bo`yicha tasniflovchi talablarini e'tiborga olish zarur. Albatta, ishlab chiqilgan model bitiruvchining kasbiy-shaxsiy sifatini nazorat qilish tizimini va nazorat qilish texnologiyasini qamrab olishi kerak.

Maxsus fanlar o'quv-uslubiy ta'minotini yaratishda ta'lim jarayonini tashkil etishda, o'qitishning samarali usullarini tanlashda, ta'lim mazmunini belgilashda o'ziga xos yondashuvni talab etadi.

*Darslik* barcha ta'lim turlari va fanlar bo'yicha eng keng tarqalgan o'qitish vositasi bo'lib, o'quv-uslubiy ta'minotning yetakchi komponenti hisoblanadi. Shuning uchun maxsus fanlar bo'yicha darsliklar yaratish jarayoniga birinchi navbatda o'quv-uslubiy ta'minotini ishlab chiquvchilar jalg qilinishi kerak. Maxsus fanlardan zamonaviy o'quv-uslubiy ta'minotni ishlab chiqish uchun mutaxassislar tayyorlashda o'quv-uslubiy majmualarning hozirgi davrda qay darajada o'quv maqsadlari va vazifalariga erishishni ta'minlashini, ularni qaysi didaktik tamoyillar asosida tuzishni va ishlab chiqishni o'rganish lozim.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ta'lim oluvchilarni kasbga va mehnatga tayyorlash samaradorligi asosan o'quv-uslubiy majmuasining o'zaro bog'liq komponetlariga, ya'ni dasturdagi o'quv materialining tuzilmasiga, o'qitish metodikasiga, o'quv adabiyotlari va ko'rgazmali materiallara bog'liq bo'ladi.

Ular o'quv-uslubiy majmuasini ta'lim oluvchilarni mehnatga va kasbga tayyorlash bo'yicha o'qitish jarayonidagi funksiyalariga qarab guruhlaydilar, ya'ni me'yoriy hujjatlarga (o'quv rejasi, o'quv dasturlari); o'qitish uchun metodik materiallarga (xususiy metodikalarni ishlab chiqish, metodik jurnallar); talabalar uchun o'quv adabiyotlari (darsliklar, didaktik materiallar, tajriba va amaliy mashg'ulotlar uchun uslubiy qo'llanmalar) va ko'rgazmali materiallar (rasmlar, asl narsalar va ob'ektlar).

Tadqiqotchilar o'quv-uslubiy majmuasining asosiy zvenosi deb darslikni hisoblaydilar.

Ta'lim oluvchilarning maxsus fanidan ma'lum bir texnikaviy va texnologik topshiriqni mustaqil ravishda bajarishlari uchun ularning darsliklar, turli texnikaviy adabiyotlar, uslubiy ko'rsatmalar, chizmalar, sxemalar, mahsulotlar, xom ashyo materiallari, maketlar va jihozlar, asbob va uskunalarini o'zida qamrab olgan o'quv-uslubiy majmular bilan ta'minlanishi o'qitishni faollashtiradi va ijodiy yondashuvli ta'limni shakllantiradi.

#### 4.5. O`quv fanining o`quv uslubiy majmuasi: tuzilishi, mazmuni

O`quv-uslubiy majmua (O`UM) - to`plam sifatida emas, balki alohida komponentlarining funksiyalari jihatidan o`zaro almashinuvchanligi mumkin bo`lgan o`qitish vositalari tizimi sifatida ishlab chiqilishi kerak.

Bu – didaktik vositalarning ochiq tizimi bo`lib, darslik, o`quv va uslubiy qo`llanmalardan tashqari turli xil adabiyotlarni ham o`zida qamrab oladi. Ushbu o`quv-uslubiy majmua tuzilmasidagi invariant mazmunning tashuvchisi bo`lib, tayyorgarlik yo`nalishi bo`yicha asosiy tushunchalar va terminlarning lug`at-ma'lumotnomasi xizmat qilishi mumkin. Qolgan ma'lumot beruvchi materiallar variativ hisoblanadi.

Maxsus fanlar bo`yicha o`quv-uslubiy majmualarning asosiy qismlariga quyidagilar kiradi:

- maxsus fanning mazmunini, hajmini va o`qitish tartibini belgilovchi hujjatlar va materiallar (o`quv rejasi, o`quv dasturi, fanni o`qitish metodikasi va boshqalar);

- o`quv jarayonini nazorat qilish, mustaqil ta`lim olishni, hamda bilimlarni mustahkamlash bo`yicha materiallar va hujjatlar; o`quv uslubiy (darsliklar, mavzuiy rejalar va boshqalar), mustaqil o`rganish va bilimlarni mustahkamlash bo`yicha manbalar (mustaqil o`rganish bo`yicha kitoblar, lug`atlar, ma'lumotlar to`plami, qayta takrorlash uchun ko`rsatmalar, praktikumlar va boshqalar);

- o`quv tarbiya jarayonining texnologik jihatlarini ta`minlovchi materiallar (asl ob`ektlar va narsalar, asboblar, modellar, maketlar, plakatlar, tarqatma materiallar, kompyuter texnikalari uchun vositalar, diakino va video texnikalar);

- o`qituvchilar uchun mo`ljallangan o`quv-uslubiy materiallar.

O`quv-uslubiy majmuaga kiruvchi komponentlarning mazmuni va tarkibi o`quv predmetining turi bo`yicha aniqlanadi. Chunki o`quv predmetining turi bo`yicha zaruriy va qo`shimcha o`quv materiallari, mashqlar, topshiriqlar, mustaqil o`rganish bo`yicha materiallar turliha darajada aniqlanadi. Maxsus fanlar o`quv-uslubiy majmuasi komponentlarining va o`qitish metodikasining mazmuni ta`lim turi bo`yicha ishlab chiqilgan Davlat ta`lim standarti asosida tuzilgan o`quv dasturiga muvofiq aniqlanadi.

Maxsus fanlar o`quv uslubiy majmuasiga kiruvchi har bir o`qitish vositosi didaktik jihatdan asoslangan bo`lishi kerak. Majmuuning barcha o`qitish vositalarida asosiy tushunchalar, terminlar, shartli belgilar bir xil

bo'lishiga rioya qilinishi, hamda talabalarning maxsus fanni o'rganish bo'yicha egallashi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalarga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Maxsus fanlarni o'qitish sifatini yaxshilash uchun o'quv-uslubiy majmua tarkibiga quyidagi o'qitish vositalari kirishi kerak:

1. Asosiy o'qitish vositalari - tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha ta'lif standartlari, o'quv rejalarini va fan dasturlari, bosma va elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalar, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar;

2. Qo'shimcha o'qitish vositalari - dars jarayonini tashkil etish bo'yicha yo'riqnomalar, mashq va masalalar to'plami, plakatlar, slaydlar, elektron multimediali o'quv qo'llanmalar, nazorat va test savollari to'plami, tarqatma materiallar, nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha metodik qo'llanmalar.

3. Amaliy o'qitish vositalari-kodoskop, videoko'z, multimedia, televizor, kompyuter, laboratoriya jihozlari, maketlar, asl narsalar, mahsulotlar, mashinalar, uskunalar.

O'quv-uslubiy majmuasini yaratishda o'quv davri hajmi bo'yicha ilmiy texnikaviy topshiriqlarni ishlab chiqish, ta'lif oluvchilarning faoliyatidagi psixologik jihatlarini ham o'rganish talab qilinadi.

Maxsus fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'quv-uslubiy majmualar yordamida tashkil qilish va o'tkazish ta'lif sifatini yaxshilaydi, ta'lif oluvchilarning mashg'ulot davridagi mehnat faoliyatini tashkil qilishda, ularda ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Ta'lif maqsadlariga erishish uchun maxsus fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqishda quyidagi umumiy talablar bo'yicha komponentlarni kiritish zaruriyati aniqlandi:

- birinchidan, ta'lif muassasasida samarali o'qitishni ta'minlash uchun bilim, ko'nikma va malakalarini tizimlashtirish;

- ikkinchidan, Maxsus fanlarni kasbiy faoliyatga amaliy jihatdan yo'naltirish, qaysiki, amaliy vaziyatlarda qo'llash uchun yetarli va mustahkam bilim, hamda ko'nikmalarni ta'minlash kerak bo'ladi;

- uchinchidan, o'qitishning tarbiyalovchi, izlanuvchanlik va rivojlantiruvchi funksiyalarini kuchaytirish kerak.

Ishlab chiqilgan amaliy mashqlar va topshiriqlar tizimi ta'lif oluvchilarning ijodiy va mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi (fikrlash, taqqoslash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish va boshqalar).

- to`rtinchidan, maxsus faniga bo`lgan qiziqishni kuchaytirish. Ta`lim oluvchilarda o`rganishga bo`lgan ijobiy motivatsiyani shakllantiruvchi o`quv materiallari ishlab chiqish lozim.

Maxsus fanlar o`quv-uslubiy majmuasiga qo`yiladigan yuqorida keltirilgan talablardan tashqari, quyidagi qo`shimcha talablarni kiritish ham maqsadga erishishni osonlashtiradi. Maxsus fanlar o`quv-uslubiy majmuasida tayyorgarlik yo`nalishi va mutaxasisiligi bo`yicha ekologik, tarixiy, milliy va iqtisodiy aspektlarning yoritilishi, ta`lim oluvchilarga turli vaziyatlardagi amaliy faoliyatning modeli tavsiya qilinishi, ularning ijodiy faolligini oshirishni ta`minlashi kerak.

*O`quv-metodik majmua (O`MM)* – Davlat ta`lim standarti va fan dasturida belgilangan talabalar tomonidan egallanishi lozim bo`lgan bilim, ko`nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishni, o`quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o`rganishni hamda nazoratni amalga oshirishni ta`minlaydigan, talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo`naltirilgan o`quv-uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, elektron ta`lim resurslari, o`qitish texnologiyasi, baholash metodlari va mezonlarini o`z ichiga oladi.

Fanning o`quv-metodik majmuasi komponentlarining mazmuni Davlat ta`lim standarti asosida tuzilgan fan dasturiga muvofiq, hamda shaxsga yo`naltirilgan, rivojlantiruvchi va mustaqil ta`lim olish texnologiyalari, tamoyillari va talablarni asosida ishlab chiqiladi.

O`quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqishda yo`naltiruvchi va qiziqtiruvchi bilimlar spesifikatsiyasining yoritilishi muhim ahamiyatga ega. Bu erda biz xorijiy davlatlarda mutaxassislar tayyorlash tajribalariga e'tibor qaratadigan bo`lsak, ularda o`qitishni asosiy tashkil qilish shakllari sifatida loyihalar va modullar qo`llaniladi. Bu vositalar talabalarning mustaqil bilim olish va mehnat faoliyatiga yo`naltirilgan bo`lib, turli o`quv-moddiy bazalarda ishlab chiqiladi. Asosiy o`qitish vositasi bo`lib modulli o`quv dasturlari hisoblanadi.

Modulli o`quv dasturlar ta`lim oluvchilarning yunalishi va mutaxassisligi bo`yicha texnologik jarayonlarning bajarilishi va faoliyat usullari bo`yicha etarli bilim va ko`nikmalarga ega bo`lishlari uchun turli xildagi, hajmdagi va murakkablikdagi bilim va mehnat topshiriqlari sistemasini qamrab oladi. Faqatgina modulli o`quv dasturi o`quv-uslubiy majmuasining asosiy komponenti bo`lib xizmat qiladi va o`quv materialini uzatishning esa yetakchi vositasi hisoblanadi.

Shuning uchun ham Maxsus fanlar bo'yicha o'quv uslubiy majmuasining mazmuni mustaqil va tugallangan o'quv jarayonini belgilovchi modul yoki bo'lim ko'rinishida ishlab chiqilishi kerakligi tavsiya etiladi. Modulli tuzilmali o'quv-uslubiy majmua o'qituvchi uchun metodik apparat bo'lib xizmat qiladi, chunki o'qituvchi unga kerakli qo'shimchalar kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'quv-uslubiy majmualarni modulli tuzilmasini ishlab chiqishda ta'lim oluvchilarning individual ishlash, o'quv materialini samarali o'zlashtirish, mustaqil bilim olish va mehnat faoliyatini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarini faollashtirish kabi asosiy jihatlarga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu model bo'yicha modulli o'quv dasturida har bir faoliyat usuli bo'yicha nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan o'zaro bog'liq mavzular alohida modullarga guruhlashtiriladi. Har bir modul bo'yicha o'quv maqsadlari va mazmunlari belgilanadi. Har bir modul o'zining o'quv-uslubiy ta'minotiga ega bo'lishi kerak.

O'qitish metodikasida maxsus fanni ushbu o'quv-uslubiy majmua asosida o'qitishni tashkil etish va o'tkazish, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, talabalarning bilim, hamda ko'nikmalarini baholash metodlari beriladi.

Modulli tuzilma ko'rinishidagi o'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga tadbiq etish mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish imkonini beradi.

### Nazorat savollari

1. Maxsus fanlarning o'ziga xos xususiyatlarini sanang?
2. Mutaxasislik fanlarini o'qitish uslubiyotida qo'llaniladigan ilmiytadqiqot metodlarini izohlang.
3. Maxsus fanlarning o'quv uslubiy ta'minotiga nimalar kiradi?
4. O'quv fanining o'quv uslubiy majmuasi tarkibini taqqoslang.

## V BOB. MAXSUS FANLAR BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH USLUBIYOTI

### 5.1. Maxsus fanlar bo'yicha nazariy mashg'ulotlarni o'tkazish uslubiyoti

*Qiziqtirish (motivatsiya).* Dars talabalar bilan qiziqarli, hattoki, darsga taalluqli bo'lmanan mavzular to'g'risidagi suhbat bilan boshlanadi.

Iloji bo'lsa darsga bog'liq bo'lgan mavzular yuzasidan suhbatni boshlash kerak. Masalan, qiziqarli kashfiyat, ixtiro, yangilik yoki hikoya tanlanishi mumkin. Bularning barchasi birinchi dars mobaynida talabalarning kayfiyatiga, shu sohaga qiziqishiga yoki keyingi darslarda talabalar o'rganadigan faniga e'tiborini qaratishga yordam beradi.

Agar dars birinchi bor yangi talaba guruhida o'tilayotgan bo'lsa, o'qituvchi qisqacha o'zini tanishtirib o'tib, talabalarga ham o'zlarini tanishtirish imkoniyatini berish kerak. Bu talabalarda ishonch tug'diradi, talabalar o'zlariga bildirilayotgan hurmatni his qiladilar. Ta'riflangan va tanlangan o'qitish fanlarini va modullari asosida nazariy fan maqsadini bayon etish orqali motivatsiya va muayyan mavzuga kirish amalga oshiriladi. Ichki va tashqi motivatsiya uchun sabab va argumentlar topishga harakat qilish lozim. Motivatsiya qilish bilan o'qish va o'rganishga bo'lgan tayyorlik uchun shart-sharoit yaratiladi.

*Ma'lumot va bilim berish.* So'ngra o'qituvchi talabalarga kasbiy soha bo'yicha yangi materialni tushuntiradi, qisqa ma'ruzalar o'qiydi, munozaralar uyushtiradi, o'quv suhbatlari, o'zin-mashg'ulotlari va muammolarni hal qilish haqida suhbatlar o'tkazadi. Keyingi darslarda yangi mavzuni boshlashdan avval o'tilgan mavzular qisqacha, umumlashtirilgan holda qaytarilishi kerak.

Talabalarga mavzularga mos tarqatma materiallar tarqatilishi lozim. Bu o'quv jarayonini engillashtiradi. Mavzuga kirilmay turib, tarqatma materiallar tarqatilmaydi. Ularni mavzuga monand ravishda birin-ketin tarqatish, ularni qo'yib chiqish uchun etarli daqiqalar berish va talabalar e'tiborini axborotga qaratish uchun ovoz chiqarib o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

*O'zlashtirilgan bilimlarni qayta ishlash uchun topshiriqlar berish.*

Talabalarga tafakkur qilish va qayta ishslash imkoniyatini yaratuvchi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilimlarni faol ravishda qayta ishlab borish uchun zarurdir. Ular bilimlarni qabul qilishning nisbiy passiv fazasidan

so'ng aktiv faza kelishi uchun imkoniyat yaratib beradi. Guruhlarda ishlash yoki mustaqil ravishda topshiriqlarni echish va natijalarni taqdim etish samarali o'qitish usullaridan hisoblanadi.

*Tahlil va sintezlar.* Mavzu tahlili orqali mavjud vaziyat elementlari alohida ko'rib chiqilishi mumkin. Shu o'rinda alohida xususiyatlар muhokama etilishi mumkin.

Mazkur xususiyatlarni bir butun qilib sintezlash to'g'ri tasavvur hosil qilish va aloqadorlikni aniqlash imkonini beradi. Bu erda gap bilimning aloqadorlik darajalarini aniqlash to'g'risida boradi. Amaliyotga yaqinlashish va o'zlashtirilgan bilimlarni kelajakda ishlatish uchun sintez orqali boshqa ilm-fan sohalari bilan bog'lab amalga oshiriladi.

*Baholash.* Har bir topshiriq yoki mashqdan keyin talabalar o'zlarini bajargan ishlarni baholashlari lozim. Boshqa bir imkoniyat esa natijalarni guruhlarda ochiq-oydin va samimiyligi muhokama qilishdan iboratdir. O'quv fani yakunida yakuniy suhbat uchun vaqt ajratilishi kerak. Bu esa o'z navbatida talabalarning natijalari, ularning amalga oshgan va oshmagani ishlari, shuningdek, o'qituvchilarning o'z natijalari yuzasidan mulohaza yuritishlari uchun yaxshi imkoniyatdir.

Maxsus fanlardan amaliy mashg'ulotlarga atroficha tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish lozim.

Ba'zi hollarda amaliy mashg'ulot nazariy darsga ulanib ketishi mumkin. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishning turli qoidalari mavjud bo'lib biz bevosita va bilvosita olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar to'g'risida to'xtalamiz. Bevosita boshqariladigan amaliy mashg'ulotlarda ma'ruzalar, taqdimotlar va namoyishlardan foydalaniladi. Bularga sxemalar, prospektlar, videotasvirlar, jihozlarning maketlari va asl namunalari kiradi. Yaxshi ishlab chiqilgan o'quv materialini talabalar diqqat bilan tinglab, kuzatadilar. Agar mashg'ulotlar savol va javoblarga asoslangan o'quv suhbatlari, muammoni muhokama qilish doirasida olib borilsa, yaxshi samara beradi.

Bilvosita olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar asosan o'quvchilarga yo'naltirilgan mashg'ulot bo'lib, unga tayyorlangan topshiriqlar vositasida matnli kitoblarni o'qish, mustaqil o'rganish orqali o'yin-mashg'ulot olib borish, biror vaziyatni o'rganish, talabaning o'zi mustaqil o'rganishiga tutki berish, bilimlarni o'zlashtirishga tutki berish kabilalar kiradi.

Jarayonga yo'naltirilgan mashg'ulotlarga davra suhbat, guruhiy munozara olib borish, moderatsiya usullari kiradi.

Talabalar dastlab laboratoriyalar va ishlab chiqarish sharoitlari bilan tanishtiriladi. Bir paytning o'zida to'g'ri va atrof-muhitga ta'sir etmaydigan faoliyat, mehnat xavfsizligi qoidalari, sog'liqni saqlash va energiyani tejab ishlatish haqida xabardor qilinadi.

Mehnat xavfsizligi qoidalariга baxtsiz hodisalar va ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etuvchi holatlarning oldini olish borasidagi hatti-harakatlar kiradi. Bularga ish o'mida shaxsiy xavfsizlik, himoya vositalari va mexanizmlardan to'g'ri foydalanish, yong'inni oldini olish choralar, olov o'chiruvchi moslamalar kiradi.

Ko'p hollarda mehnat xavfsizligi qoidalari tushuntirishlari ish bilan bog'liq ravishda olib boriladi.

## **5.2. Talabalar mustaqil ishlari (kurs ishlari, loyiha va bitiruv malakaviy ishlari), malakaviy amaliyotini tashkil etish uslubiyoti**

Ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishdan asosiy maqsad:

- o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarни shakllantirish va rivojlantirishdir;
- talabalarda dialektik dunyoqarashni tarkib toptirish;
- talabalarning o'quv-bilish faolligi va mustaqilligini tarkib toptirish;
- ta'lim-tarbiya jarayonini maqbulashtirish;
- ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning birligini ta'minlash;
- predmetlararo aloqadorliqni ta'minlash;
- ta'lim va tarbiya jarayonini individuallashtirish;
- tahsil oluvchilarda mehnatga va jamoat mulkiga ongli munosabatni tarkib toptirish;
- fan-teknika taraqqiyotini jadallashtirish talablari asosida maxsus tayyorgarlikni takomillashtirish;
- fanlarning majmuaviy uslubiy ta'minlanishi;
- darsning samaradorligini oshirish yo'llari;
- yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish;
- ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish.

Talabaning mustaqil ishi o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi bo'lib, u uslubiy va axborot resurslari jihatidan ta'minlanadi hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi

Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar bilan ishlash;
- internet tarmog'idan ratsional yechimni belgilash;
- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashish;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish.

*Mustaqil ishlar shakllari.* Talaba mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlari, shuningdek har bir talabaning o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- seminarlar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish;
- loyihalar va amaliy topshiriqlarni bajarish;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimlarini topish;
- maket, model va namunalar yaratish;
- hisoblashlar va grafik ishlarni bajarish;
- berilgan mavzu bo'yicha kompyuterlardan kerakli ma'lumotlarni mustaqil izlab topish va referat tayyorlash;
- elektron darsliklardan foydalanib topshiriqlarni bajarish.

O'qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, mustaqil ishni tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanilishi mumkin. Fan dasturlarida mustaqil ishlarning shakli, mazmuni va hajmi ifoda etiladi.

Mustaqil ish uchun ajratilgan vaqt byudjetiga mos ravishda har bir fan bo'yicha tegishli bo'limlarda mustaqil ishning tashkiliy shakllari, savollar va topshiriqlar majmui ishlab chiqiladi.

Mustaqil ishni bajarish uchun fanlar bo'yicha talabalarga zaruriy uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Og'zaki mustaqil topshiriqlar:

- darslik bo'yicha materialni o'rganish va takrorlash, chizmalar va sxemalarni o'qish, turli texnik adabiyotlar hujjatlar va materiallarni o'rganish asosida o'qituvchi savollariga javob tayyorlash, ishlab chiqarish faoliyati tahlili kabilar kiradi. Materiallarni anglab mustahkamlash va yodlashga mo'ljallangan.

Yozma mustaqil topshiriqlar:

- hisoblash uchun berilgan vazifalarni bajarish, umumlashtiruvchi va takrorlanuvchi jadvallarni to'ldirish, texnologik xaritalarni ishlab chiqish, laboratoriya, amaliy ishlar to'g'risida hisobotlar tuzish va shunga o'xhash vazifalarni o'z ichiga oladi.

Grafik mustaqil topshiriqlar:

- ularga turli chizmachilik ishlarini eskizlashtirish, kesmalar va kesishmalarni tasvirlash, ayrim detal va tugunlarni chizib ko'rsatish va x.k., sxemalar, grafiklar, diagrammalarni tuzish, kuzatish natijalarini tasvirlash va shunga o'xhash vazifalarni o'z ichiga oladi.

Amaliy xarakterdagi mustaqil topshiriqlar:

- talabalar o'qituvchi topshirig'i asosida mustaqil ishni bajarish jarayonida ma'lum detal tayyorlash, tugun va mexanizmlarni yig'ish, texnik jarayonlarni ishlab chiqadilar. Ushbu ishlarni bajarganda talabalar asbob-uskunalarni tanlash, ishlov berish rejasini aniqlash va hisoblash, yangi moslamalarni loyihalash, maket va modellar, namunalar kabi ishlarni amalga oshiradilar.

*Mustaqil ish topshiriqlarini ishlab chiqish.* Har bir fan bo'yicha talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish yuklamasi o'qituvchi shaxsiy ish rejasida qayd etiladi.

Talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish kafedrada tuzilgan, kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadigan maslahatlar jadvali asosida amalga oshiriladi.

Talabaning mustaqil ishi bo'yicha maslahat soatlari guruh jurnalida qayd etilib boriladi.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Talabaning mustaqil ishi, muayyan fan o'quv dasturida ajratilgan soatlarga mos baholanadi va natijasi bo'yicha talabaning umumiy bahosiga kiritiladi.

Talabaning o'zlashtirish ko'rsatkichlari, shu jumladan mustaqil ishi bo'yicha olgan baholari guruh baholash oynasida yoritib boriladi.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari tegishli kafedra tomonidan belgilanadi. Mustaqil ishlarni baholash mezonlari talabalarga o'quv yili (semestri) boshlanishi oldidan uslubiy materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

Fanlar kesimida talabalarning mustaqil ishlari bo'yicha o'zlashtirishi muntazam ravishda guruhlarda, kafedra yig'ilishlari, fakultet kengashida muhokama etib boriladi.

Talabaning mustaqil ishi bo'yicha bajargan ishlari (hisobot, referat, hisoblashlar va h.k) ro'yxatga olinadi va o'quv yili mobaynida saqlanadi.

Yuqori darajada baholangan talabalarning mustaqil ishlari ma'naviy va moddiy jihatdan rag'batlantiriladi.

Ta'lif muassasalarida mustaqil ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun rahbariyat va o'qituvchilar ayni vaqtida ham yaxshi pedagog, ham maxsus sirlarini yaxshi biladigan mutaxassislar bo'lishi kerak.

Ta'lif muassasalarida mustaqil ishlarni samarali tashkil etish uchun quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratish kerak:

- talabalarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash mazmuni, shakl, metod va vositalarni takomillashtirish;
- ta'lif, tarbiya va rivojlantirish maqsadlarining birligi, umumilmiy, umumkasbiy va maxsus tayyorgarlikning uzviyligini ta'minlash;
- ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini, fan va texnika yutuqlarini o'rghanish, umumlashtirish hamda ta'lif-tarbiya jarayoniga joriy etishdan iborat.

Mustaqil ishlarda ishtirok etish ta'lif muassasalaridagi barcha rahbarlar, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglar uchun majburiy bo'lib, ularning pedagogik faoliyatini ajralmas qismi hisoblanadi.

Mustaqil ishni baholash mezonlari ta'lif yo'nalishlari va Maxsus fanlarning xususiyatlaridan kelib chiqib alohida tuzilishi mumkin.

*Umumiy mezonlar quyidagicha:*

O'zlashtirish ko'rsatkichi 86-100 % baho bo'lganda:

- fan o'quv dasturiga kiritilgan mavzular bo'yicha mustaqil ish materiallarini to'liq o'zlashtirganda, o'z xatolarini talaba o'zi tuzata bilgan holda;

- fanga qiziqishi, yaratuvchanligi, yangi texnika-texnologiyalarga intilishi, murakkab topshiriqlarni bajarishga harakatlanganligi.

O'zlashtirish ko'rsatkichi 71-85 % ball beriladi:

- fanni o'quv dasturiga kiritilgan mavzular bo'yicha mustaqil ish materiallarini to'liq izoxlab bergen, ba'zi ahamiyatga ega bo'limgan xatolarga yo'l qo'yan va bu xatoliklarni o'qituvchi ko'rsatmasi asosida tuzata olgan holda.

- fanga qiziqish, yangi texnika-texnologiyalarga qiziqishni namoyon etishi, murakkab topshiriqlarni bajarishga intilishiga.

O'zlashtirish ko'rsatkichi 55-70 % ball beriladi:

- fanni o'quv dasturiga kiritilgan mavzular bo'yicha mustaqil ish materiallarini to'liq izohlamagan, fanni boshqa qismlarini o'rganishga xalaqit bermaydigan ayrim axamiyatga ega bo'limgan xatoliklarga yo'l qo'yan va bu xatoliklarni o'qituvchi yordamida tuzatilgan hollarda;

- fanni o'rganishda yangi texnika-texnologiyalarga qiziqishi passivligi, murakkab topshiriqlarni bajarishga intilishi yo'qligi.

O'zlashtirish ko'rsatkichi 55 % bahodan past bo'lganda:

- o'quv dasturiga kirgan mavzular bo'yicha mustaqil ish materiallarini to'liq bilmagan, tizimlashtirilmagan va tuzatib bo'lmaydigan xatoliklarga yo'l qo'yan holda.

### **5.3. O'qitish jarayonini tashkil etishga dastlabki tayyorgarlik**

O'qituvchining mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonining ma'lum jihatlariga tayyorgarlik ko'rishi va moslashishi muhim ma'lumotlarni inobatga olishi orqali amalgalash oshiriladi.

Talabalar holatiga baho berish, ta'lif sharoitlari bilan tanishish, maxsus sohani yaxshi bilish-bularning hammasi nazariy va amaliy mashg'ulotga tegishli ilk shart-sharoitlar haqidagi ma'lumotlar sanaladi.

Nazariy va amaliy mashg'ulotlar shart-sharoitlarini quyidagi 3ta tahlil yo'llari orqali aniqlash mumkin:

- talabalar tahlili (talabalarga qaratilgan);

- shart-sharoit tahlili (o'qitish holatiga qaratilgan);

- maxsus soha tahlili (o'quv materialiga qaratilgan).

Talabaning o'qishga bo'lgan ehtiyoji o'qituvchi tomonidan qondirilishi lozim. Bu talabaning kelajak kasbiy faoliyatni uchun kerakli bilim, ko'nikmalarni rivojlantirishga va hulqini yaxshilashga lozim bo'lgan ehtiyojdir. O'qituvchiga qo'yiladigan talab ham mashg'ulotlar davomida uning o'zi e'tiborni eng yaxshi natijalarga erishishiga qaratilishi lozim.

Uning mashg'ulotlari samarali, sifatli va har bir o'quv jarayoniga iloji boricha moslashtirilgan bo'lishi kerak. Ko'pchilik hollarda o'qituvchi mashg'ulotlarining sifati talaba o'zlashtirgan bilimlarni baholash bilan o'lchaydi.

O'qituvchining samarali mashg'ulot o'tkazishi puxta tayyorgarlikni talab etadi.

Tahlil orqali o'qituvchi talabalar guruhi to'g'risida muayyan ma'lumotlarga ega bo'ladi. Tahlil kamida birinchi dars yoki mashg'ulotdan oldin ro'yxat shaklida yozma tayyorlanishi lozim. Agar o'qituvchi shundan so'ng guruhi bilan tanishib olsa, u holda keyingi mashg'ulotlarda talabalar tahlilini o'tkazmasa ham bo'ladi. O'qituvchi bu ma'lumotlardan talabalar guruhi bilan shaxsan tanishish uchun foydalanadi. Chunki talabalar dars amaliy mashg'ulotlar paytida ilk bilimlari va allaqachon mavjud bo'lgan tajribalarini qo'llaydilar, shu bilan birga o'z ishonchlarini ham ifoda etadilar.

Ularning o'qishga bo'lgan qobiliyatları, shaxsiy holatlari, jinsi va yoshlari ta'lim holatiga muayyan ta'sir ko'rsatadi. Har bir inson va har bir talabalar guruhi turlicha bo'lgani kabi doimo yangi holatlar yuzaga keladi. Ular esa o'z navbatida o'qituvchi tomonidan o'zlashtirilmog'i lozimdir.

Talabalar guruhidagi asosiy holat guruhdagi har bir talabaning hulqiga ta'sir qiladi. Agar talabalar tahlili o'tkazilmagan bo'lsa, u holda, ayniqsa, muammoli vaziyatlarda notug'ri baholashga olib kelishi mumkin.

Talabalar tahlili uchun quyidagi muhim ko'rsatkichlar e'tiborga olinadi:

1. Maxsus soha yoki kurs borasidagi ma'lumotlar;
2. Bir guruhdagi talabalar soni;
3. Talabalarning o'rtacha yoshi (eng yosh-eng katta talaba);
4. Jinsga ko'ra taqsimlash (o'g'il-qiz bolalar soni);
5. Talabalarning ta'lim darajasi (bitirgan maktabi);
6. Bungacha bitirgan maxsus sohasi yoki kurslari;
7. Til bilimlari (masalan, biror chet tili bo'yicha bilimlari);
8. Individual maxsus shart-sharoitlar (masalan, nogironlik);
9. Oilaviy sharoiti;

10. Qiziqishlari, bo'sh vaqtida o'zini tutishi;
11. Kelajakda kim bo'lmoqchi ekanligi;
12. Ba'zi talabalarning alohida e'tiborga sazovor muvaffaqiyatlari;
13. Guruhdagi o'rinni (yetakchilik, ierarxiyadagi o'rinni, "el qatori").

Bu tahlil mashg'ulotlarni olib borish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni tashkil etish va yaratish borasidagi muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Ma'lumotlar nazariy va amaliy mashg'ulotlar rejasiga qo'shib qo'yildi.

Huquqiy shart-sharoitlar ta'lim jarayoniga taalluqli bo'lgan o'quv rejasiga va boshqa rasmiy reja hujjatlari bilan bog'liqdir.

Quyidagilar kiradi:

- kasbiy yo`nalish yoki mutaxassislik o'quv reja guruhi;
- o'quv rejasiga mos fan dasturi;
- o'quv rejasiga mos ta'lim kursi;
- mavzu, amaliy ko'nikmalar;
- bilim va ko'nikmalarni baholash mezonlari.

Bu orqali kutilgan va rasmiy reja hujjatlarida oldindan belgilab qo'yilgan mavzular o'rgatilishi ta'minlab berilishi kerak.

Tashkiliy shart-sharoitlar mutaxassislik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilish borasidagi quyidagi zaruriy talablar kiradi:

- o'qitish joyini tanlash;
- dars va amaliy mashg'ulotlar vaqtini va davom etishini;
- amaliy namoyishlarga tayyorgarlik ko'rishi;
- tashkiliy hujjatlar va ish joyini tayyorlash.

Texnik shart-sharoitlarga fan bo'yicha jiddlar va moslamalar, yordamchi audiovizual vositalar, o'qitish va o'rganish vositalari (doska, flipchart, proektor, videomagnitafon)ning mavjudligi va ularning yaroqliligi, shuningdek, elektor toki, suv, havo bosimi va hokazolarning borligi bilan uzviy bog'liqdir. Amaliyot o'qituvchisi zaruriy shart-sharoitlar mavjudligiga va texnik moslamalarni istalgan paytda ishlatish mumkinligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Agar amaliyot o'qituvchisi o'quv faoliyatida ilk marotaba dars o'tkazishga tayyorlanayotgan bo'lsa, u holda u o'zi dars bermoqchi bo'lgan maxsus sohaning umumiyligi qamrovi va mazmuniy tarkibiy qismining elementlari borasida tasavvurga ega bo'lishi lozim. Ushbu tasavvursiz amaliyot o'qituvchisi na vaqtinchalik umumiyligi reja va na davriy va na mazmuniy batafsil reja tuza oladi.

Birinchi bosqich maxsus soha maqsadlariga nazar tashlashdan boshlanadi. Maqsadlar asosida mazmunlar tanlanadi. Umuman olganda, mazmunlarni turli manbalardan olish mumkin, masalan:

- maxsus kitoblar yoki o'quv adabiyotlaridan;
- texnik adabiyotlardan (ilmiy texnikaviy jurnallar, maxsus maqolalar patentlar va hokazolardan;
- mashina va moslamalardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalardan.

Biror maxsus soha bo'yicha umumiy tasavvurga ega bo'lishning yaxshi metodlaridan biri bu maxsus soha tahlilini o'quv kitobi asosida grafik tasvirlar shaklida ishlab chiqishdir. Bu metod soha yoki mazmun tuzilmasi deb ham ataladi.

Mavjud bo'lgan va yaxshi qismlarga bo'lingan kitobning bo'limlariga asoslanish ham mumkin. Bunda avvalo aniqlik tamoyiliga rioya etiladi.

Ko'pincha shunday bilim asoslari yuzaga keladiki, ularni bir-biridan aniq ajratgan holda tasvirlash mumkin bo'ladi. Maxsus kitoblarda bob va mavzularga bo'lish, o'quv qo'llanmalarda esa o'r ganish bosqichlari va modullarga bo'lish kabi yordamlar mavjuddir.

Mazmuniy tuzilmasini ishlab chiqishda maxsus soha mohiyatan qismlarga, katta mavzu va kichik mavzu sohalariga, shuningdek, mantiqiy aloqadorlik sohalariga bo'linadi. Muhim mavzular ta'kidlanadi, ikkinchi darajalilari esa quyiroqdan joy oladi.

Aksariyat hollarda maxsus sohalar nazariy bilimlarni berish borasida dalillar, tushunchalar, tamoyillar va usullarning qat'iy mantiqiy ketma-ketligi asosida ishlab chiqiladi. Masalan, maxsus o'quv kitobini qismlarga bo'lish mantiqqa asoslanadi. Unga ko'ra mavzular muayyan ketma-ketlikda joylashtiriladi.

Nazariy darslar ham mana shunday maxsus mantiqiy ketma-ketlik asosida olib borilishi mumkin.

Ko'pincha mavzuviy jihatlarni toplash bilan boshlanadigan quyidagi bosqichlar bu borada yordam beradi:

1. Mavzu doirasidagi o'rgatiladigan dalillar;
2. Dalillar bilan bog'liq tushunchalar;
3. Dalillarni o'zaro bog'laydigan tamoyillar (funksional aloqadorlik, qoidalar);
4. O'rgatiladigan usullar (mehnat jarayonlari, amallar).

Biz bu yerda bilim, qobiliyat va ko'nikmalarga qisqacha to'xtalamiz. Bilim o'zlashtirilgan va xotirada saqlangan ma'lumotlar bo'lib, uni tez va aniq biror holatga mos ravishda ishlatish mumkin.

Bilim bilan birga qobiliyat, ko`nikmalar va hulq ham o`rganiladi;

Qobiliyat va ko`nikmalar-bu talabalar muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishi uchun shart-sharoitlar yaratib beruvchi, tashqaridan kuzatish mumkin bo`lgan harakatlar va ta'sirlar hisoblanadi.

Ko`nikmalar ongli ravishda amalga oshirilgan faoliyatning tarkibiy qismiga kiruvchi avtomatik tarzda yuz beradigan harakatlardir.

Qobiliyat va ko`nikmalarga kognitiv va psixomotorik o`rganish sohasida quyidagicha ta`rif beriladi.

Bu insonning o`z atrof-muhitiga faoliyat orqali munosabatda bo`lishidir, bunda-kuzatsa bo`ladigan va kuzatsa bo`lmaydigan-ichki munosabat, shaxsiy tajriba va qadriyatlar, e'tiqod, hissiyot va mayllar muhim o`rin tutadi.

Amaliy ta`lim qismiga ta'lluqli maxsus sohani tahlil qilish mehnatni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi, chunki bunday ta`lim qismlari kasbiy-mantiqiy emas, balki harakatlarga yo`nalgan tarzda kechadi. Ko`pincha o`z sohasini a`lo darajada egallagan mutaxassislardan misol uchun biror ish tartibini tushuntirib berish so`ralsa, ular ko`pincha sergaklik bilan tushuntirishni boshlaydilar, ikkinchi darajali masalalarga to`xtalib, qisqa va lo`nda tushuntirib bera olmaydilar.

Muhim bandlar ko`pincha ko`rsatilmay qolib ketadi. O`qituvchi bilimni talabalar tomonidan o`rganilishi mumkin bo`lgan holatda berishi lozim. Unga ishonib topshirilgan mehnat predmeti odatlar doirasidan chiqarilib, talaba ongiga kiritilishi kerak. So`ngra bilim shunday aniq tahlil qilib berilsinki, uni talaba oz miqdordagi bosqichlarni o`tgan holda tizimli tarzda o`rganib olsin.

Amaliy mashg`ulot uchun mo`ljallangan ta`lim hujjatlari asosan harakatlarga yo`naltirilgan tarzda tuziladi. Ular misol uchun ma'lum bir tayyorlash jarayonidagi bajariladigan amallar va bosqichlarga asoslanadilar. Shundan kelib chiqqan holda maxsus sohani tahlil qilish kasbiy tahlil xarakteriga ega bo`ladi. Amaliyot bosqichlari ham kasbiy tahlil asosida amalga oshiriladi.

Bunda biror ish, biror jarayon yoki amal harakatlar ketma-ketligi asosida bajariladi, masalan:

- biror ish bajarishdagi bosqichlar ketma-ketligi;
- mahsulotni tayyorlash pog`onalari;
- rejalashtirish va tashkillashtirishdagi harakatlar.

Texnologik jihozlarni ishlatish ko`rsatmalari yoki ma'lum amaliy ko`nikma uchun ishning borishini, mehnatni boskichlarga bo`lish borasidagi namuna sifatida keltirish mumkin:

Amaliy mashg'ulot ish jarayoni to`g`risidagi texnik bilim asosida amalga oshiriladigan muayyan bosqichlariga bog`liq bo`ladi.

Maxsus sohani o`zlashtirish yuzasidan quyidagi xulosalarni berish mumkin.

O`qituvchi talaba uchun nafaqat maxsus soha bo`yicha barcha zarur bilim va tajribalarga, balki boshqa sohalar bo`yicha ham chuqur bilimlarga va ularni talabaga etkazishda turli qiziqarli o`yinlar va usullarga ega bo`lgan shaxs sifatida namoyon bo`ladi. Bu orqali uning talabalar oldidagi obro`e'tibori shakllanadi.

Shuning uchun o`qituvchidan doimiy o`zi ustida ishlashi va "har sohadan xabardor" bo`lishi talab etiladi.

O`qitish faoliyatining amaliy qismini o`zlashtirib olishi uchun talabalar amalga oshirishi kerak bo`lgan barcha mashqlarni o`zi ham yaxshi o`zlashtirgan bo`lishi kerak. Muammoli vaziyatlarni bilish va bu borada maslahat bera olish uchun u vaqtiga vaqtiga bilan ushbu amaliy mashqlarni qaytarib turishi lozim.

O`qituvchi nazariy bilimlar yuzasidan esa maxsus soha bo`yicha yangi adabiyotlarga ega bo`lishi va ko`p o`qish uchun o`zida turki, shuningdek, qiziqish his etishi kerak.

Buning uchun o`qituvchiga quyidagi tavsiya etiladi:

- iloji boricha o`z sohasi yoki mavzusiga tegishli bo`lgan barcha kitob, nashrilar, jurnallarni to`plab borish;
- kutubxonadagi kitobning muhim betlaridan nusxa olish;
- boshqa hamkasblari tajribalarini o`rganish;
- muayyan mavzuga tegishli qisqa tushuntirishlar bilan berilgan manbalar majmuasini to`plash.

#### **5.4. Maxsus fanlarning o`quv maqsadini va mazmunini belgilash**

*O`quv maqsadlari.* O`quv maqsadlari ta`lim jarayoni oxirida kutilayotgan natijaning yozma tavsifidan iborat. Ma'lumki, jonli ta`lim jarayonida ikki tomon: ta`lim oluvchi va ta`lim beruvchi ishtirok etadi. Ta`lim oluvchilar bu o`rganuvchi talaba yoki tinglovchilardir. O`quv maqsadlari ta`lim jarayoni ishtirokchilarining qaysi biri tomonidan qaralishiga qarab, o`rganish va o`rgatish maqsadlariga ajratiladi. An'anaviy ta`limda odatda o`quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalanadi.

Bunda pedagog tomonidan maqsadning qo'yilishi o'z faoliyatiga qaratilgan bo'lib, bu bilan ta'lif jarayonining aniq maqsadlariga erishganligini aniqlab bo'lmaydi. Chunki, ta'lif jarayoni natijasida, ta'lif oluvchi ya'ni o'rganuvchining nimaga erishgani emas, balki ta'lif oluvchi ya'ni o'rganuvchining nimaga erishishi muhim bo'lgani uchun, kelgusida o'quv maqsadlari deganda o'rganish maqsadlarini tushunamiz.

Zamonaviy o'quv maqsadlarini belgilash usuli o'ziga xos xususiyatga ega. Bu shundan iboratki, o'quv maqsadlari (o'quv vazifalari deb ham ataladi) talabalar harakatida ifodalanadigan va aniq ko'rindigan, hamda o'lchanadigan natijalar orqali belgilanadi. O'quv maqsadlarini o'lhash, aniqlash, o'qitishni qayta takrorlash imkoniga ega bo'lish uchun har bir maqsadga erishish mezoni ishlab chiqilishi kerak, yani ta'lif maqsadi shunday qo'yilishi kerakki, unga erishganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo'lsin.

O'quv maqsadlari bu-muayyan ta'lif jarayoni yakunida ta'lif oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, ya'ni hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, hatti-harakat bilan bog'liq bo'lgan amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va hulqni belgilaydi.

Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, o'quv maqsadlari oldindan ko'zlangan yakuniy natijalar tavsifidir. Uni to'g'ri tanlash ta'lif jarayoni uchun o'ta muhimdir. Buni quyidagi ibora yordamida yaxshiroq tushunsa bo'ladi: «Qaerga borishni, oxirgi manzilini bilmasdan turib safarga otlanishdan hech qanday ma'nova naf yo'q».

Nazariy dars va amaliy mashg'ulotlarning maqsadlari aniq bo'lgan taqdirdagina, ularning mazmunini belgilash va ularning didaktik nuqtai nazardan ishlab chiqishga kirishish mumkin. Shu bois, mutaxassislik fanlari o'qituvchilari uchun o'quv maqsadlarini bilish, to'g'ri qo'ya olish va tanlash ko'nikmalariga ega bo'lish-ta'lif jarayonida juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir nazariy dars va amaliy mashg'ulotning o'quv maqsadlari oldindan aniqlanishi lozim. Aniqlangan o'quv maqsadlari, dars mazmuni bo'yicha qaysi nazariy materiallarni tanlash, uni o'tkazish bo'yicha qanday metodik va didaktik resurslardan foydalanish lozimligini belgilab beradi. Shunday qilib, har qanday ta'lif jarayoniga o'quv maqsadlari ta'lif mazmuni, metodlari va vositalarni belgilab berar ekan.

*Yo'naltiruvchi, umumiy va aniq maqsadlar.* O'quv maqsadlari ta'lif jarayonining ko'lamiga ko'ra turlicha tarzda ifodalanishi mumkin. O'quv maqsadlari, pastdan yuqoriga qarab:

- alohida olingan bitta darsning maqsadi;
- fanning biror bo'limini (faoliyat usuli bo'yicha o'quv materialini) o'rghanishning o'quv maqsadlari;
- butun bir fanni o'rghanishning o'quv maqsadlari;
- biror bir fanning modulini o'rghanishdan ko'zlangan o'quv maqsadlari;
- butun bir mutaxassislikni egallash bo'yicha o'quv maqsadlariga bo'linadi.

Kichik ko'lama (alohida dars, fanning bir bo'limi uchun) maqsadlar aniq-qo'yilsa, ko'lam kattalashgan sari (modulni o'rghanish, mutaxassislikni egallash uchun) o'quv maqsadi umumlashtirib boriladi. O'quv maqsadlari qamrov ko'lama qarab uch xil turga ajratiladi:

*1) Yo'naltiruvchi maqsadlar.* Yo'naltiruvchi maqsadlar eng katta ko'lamdag'i ta'l'm jarayonining maqsadlarini belgilaydi. Masalan, biror mutaxassislikni egallash bo'yicha o'quv maqsadlari. Odatda davlat ta'l'm standartlarida o'z aksini topadi va me'yoriy hujjat hisoblanadi. Ular ta'l'm jarayoniga qo'yilgan umumiyl talablarni aniqlaydi va uning umumiyl yo'nalishini belgilab beradi.

Umumiyl maqsadlar. Umumiyl maqsadlar kichikroq ko'lamdag'i ta'l'm jarayonlariga taalluqli bo'lib, uning mazmuni yo'naltiruvchi maqsadlardan kelib chiqadi. Umumiyl maqsadlar ham har bir fan bo'yicha tuzilgan davlat ta'l'm standardlari ko'rinishida belgilanishi mumkin. Umumiyl maqsadlar yo'naltiruvchi maqsadlarni o'z qamrov ko'lami darajasida oydinlashtiradi va aniqlashtiradi. Shunday bo'sada, yo'naltiruvchi maqsadlar ham ta'l'm oluvchi egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va hulq haqida umumiyl tasavvurni beradi. U ham o'z navbatida pastki ko'lama yanada aniqlashtirilishi va oydinlishtirilishi lozim bo'ladi.

*Aniq maqsadlar.* Aniq maqsadlar eng kichik ko'lamdag'i ta'l'm jarayoniga ta'lluqli bo'lib, uning mazmuni o'z navbatida umumiyl maqsadlardan kelib chiqadi. Masalan, biror bir darsning maqsadi, fanni biror bo'limining o'quv maqsadi. Aniq maqsadlar aniq ifoda etilganligi tufayli ta'l'm jarayonida muhim o'rinn tutadi. Ular biror bir mavzuga yoki biror bir bo'limga oid dars, amaliy mashg'ulot bo'yicha o'lchanishi mumkin bo'lgan aniq yakuniyl bo'lim, ko'nikma, malaka va hulqni ifodalaydi. Shuning uchun ularni ifodalashda, maqsadlar bilan birga, ularga erishish ko'rsatkichlarini, baholash mezonlarini va bu natijalarga erishish uchun yaratilishi lozim bo'lgan shart-sharoitlar (asbob-uskunalar, materiallar va boshqa zaruriy vositalar) tavsifini berish ham lozim bo'ladi. Aniq maqsadlar odatda ta'l'm muassasalari o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi.

Shuningdek, bu maqsadlar yuqorida turgan mutasaddi ta'lif muassasalari, ilmiy-metodik kengashlar tomonidan ishlab chiqilishi va amaliyotga tadbiq qilinishi mumkin.

*Kognitiv, psixomotorik va effektiv o'quv maqsadlari.*

Aniq o'quv maqsadlari mohiyatiga ko'ra uch sohaga bo'linadi:

- kognitiv (nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan bog'liq) o'quv maqsadlari sohasi.

- psixomotorik (amaliy hatti-harakatni o'zlashtirish bilan bog'liq) o'quv maqsadlari sohasi.

- effektiv (hulq, o'zini tutish, atrof muhitga va tevarak atrofdagilarga munosabatning shakllanishi va qadriyatlarni o'zlashtirish bilan bog'liq) o'quv maqsadlari sohasi.

*Kognitiv o'quv maqsadlari sohasi.* Kognitiv o'quv maqsadlari sohasi - o'quv materiallari, ma'lumotlar, axborotlar, turli dalillar, tushunchalar, tamoyillar va usullarni bilish (ya'ni xotirada saqlash va eslash) ularni miyada qayta ishslash orqali tushunish, amalda qo'llash, tahlil va sintez qilish, baholashni o'z ichiga oladi. U bilimlarni yodda saqlash, ya'ni xotirani chiniqtirish, intelektual aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Kognitiv o'quv maqsadlari Blum taksonomiyasi:

- «*Bilish*» darajasi kognitiv sohaning eng quyi bosqichi bo'lib, u tushunchalar, dalillar va tamoyillarni eslash demakdir. Bu bosqichda shaxs o'zlashtirgan bilimlarini xotirada saqlashi va eslashi, ularni nomlashi va ayтиб bera olishi kerak.

- «*Tushunish*» bosqichida o'zlashtirilgan bilimlar mohiyati oydinlashtiriladi va anglab etiladi.

- «*Ko'llash*» bosqichida shaxsning o'zlashtirgan nazariy bilimlar turli shakllarda qo'llaniladi.

- «*Tahlil*» bosqichi shaxsga o'zlashtirilgan bilimlarni tahlil qilish imkonini beradi.

- «*Sintez*» bosqichi shaxsga o'zlashtirilgan bilimlarni o'zaro bir-biriga bog'lash va umumiy aloqadorliklarni aniqlash imkonini beradi.

- «*Baholash*» darajasi eng yuqori bosqich hisoblanadi. Bu bosqich olingan bilimlar asosida ma'lum qadriyatlarga taalluqli holatlarni baholash, qaror qabul qilish, muammolarni hal qilish va baholash mezonlarini yaratish ko'nikmalarini o'zlashtirishni nazarda tutadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, har bir daraja o'zidan oldingi darajadagi bilimlarni o'zlashtirishni taqozo qiladi.

*Psixomotorik o'quv maqsadlari sohasi.* Bu o'quv maqsadlari sohasi amaliy ish jarayonlari orqali hosil qilinadigan ko'nikma va malakalarni egallahshi ko`zda tutadi. Bunda psixika orqali boshqariladigan muskul harakatlari (motorik harakatlar) amalga oshadi. Amaliy faoliyat olib borish, misol uchun, biror asbobni ishlata olish malakasiga ega bo`lish psixomotorik o'quv maqsadlari sohasiga taalluqlidir. Ushbu o'rganish sohasi inson miyasi tomonidan boshqariladigan harakatlarni ifodalaydi. Ular esa o`z navbatida motorik (muskul harakati bilan bog'liq) ko`nikmalarni talab etadi. Psixomotorik harakatlar oddiy, o`rta va kompleks harakatlarga ajratilishi mumkin.

*Affektiv o'quv maqsadlari sohasi.* Affektiv o'quv maqsadlari sohasi, shaxsning uni o`rab turgan atrof muhitga nisbatan munosabati, boshqa kishilar bilan o`zaro muomalasi, hulqi, jamoat joylarida o`zini tutish kabi umuminsoniy qadriyatlarni o`zlashtirishi bilan bog'liq bo`lgan ko`nikmalarni egalashni nazarda tutadi. Uni aniqlashda maslak, manfaat, munosabat, qadriyat, intizom, dunyoqarash, xavfsizlik (xususan, mehnat xavfsizligi) kabi emotSIONAL holatlardan kelib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, ixtiyoriy ta'lif jarayonining maqsadi har uchala o'quv maqsadlaridan iborat. Nazariy darsda ko`proq kognitiv soha, amaliy ta'linda esa ko`proq psixomotorik soha bo'yicha bilimlarni egallahsga e'tibor qaratish lozim. Affektiv sohaga ko'pincha uncha e'tibor berilmasdan kelinar edi. Shaxs kamolotiga yangicha nazar bilan qaralayotgan, katta e'tibor berilayotgan bugungi kunda bu soha yanada katta ahamiyat kasb etib bormoqda.

**Nazorat savollari**

1. Maxsus fanlarni o'qitish uslubiyotini tushuntiring.
2. Talabalar o'quv jarayonini tashkil etish uslubiyotini klasterda tasvirlab bering.
3. O'qitish jarayonini tashkil etishda dastlabki tayyorgarlik bosqichlarini aytib bering.
4. Maxsus fanlarning o'quv maqsadini va mazmunini belgilash sxemasini yaratting va izohlang.
5. Darsning mazmuniy va didaktik tuzilishi asosini nima tashkil etadi?
6. O'quv maqsadlari nimalarini o'z ichiga oladi?
7. Nazariy bilim, aqliy mahorat va ko'nikmalar qaysi o'quv maqsadlari bilan belgilanadi?
8. Effektiv o'quv maqsadlari o'z ichiga nimalarini oladi?
9. Maxsus fanlarni o'qitishda nazariy mashg'ulotlar qanday ketma-ketlikda o'tkazish tavsiya etiladi?
10. Ta'lif muassasalarida mustaqil ishni tashkil etishdan asosiy maqsad nima?
11. Maxsus fan bo'yicha mustaqil topshiriqlar ishlab chiqing.

## XULOSA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturi" qabul qilindi. Uning to'rtinchı yo'nalishi ijtimoiy sohaga mo'ljallangan bo'lib, xuddi shu yo'nalishda yoshlarga doir siyosat olib borish, ta'lim sohasidagi amalga oshiriladigan vazifalar belgilandi.

Shu masala bo'yicha hozirgi kunda Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2017-2021-yillarga mo'ljallangan "Oliy ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi" ishlab chiqildi. Bu dasturda mamlakatimizda kelgusi besh yilda ta'lim sohasida amalga oshiriladigan ustuvor yo'nalishlar, o'quv jarayoni, ilmiy soha yoki yoshlarning ma'naviyatini oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan vazifalar o'z aksini topdi.

Yoshlarni o'qitish va tarbiyalash, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan yuksak malakali kadrlarni tayyorlashda ayniqsa, o'qituvchining tarbiyachi sifatidagi o'rni beqiyosdir. Xususan, mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida o'qituvchining kasbiy faoliyatiga shunday ta'rif beradi: "Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l, avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan beabajo merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lган yana bir buyuk zot-o'qituvchi va murabbiylarning olijanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz<sup>14</sup>".

---

<sup>14</sup> I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». T.: «Ma'naviyat»

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.“2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21- fevraldagи nutqi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017- yil, 38-son, 1029-modda)

3. Mirziyoyev Sh.M. “Taqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017-yil 16-yanvar, №11.

4. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olilianob xalqimiz bilan birga quramiz”. -Toshkent: “O‘zbekiston”- 2017.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y.

6. “Новые педагогические и информационные технологии в системе образования”. Учеб. пособие для студ. Вузов. Под ред. Е.С. Полат. М.: Изд. центр “Академия”- 2008.

7. “Современные методы преподавания в вузах: учебно-метод. пособие”. Т.: М-во высш. и сред. спец. образования. “Ин-т проблем высш. и сред. спец. школы” - 2001.

8. Yuldashev U.Yu, Boqiyev R.R., Zakirova.F.M. “Informatika o‘qitish metodikasi”. O‘quv-metodik qo‘llanma. Т.: “Aloqachi”- 2004.

9. Пашенко О.И. “Информационные технологии в образовании”. Учебно-методическое пособие. Нижневартовск: “Изд-во Нижневарт. гос. ун-та”- 2013.

10. Громкова, М. Т. “Психология и педагогика профессиональной деятельности”. Учеб. пособие для системы дополн. проф. образования и студ. вузов. М. Т. Громкова. М.: “ЮНИТИ”- 2003.

11. Рогинский, В. М. “Азбука педагогического труда”. М.: “Высш. шк.”- 1990.

12. Полякова А.А. “Педагогика. Тесты и задания”. Учебное пособие для студентов средних специальных учебных заведений. М.:”Владос”-2004.
13. Морева Н.А. “Педагогика среднего профессионального образования”. Практикум. М.: ”Академия”-2008.
14. N.Xo'jayev, D.Tojiboyeva, B.Mamarahimov, N.Shomurotova. “Kasbiy ta'lif metodikasi”. Toshkent:”Iqtisodiyot”- 2007.

### Internet saytlari

1. Информатика в образовании ([informatka.ru](http://informatka.ru))
2. Методика преподавания информатики. ([www.vspu.ac.ru/mvv/mpi/mpi-uch.htm](http://www.vspu.ac.ru/mvv/mpi/mpi-uch.htm)).
3. Методическая копилка учителя информатики (<http://www.metod-kopilka.ru/>)
4. Методические материалы для учителя информатики (<http://www.phis.org.ru/informatika/>)
5. Тесты по информатике и информационным технологиям (<http://altnet.ru/mcsmall/index.htm>)
6. [www.tuit.uz](http://www.tuit.uz)
7. [www.intuit.ru](http://www.intuit.ru)
8. [www.edu.Uz](http://www.edu.Uz)
9. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

## GLOSSARIY

**TA'LIM** - bilim berish, malaka va ko`nikma hosil qilish jarayoni bo`lib, kishini hayotga, mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ta'limgarayonida bilim o`zlashtiriladi va tarbiya amalga oshiriladi.

Ta'limning mohiyati, maqsadi va mazmuni jamiyatning madaniy taraqqiyoti, fan-texnikasining rivojlanganligi, ishlab chiqarish texnologiyalarining amalga joriy etish darajasi kabilar bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma'lumotga bo`lgan talab va ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi g'oyalarga qarab kishilik jamiyatining turli davr(bosqich)larida ta'limning mohiyati, maqsadi, mazmuni, tashkil etish shakllari, amalga oshirish metodlari va vositalari o`zgarib, takomillashib boradi.

**TA'LIMNI BAHOLASH**-pedagoglar tomonidan baholash va ta'lim jarayonida erishilgan natijalarni o`quvchilarning o`zları baholashlarini joriy etish; chetga og`ish aniqlanganda ularning sabablarini aniqlash, ko`nikmalar va bilimlarda topilgan kamchiliklarni to`lg`azish, rejalashtirilgan yangi vazifalarni loyihalashni ham nazarda tutadi.

**TA'LIM USLUBI** – o`qituvchi (pedagog) bilan o`quvchi (talaba)lar orasida bilim berish va uni olish maqsadida amalga oshiriladigan o`zarloqalarni tizimga soluvchi pedagogik tadbirlar.

**O'QITISH** – o`qituvchi va ta'lim oluvchining birligida faoliyati va bu jarayonda bolalarning ma'lumot olishi, o`quv ko`nikma va malakasini egallashi, tarbiyalanib, rivojlanib borishi nazarda tutiladi.

**DIDAKTIKA** – grekcha didaskien so`zidan olingan bo`lib, o`qitaman, o`qishni o`rgataman ma'nolarini anglatadi. Shunga ko`ra didaktika – bu o`qitish nazariyasidir. Didaktika o`qitish jarayonining shakllari, metodlari, tamoyillari, mazmuni, vazifasi va maqsadlarini ishlab chiqadi.

**DIDAKTIKANING PREDMETI** – ta'lim-tarbiya muassasasi sharoitda muallimning rahbarligi ostida amalga oshadigan o`quv jarayonidir. Didaktikada ana shu jarayonning qonuniyatlarini tadqiq qilinadi, har xil tipdag'i ta'lim-tarbiya muassasalarida u yoki bu darajada beriladigan ta'lim mazmunini belgilashning ilmiy asoslari, o`qitish vositalari va metodlarining samaradorligini oshirish yo'llari hamda ta'limning tashkiliy shakllari ishlab chiqiladi.

**METODIKA** – Pedagogikaning o`qitish qonuniyatlarini, qoidalari, tashkil etish shakllari, amalga oshirish va natijalarini nazorat qilib baholash metodi hamda vositalarini o`zida mujassamlashtiruvchi fan tarmog`idir. Har

bir o'quv fani o'qitish sohasi o'rgatishning vazifalari, mazmuni, metodlari va tashkiliy ko'rinishi haqidagi metodika asosida quriladi.

Maqsadga yetishda muayyan to'siqni yengib o'tish uchun qo'llaniladigan tadbir va choralar majmuini USUL deyiladi.

O'QITISH METODIKASI - bu turli usullar tizimi bo'lib, o'quvdidaktik materiallardan foydalanish orqali belgilangan maqsadga erishish uchun nazariy dars va amaliy mashg'ulotlar paytida qo'llaniladigan usullar majmuasidir.

KASBIY PEDAGOGIKA – umumiy pedagogikaning bir sohasi bo'lib, u tarbiya, ta'lim, o'qitish haqida qator nazariy va amaliy ma'lumotlar beradi. Kasbiy pedagogika sanoat, ishlab chiqarish va mehnat pedagogikasining masalalari bilan shug'ullanadi.

KASB TA'LIM TEXNOLOGIYASI - butun o'qitish va o'qish jarayonini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashning tizimli usuli bo'lib, u maqsadga erishishga yo'naltirilgan holda insonlarning o'rganish qobiliyati va ular o'rtasida muloqot to'g'risidagi tadqiqotlar natijasiga hamda ta'lim jarayonini yanada samarali tashkillashtirishning jonli, jonsiz vositalari bilan shug'ullanishga asoslanadi.

KASBIY TA'LIM METODIKASI - ijtimoiy hayotning ma'lum sohasida faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, amaliy ish-harakat usullarini shakllantirish qonuniyatlari, qoidalari, shakl, metod va vositalari hamda mazmuni haqidagi pedagogikaning muhim tarmog' idir.

KASBGA YO'NALTIRISH – jamiyat extiyojidan kelib chiqqan holda tarbiyalanuvchiga ma'lum bir kasb-hunar o'rgatishning ma'rifiy jarayoni.

QOBILIYAT – kishiga tabiatdan berilgan iqtidor, layoqat.

METOD iborasi (yunoncha-methodas-tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya, ta'lilot ma'nosini anglatib) voqelikni bilish, o'zlashtirish, o'zgartirish usullari majmuasidir. Metod aslida insonning amaliy faoliyati negizida vujudga kelgan. Metod – pedagogik jarayon elementi sifatida mazmun maqsadlarga maksimal mos kelishi kerak, ana shunda – tarbiya, o'qish, o'rganish amalga oshadi. Metodning asosiy vazifikasi – qobiliyatni rivojlantirish. Kasbiy faoliyatda metodning asosiy ko'rsatkichi – uning kasbiy faoliyat vositalariga mosligidadir.

METODOLOGIYA – metod va logiya iboralarining birligida bilish faoliyati usuli, tuzilishi vositalari va mantiqiy tartibi haqidagi ta'lilot ma'nosini anglatadi. Demak, metodologiya har qanday faoliyatning zaruriy tashkiliy komponentidir.

Metodologik bilimlar, eng avvalo, muayyan faoliyat turlarining mazmuni va izchilligini o'ziga qamrab olib, odad hamda me'yorlar shaklida, ikkinchidan, amalda bajariladigan faoliyatning ta'siri sifatida yuzaga chiqadi. Har ikkala holda ham bilimning asosiy vazifasi bilish jarayonini tartibli ravishda amalga oshirish yoki biror ob'ektni amaliy o'zgartirishdan iborat.

**MA'LUMOT** ikki ma'noda ishlatilib, ikkisi ham pedagogikaga tegishli.

1. Xabar – o'qish jarayonini amalga oshiruvchi vosita. Bilimli kishining unga talabgor bo'lganlarga bilim berishi, yetkazishi. Ma'lum qilish til va ko'rgazmalar yordamida uni boshqalarga bildirishdir.

2. Bilim darajasi. O'qish, bilish, ya'ni borliqdagi ob'ektiv mavjud qonuniyatlarni his qilish natijasida olingan bilimlar yig'indisi – past ma'lumotli, o'rta va yuqori ma'lumotli va hokazo.

**MA'RUZA** – bilimni so'z bilan ifodalash uslublaridan biri sifatida beriladigan, bilimlarni og'zaki bayon qilishni ko'zda tutib, o'z hajmining kattaligi, mantiqiy qurilishi, obrazli isbotlash va umumlashtirishning murakkabligi bilan hikoyadan ajralib turadi.

**PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA** - ta'lim va tarbiya jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnikaviy tafakkur asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq tushunchadir.

Birlashgan millatlar tashkilotining nufuzli idoralaridan YuNESKOning ta'rifi bo'yicha, «PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA – bu bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o'zaro uzviy bog'liq holda ko'rib, butun ta'lim jarayonini loyihalashda va amalda qo'llashda majmuli yondashuv usulidan foydalanishdir».

**PEDAGOGIK TAMOYIL (PRINSIP)lar** – o'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabatda beriladigan bilim turi, hajmi va mazmuni, shuningdek o'quv qurollari va tarbiyalanuvchilarining ruhiy xususiyatlari va shular oralaridagi zaruriy bog'liqlik (qonuniyat)lardan kelib chiqqan qoidalar.

**PEDAGOGIK TAJRIBA** - ta'lim-tarbiya beruvchi tomonidan ma'rifatning tamoyillari va ta'lim-tarbiya berishning muayyan usul va uslublarini to'liq o'zlashtirish hamda ularni amalda qo'llashdagi real shart-sharoitlarni, bolalar jamoasi va har bir shaxsning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda amaliyotda tatbiq etishdir.

**PEDAGOGIK MUHIT** – ta'lim-tarbiya maqsadlariga muvofiq ravishda tuzilgan shaxslararo munosabatlar majmui.

**PEDAGOGIK MULOQOT** – bevosita ta'lim-tarbiya bilan bog'liq muloqot turi.

**ILG'OR PEDAGOGIK TAJRIBA** – o'qituvchi tomonidan ma'rifat fanining tamoyillari va ta'lim-tarbiya berishning usul va uslublarini yaxshi o'zlashtirib ularga ijodiy yondashgan holda, nisbatan samaraliroq usul yoki uslub yaratish tushuniladi.

**TA'LIMIY KENGLIK** – ta'lim jarayonlari amalga oshiradigan, ya'ni tashqi atrof – muhit bilan o'zaro harakat anglanadigan va amalga oshiriladigan kenglik. Pedagogik jarayonda ta'lmiy kenglikning son va sifat jihatdan tavsifi asosan pedagogga, uning ichki madaniyati, dunyoqarashi, qarashlariga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham pedagogning professional tayyorgarligi nafaqat aniq mazmunni egallashga, balki, ekologik madaniyat, ma'naviyat, umumiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan taqdirda maqsadga muvofiq bo'ladi. Tashqi va ichki ta'lmiy kenglik kasbiy faoliyatning ahamiyati bugungi kun ta'limining eng dolzarb muammolaridandir.

Muayyan ilm sohasi yoki tarmoq ilmi tadqiqotlarni aniq bir majmuiga qaratishi shu ilmning TADQIQOT OB'EKTI deyiladi.

Majmuni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi funksional aloqadorlik ma'lum narsa yoki hodisaning alohida jabhasi hisoblanib, ilm uchun TADQIQOT PREDMETI vazifasini o'taydi.

**USLUBIYOT** – pedagogika sohasidagi tarixan tarkib topgan va aniqlangan atama, tushuncha va qonuniyatlardan foydalanib, didaktika tamoyillariga asoslangan holda ta'lim va tarbiya berishning usul va uslubiyotini yaratuvchi va ularni boshqalarga o'rgatuvchi ilm-fan tarmog'i idir.

BILIM- bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi ularning ichki zaruriyatidan kelib chiqqan bog'liqlikdir. Uni qonuniyat deb ham yuritiladi. Chunki bu zaruriy bog'liqlik narsa va hodisalarining tabiatidan kelib chiqib, bizning ixtiyorimizdan tashqari o'zi mavjud. Uni o'zgartirib bo'lmaydi. Bilim kishidan kishiga ma'lumot (axborot) orqali o'tadi.

**KO'NIKMA** deganda odamning bilim olishi, elementar tajriba va malakaga tayanib biron ishni muvaffaqiyatli bajarish imkoniyati tushuniladi.

**MALAKA-** kishi egallagan bilimlari ko'nikma bosqichidan o'tib, doimiy harakat turiga aylanishi, mahorat hosil qilishi.

Ko'nikma va malakalar deganda biror shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratib beruvchi, tashqaridan kuzatish mumkin bo'lgan harakatlari va reaksiyalari tushuniladi. Malakalar ongli ravishda amalga oshirilgan faoliyatning tarkibiy qismiga kiruvchi avtomatik tarzda yuz beradigan harakatlardir.

**MAHORAT-** o'zlashtirilgan bilimlar va hayotiy tajribalar asosida barcha amaliy harakatlarni (shu jumladan dars berishni) kam kuch va kam vaqt sarflab bajarish.

**BAHOLASH-** ta'lif jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat bo'lgan jarayondir.

**MILLIY PEDAGOGIKA** - Davlat konstitutsiyasi, "Ta'lif to'g'risida"gi Qonun hamda istiqbol rejalanish dasturlari, jamiyatning tarixiy taraqqiyot qonuniyatlari va jahondagi ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tuzilgan ta'lif-tarbiya nazariyasi, usul va uslublar majmui tushuniladi.

**MA'NAVIYAT** – bu shaxsning egallagan foydali bilimlari (bilim turidan qat'i nazar) uning hayotida bir necha bor takrorlanishi natijasida ko'nikma va malaka bosqichlaridan o'tib, ruhiga singib, uning hayot tarziga aylanib ketgan ijtimoiy sifatlaridir.

**ILMNING TADQIQOT OB'EKTI** – muayyan ilm sohasi yoki tarmoq ilmi tadqiqotlarini bir majmuaga qaratish.

**ILMNING TADQIQOT PREDMETI** – majmuani tashkil qiluvchi qismlar orasidagi funksional aloqadorlik ma'lum narsa yoki hodisaning alohida jabhasi hisoblanadi.

Narsa yoki hodisaga yetishish bo'yicha inson tomonidan maqsad qilib qo'yilgan, ammo ilmiy asoslanmagan bo'lsa-da, mantiqan bog'liq tadbirlar majmuiga TAXMIN (GIPOTEZA) deyiladi.

Maqsadga yetishish taxmini mavjud qonuniyatlarda asoslab berilgan bosqichni konsepsiya yoki ilmiy asoslangan TAXMIN deyiladi.

Maqsadga yetishish taxmini mavjud qonuniyatlarda asoslab berilgan bosqichni KONSEPSIYA yoki ilmiy asoslangan taxmin deyiladi.

Ilmiy aoslanib, maromiga yetkazilgan taxmin konsepsiya yaga aylanadi. Har qanday ilmiy asoslangan loyihami amalda sinab ko'rish talab qilinadi. Maqsadga yetishishning ilmiy asoslangan loyihasini amalda sinab ko'rish TAJRIBA deyiladi.

**NAZARIYA** deb tafakkurning barcha bosqichlaridan o'tgan va amaliyotda sinab ko'rilib maromiga yetkazilgan bilimlar majmuiga aytildi.

**ELEKTRON O'QUV ADABIYOTLARI** - zamонавиъи аҳборот texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan manba hisoblanadi.

ELEKTRON O'QUV NASHRI - ta'lif oluvchilar tomonidan bilimlar, ko'nikmalar va mahoratlarni ijodiy va faol egallashlarini ta'minlaydigan ilmiy amaliy bilim sohasiga mos ravishdagi tizimlashtirilgan o'quv materialiga ega bo'lgan elektron nashr.

ELEKTRON KUTUBXONA - o'quvchi hamda pedagoglar uchun hujjatlashtirish va xavfsizlikning xususiy tizimi bilan ta'minlangan, to'liq matnli elektron axborotni resurslar, telekommunikatsiya vositalari asosida jamlash va yetkazish imkoniyatini ta'minlovchi dasturli majmuadir.

ELEKTRON O'QUV QO'LLANMASI - darslikni qisman yoki to'liq almashtira oladigan yoki to'ldiradigan rasmiy tasdiqlangan elektron o'quv nashri.

ELEKTRON DARSLIK (ED) - kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lif olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarador o'zlashtirilishiga mo'ljallangan.

**MUNDARIJA**

<b>SO'Z BOSHI</b>	3
<b>1- bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "HARAKATLAR STRATEGIYASI"</b>	5
1.1. "Harakatlar strategiyasi": taraqqiyotning yangi bosqichi, yangi vazifalar	5
1.2. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi	8
1.3. O'zbekiston Respublikasi ta'limgiz tizimida olib borilayotgan tub islohoitlar	21
1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'limgiz tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori - ta'limgizi rivojlantirish omili	27
<b>2- bob. "OLIY TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA KOMPLEKS CHORA-TADBIRLARI" DASTURI</b>	32
2.1. Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini ta'minlash	32
2.2. 2017-2021-yillarda oliy ta'limgiz tizimini kompleks rivojlantirish dasturi va uning tarkibi	36
2.3. Ta'limgizning malaka talablari va vazifalari	38
2.4. Oliy ta'limgizning o'quv rejasi, uning maqsadi va vazifalari	46
2.5. Oliy ta'limgiz muassasasiga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish	51
<b>3- bob. PROFESSOR O'QITUVCHINING VAQT ME'YORLARI</b>	59
3.1. Oliy ta'limgiz muassasalarida ta'limgiz sifatini oshirish	59
3.2. Vaqt me'yori, o'qituvchining shaxsiy ish rejasi va uning bajarilishi	65
3.3. Professor o'qituvchining yillik o'quv yuklamasi, o'quv-uslubiy ishlari, ilmiy tadqiqot ishlari va "Ustoz - shogird" ishlarini rejalashtirish	67
3.4. OTMlarda talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi	71
<b>4- bob. MAXSUS FANLAR MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH USLUBIYOTI</b>	74
4.1. Maxsus fanlarning o'ziga xos xususiyatlari	74
4.2. Maxsus fanlarni o'qitish uslubiyotida qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot usullari	77
4.3. Maxsus fanlarni o'qitish tamoyillari	82
4.4. Maxsus fanlarning o'quv uslubiy ta'minoti	85
4.5. O'quv fanining o'quv uslubiy majmuasi: tuzilishi, mazmuni	87
<b>5- bob. MAXSUS FANLAR BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH USLUBIYOTI</b>	91
5.1. Maxsus fanlar bo'yicha nazariy mashg'ulotlarni o'tkazish uslubiyoti	91
5.2. Talabalarning mustaqil ishlari (kurs ishlari, loyiha va bitiruv malakaviy ishlari), malakaviy amaliyotini tashkil etish uslubiyoti	93
5.3. O'qitish jarayonini tashkil etishda dastlabki tayyorgarlik	97
5.4. Maxsus fanlarning o'quv maqsadini va mazmunini belgilash	102
<b>XULOSA</b>	108
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR</b>	109
<b>GLOSSARIY</b>	111

**Ziyadullayev Davron Shamsiyevich**

**MAXSUS FANLARNI O'QITISH  
USLUBIYOTI**

**O'QUV QO'LLANMA**

**TOSHKENT – “INNOVATSIYA -ZIYO” -2019**

Mas'ul muharrir: D.SH. Ziyadullayev  
Musahhihlar: D.A.Zaripova  
G.E.Ziyodullayeva

Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.

Bosishga 6.02.2019 da ruxsat etildi. Bichimi 60x90.

“Times New Roman” garniturası.  
Offset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog' 8 Nashr bosma tabog'i 7,37.  
Adadi 50 nusxa.